

 **BUXORO DAVLAT
PEDAGOGIKA
INSTITUTI**

ISSN 2181-4201



**№ 1
2025**

TA'LIM TRANSFORMATSIYASI

**ОБРАЗОВАТЕЛЬНАЯ
ТРАНСФОРМАЦИЯ**

**EDUCATIONAL
TRANSFORMATION**



ILMIY – METODIK JURNAL



**BUXORO DAVLAT
PEDAGOGIKA
INSTITUTI**

BUXORO DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI

TA'LIM TRANSFORMATSIYASI

ILMIY – METODIK JURNAL

No. 1

BUXORO – 2025

**ILMIY – METODIK JURNAL
TAHRIR HAY’ATI TARKIBI**

Bosh muharrir:

Ma’murov Bahodir Baxshullayevich

Buxoro davlat pedagogika instituti rektori, p.f.d. (DSc), professor

Tahrir hay’ati raisi:

Qahhorov Siddiq Qahhorovich

pedagogika fanlari doktori, professor.

Muqimov K.M.	– O’zRFA akademigi, fizika-matematika fanlari doktori, professor
Xamidov O.X.	– iqtisod fanlari doktori (DSc), professor
Murodov Sh.N.	– fizika-matematika fanlari bo’yicha falsafa doktori (PhD)
Ikramov A.A.	– pedagogika fanlari bo’yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Raximov Sh.A.	– fizika-matematika fanlari nomzodi, dotsent
Muxtorov E.M.	– psixologiya fanlari nomzodi, dotsent
Niyozov A.K.	– texnika fanlari bo’yicha falsafa doktori (PhD), dotsent.
Sharipov A.Z.	– falsafa fanlari doktori (DSc), professor
Qahhorov O.S.	– iqtisod fanlari doktori (DSc), professor
Barotov Sh.R.	– psixologiya fanlari doktori, professor
Olimov Sh.Sh.	– pedagogika fanlari doktori, professor
Rasulov T.H.	– fizika-matematika fanlari doktori (DSc), professor
O’rayeva D.S.	– filologiya fanlari doktori, professor
Amonov M.R.	– texnika fanlari doktori, professor
Bo’riyev S.B.	– biologiya fanlari doktori, professor
Ma’murov B.B.	– pedagogika fanlari doktori, professor
Abdullayev M.J.	– pedagogika fanlari doktori (DSc), professor
Jo’rayev A.R.	– pedagogika fanlari bo’yicha falsafa doktori (PhD), professor
Saidova M.J.	– pedagogika fanlari doktori (DSc), dotsent
Nazarov M.R.	– fizika-matematika fanlari nomzodi, dotsent
Izbullayeva G.V.	– pedagogika fanlari doktori (DSc), dotsent Tadjixodjayev Z.A. texnika fanlari doktori, professor
Tosheva D.A.	– filologiya fanlari bo’yicha falsafa doktori (PhD) dotsent
Byulent Bayram	– filologiya fanlari doktori, professor (Ahmad Yassaviy nomidagi xalqaro Turk-Qozoq universitet)
Timur Kojaog’lu	– filologiya fanlari doktori, professor (AQSH Michigan davlat universiteti)
Irina Pokrovskaya	– filologiya fanlari doktori, professor (Taras Shevchenko nomidagi Kiyev milliy universiteti)
Murat Elmali	– filologiya fanlari doktori, professor (Istanbul universiteti)
Mehmet Y.Y.	– filologiya fanlari doktori, professor (Istanbul universiteti)
Starikov Marcelo	– pedagogika fanlari doktori, professor (New York)

Muassis: Buxoro davlat pedagogika instituti

Tahririyat manzili: Buxoro shahar Piridastgir ko’chasi 2-uy.

Telefon: (+998 65) 226-10-97

Faks: (+998 65) 226-66-75

Elektron manzil: buxdpi@buxdpi.uz.

ISSN – 2181-4201

PEDAGOGIKA, PSIXOLOGIYAVA METODIKA

BOLALAR VA O'SMIRLARDA JINOYATCHILIK XULQINING KELIB CHIQUISHIDA IJTIMOIIY MUHITNING O'RNI

Kurbonova Dिल्фуза Samiyevna, Buxoro Psixologiya va Xorijiy tillar instituti talabasi
Kurbanovadilya80@gmail.com

Annotatsiya: Mazkur maqola bolalar va o'smirlarda jinoyatchilik xulqining shakllanishida ijtimoiy muhitning hal qiluvchi ahamiyatini tahlil qiladi. Ijtimoiy muhit, ya'ni jamiyatlardagi turli omillar, bolaning xarakteri va xulq-atvoriga sezilarli ta'sir ko'rsatadi. O'smirlik davrida ijtimoiy muloqot, do'stlar, oila va maktabdagi ta'sirlar, shuningdek, yashash muhiti va iqtisodiy sharoitlar jinoyatchilik xulqining yuzaga kelishiga sabab bo'lishi mumkin. Maqolada, ijtimoiy muhitning bolalar va o'smirlarning psixologik va ijtimoiy rivojlanishiga qanday ta'sir qilishini o'rganish va jinoyatchilikka qarshi samarali choralarini ishlab chiqish muhimligi ko'rib chiqiladi.

Kalit so'zlar: Jinoyatchilik, Bolalar va o'smirlar, Ijtimoiy muhit, Xulq-atvor, Psixologik ta'sir, Oila va jamiyat, Ijtimoiy sharoit, Jinoyat profilaktikasi, O'smirlik davri, Sotsializatsiya

THE ROLE OF THE SOCIAL ENVIRONMENT IN THE ORIGIN OF CRIMINAL BEHAVIOR IN CHILDREN AND ADOLESCENTS

*Kurbonova Dिल्фуза Samiyevna, Student of Bukhara Institute of Psychology and
Foreign Languages*
Kurbanovadilya80@gmail.com

Abstract: This article analyzes the decisive importance of the social environment in the formation of criminal behavior in children and adolescents. The social environment, i.e., various factors in society, have a significant impact on the child's character and behavior. During adolescence, social interaction, friends, family, and school influences, as well as living environment and economic conditions can cause criminal behavior to occur. The article considers the importance of studying how the social environment affects the psychological and social development of children and adolescents and developing effective measures against crime.

Key words: crime, children and adolescents, social environment, behavior, psychological impact, family and society, social conditions, crime prevention, adolescence, socialization

РОЛЬ СОЦИАЛЬНОЙ СРЕДЫ В ВОЗНИКНОВЕНИИ КРИМИНАЛЬНОГО ПОВЕДЕНИЯ У ДЕТЕЙ И ПОДРОСТКОВ

*Курбонова Дильфуза Самиевна, Студентка Бухарского института психологии и
иностраннных языков*
Kurbanovadilya80@gmail.com

Аннотация: В данной статье анализируется решающее значение социальной среды в формировании преступного поведения у детей и подростков. Социальная среда, т.е. различные факторы общества, оказывают значительное влияние на характер и поведение ребенка. В подростковом возрасте социальное взаимодействие, влияние друзей, семьи, школы, а также среда проживания и экономические условия могут стать причиной преступного

поведения. В статье рассматривается важность изучения того, как социальная среда влияет на психологическое и социальное развитие детей и подростков, и разработки эффективных мер по борьбе с преступностью.

Ключевые слова: *преступность, дети и подростки, социальная среда, поведение, психологическое воздействие, семья и общество, социальные условия, профилактика преступности, подростковый возраст, социализация*

Oiladagi nosogʻlom psixologik muhit va oilaviy tarbiyadagi yoʻl qoʻyilayotgan nuqsonlar hamda taʼlim jarayonida kuzatilayotgan nuqsonlar, bolalar va oʻsmirlar yashayotgan mahallalar hayoti, ularning psixologik muhiti voyaga yetmaganlarda jinoyatchilik xulqining kelib chiqishiga oʻz taʼsirini oʻtkazmasdan qolmaydi.

Maʼlumki, jinoyatchilik xulqining kelib chiqishi xilma-xil omillarga bogʻliqdir. Shuning uchun uni tadqiq qilish ishlari bu muammoga har tomonlama yondashuvni taqozo qiladi. Shu boisdan tadqiqotimizda voyaga yetmaganlarda jinoyatchilik xulqining kelib chiqishiga taʼsir etuvchi ijtimoiy muhitni oʻrganishda bir qator metod va metodikalardan foydalanildi.

1. Shaferning “Ota-onalar xulq-atvori oʻsmirlar nazarida” (1965) test-soʻrovnomasining Z.Mateychik, Rjichan (1983) va tadqiqot uchun maxsus qayta ishlangan variantidan foydalanildi. Ushbu testni qoʻllashdan maqsad oʻsmirlarning ota-onalari xulq-atvori va ularning farzandlariga qiladigan munosabatini oʻrganishdan iboratdir.

2. Voyaga yetmaganlarning jinoiy harakatlari boʻyicha prokuratura va ichki ishlar organlari tomonidan qoʻzgʻatilgan jinoiy ish hujjatlari katanamnistik taqlil qilindi. Tahlil jarayonida jinoyatchilik xulqiga ega boʻlgan bolalar va oʻsmirlarning oʻqish, oʻqishdan tashqari faoliyatlari, oiladagi oʻrni, oilaviy shart-sharoitlari va shu kabi maʼlumotlardan foydalanildi.

3. Tadqiqotda suhbat metodidan ham keng miqyosda foydalanildi. Suhbat jarayonida voyaga yetmagan yoshdagi jinoyatchilar, ularning ota-onalari ishtirok etdilar.

4. Bolalar va oʻsmirlarda jinoyatchilik xulqining kelib chiqishiga taʼsir koʻrsatuvchi ijtimoiy-psixologik omillarni oʻrganish boʻyicha oʻzimiz tomonimizdan tuzilgan ijtimoiy-psixologik soʻrovnomadan (IPS) foydalanildi.

Maʼlumki, voyaga yetmaganlar jinoyatchiligining kelib chiqishi va ijtimoiy muhit oʻrtasida oʻziga xos taʼsir doirasi mavjuddir. Ushbu oʻzaro taʼsir mexanizmi nazarimizda uch xil koʻrinishda namoyon boʻladi.

Birinchidan, nosogʻlom ijtimoiy muhit bilan shaxsning oʻzaro aloqalari oʻsmirlarda ijobiy qarashlarning salbiylashuviga olib kelsa, ikkinchidan shaxs va nosogʻlom ijtimoiy muhit oʻrtasidagi oʻzaro aloqa kishiga ijtimoiy meʼyorlarga toʻgʻri kelmaydigan muayyan yoʻl-yoʻriqni, xususan gʻayriqonuniy vazifalarni bajarish boʻyicha rollarni taqsim etadi. Uchinchidan esa gʻayriqonuniy yoʻl-yoʻriqlar va rollar taqsimoti oʻsmirda asta-sekin ijtimoiy muhit talab va meʼyorlariga nisbatan deformatsiyalashuvning kelib chiqishiga sabab boʻladi. Ushbu deformatsiyalashuv shaxs xulqida oʻziga xos oʻzgarishlarni keltirib chiqaradi. Shuning uchun ham jinoyatchilik xulqiga ega boʻlgan bolalar va oʻsmirlarning aksariyat qismi ijtimoiy muhitga nisbatan deformatsiyalashuv pogʻonasida boʻladilar.

Oʻsmirlarda ijtimoiy muhitga nisbatan boʻlgan deformatsiyalashuvning yuzaga

kelishi va ularda ijtimoiy pozitsiyaning mavjud bo'lmashligi yoki tusatdan yo'qolishligi (maktabdan haydali, oilada nosog'lom muhitning mavjudligi, ishidan, yaqin kishidan mahrum bo'lish) o'z navbatida noqonuniy, noaxloqiy pozitsiyaning shakllanishiga olib keladi. Ya'ni, turli xil g'ayriqonuniy, noaxloqiy guruhlarga qo'shilish, referent guruhlarning tashkil etilishiga sabab bo'ladi. Shu boisdan jinoyatchilik kuchasiga kira boshlagan o'smir ko'pincha maktabni tashlaydi, o'zicha ishga kirmoqchi bo'ladi, ko'pchiligi esa umuman foydali mashg'ulot bilan shug'ullanmaydilar.

Shuning uchun o'z davrida G.M. Minkovskiy - "ishlamaydigan, o'qimaydigan bolalar va o'smirlar o'rtasida o'qiydigan, ishlaydigan bolalar va o'smirlarga nisbatan yigirma barobar ko'p jinoyatchilik sodir etiladi" deb ta'kidlagan edi.

Kuzatishlarimizga qaraganda, o'rganilgan jinoyatchilik xulqiga ega bo'lgan bolalar va o'smirlarning aksariyat qismi ijtimoiy foydali mashg'ulotlarda qatnashmaydi, gazeta, jurnal yoki badiiy adabiyotlar o'qimaydilar. O'qiganlarida ham o'ziga xos qiziqishlar (rasmlar, sud materiallari, e'lonlar va boshqalar) bilan cheklanadilar. Ularda teatrga tushish, darslik va badiiy kitoblar o'qish bo'yicha ko'rsatgich darajasi ancha pastdir.

Ushbulardan ko'rinadiki, ijtimoiy foydali mashg'ulot bilan shug'ullanish, kitob, gazeta o'qish, teatrlarga borish o'smirlarda ijtimoiy foydali, ijobiy pozitsiyalarning va ustanovkalarining paydo bo'lishiga olib keladi. Aksincha holatlarda esa bolalar va o'smirlar xulqida salbiy pozitsiya va ustanovkalarining shakllanishiga imkoniyat yaratiladi. Bundan kelib chiqib aytish mumkinki, ijtimoiy muhit voqea-hodisalari va shart-sharoitlarning o'smirlarga ta'sir etishi ular xulq-atvori mazmunini belgilab beradi. Agarda ijtimoiy muhitdagi voqea-hodisalar va shart-sharoitlar o'smirlarga ijobiy ta'sir etsa o'smir xulqida ijobiy xislatlar, aksincha holatlarda esa salbiy xislatlar, g'ayriqonuniy ustanovkalar shakllanadi.

Bizni qiziqtirgan masalalardan yana biri jinoiy xatti-harakatlarni amalga oshirgan bolalar va o'smirlarning ijtimoiy foydali mashg'ulotlar bilan shug'ullanish holati bo'ldi. Bunga ko'ra, respublikamizda 5 yil mobaynida voyaga yetmaganlar tomonidan sodir etilgan jinoyatlarning statistik ma'lumotlariga ko'ra, jinoiy harakatlarni sodir etgan bolalar va o'smirlarning 52,4 foizi o'qimaydigan va ishlamaydigan, 26,4 foizi o'rta maktabda va 21,1 foizi o'rta maxsus kasb-hunar ta'limi maskanlarida o'qiydigan bolalar va o'smirlarni tashkil qiladi.

Kuzatishlarimizdan ma'lum bo'lishicha, hech qayerda o'qimaydigan, ishlamaydigan bolalar va o'smirlar voyaga yetmaganlar jinoyatchiligining yadrosini tashkil qiladi. Jinoiy harakatni sodir etgan bolalar va o'smirlar suhbat jarayonida maktabga bormadim, o'qishni xo'sh ko'rmadim, o'qishga qiziqishim bo'lmadi, darslarni tez-tez qoldirdim, o'qishni tashlaganimda ahmoq bo'lgan ekanman, shundan so'ng o'g'irlik qila boshladim, o'qishni tashlamaganimda o'g'irlik ko'chasiga kirmagan bo'lar edim. O'zimning ahmoqligim tufayli qamoqqa tushdim va boshqa shu singari afsus va nadomatli gaplarni ta'kidlaganliklari ijtimoiy foydali mashg'ulotlar bilan shug'ullanmaslik holati bolalar va o'smirlarda jinoyatchilik xulqining kelib chiqishida asosiy sabablardan biri sifatida namoyon bo'lishligini ko'rsatadi.

Kuzatishlarimizdan ma'lum bo'lishicha, jinoyatchilik xulqiga ega bo'lgan bolalar va o'smirlarning ijtimoiy muhiti sog'lom xulqli bolalar va o'smirlar ijtimoiy muhitidan o'ziga xos tor doiradagi dunyoqarashga egaligi, nizoli vaziyatlar doirasining kengligi, qat'iy hayotiy pozitsiyaning, kelajakka nisbatan ijobiy qarash, maqsad va intilishlarning

yoʻqligi va shu kabi bir qator jihatlar bilan farqlanadi. Quyida biz ushbu jihatlarini kengroq tahlil qilishga harakat qilamiz.

1. Jinoyatchi bolalar va oʻsmirlarning xatti-harakatlari oila aʼzolari tomonidan qoʻllab-quvvatlanish holati. Bunda oʻsmirning noqonuniy xatti-harakatiga oila aʼzolari va yaqinlari tomonidan ijobiy munosabat bildiriladi. Bunday ish qilma, qilayotgan harakating noqonuniy deyish oʻrniga ota-ona va atrofdagilar ularning noqonuniy xatti-harakatlarini maʼqullashadi yoki unga eʼtibor berishmaydi. Natijada oʻz noqonuniy harakatining maʼqullanishini his etgan oʻsmir yana boshqa bir noqonuniy harakatga qoʻl oʻradi. Oqibatda jinoyatchilik xulqi oʻsmirning butun faoliyatini, ongini qamrab oladi.

Jinoyatchilik xulqiga ega boʻlmagan bolalar va oʻsmirlar muhiti esa aksincha boʻlib, unda oila aʼzolari, oʻrtoqlari, oʻsmirning noqonuniy harakatini qoʻllab quvvatlamaydilar, tanbeh va tushuntirishlar beradilar. Bunday holatlarda oʻsmir xulqida ijobiy xislatlar yuzaga keladi.

2. Sogʻlom xulqli bolalar va oʻsmirlarga qaraganda jinoyatchilik xulqiga ega boʻlgan bolalar va oʻsmirlarga ijtimoiy muhitdagi salbiy taʼsirlarning bir joyga toʻplangan holda (konsentratsiyalashgan) taʼsir etishi holati. Yaʼni, jinoyatchilik xulqiga ega boʻlgan oʻsmirga ijtimoiy muhitdagi salbiy taʼsirlar toʻplangan va har taraflama holda taʼsir qiladi. Boshqacha qilib aytganda, oʻsmirning noqonuniy, noaxloqiy muhit hukm surayotgan muhitga tushib qolishi unga har tomonlama yaʼni, ham maʼnaviy, ham ruhiy, ham jismoniy, ham koʻrgazmali tarzda taʼsir oʻtkazadi. Bu oʻsmirda jinoyatchilik xulqining kelib chiqishi uchun qulay ijtimoiy muhit va shart-sharoit boʻlib xizmat qiladi. Natijada oʻsmirda nosogʻlom xulq - atvor psixologiyasi shakllanadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1.Umarov B.M. Bolalar va oʻsmirlarda xulq ogʻishining kelib chiqishi va uning oldini olishning ayrim psixologik masalalari. //uslubiy qoʻllanma. – T. –2008, 85-bet. 81

2.Калмыкова Э. С., Падун М. А. Ранняя привязанность и ее влияние на устойчивость к психической травме: Постановка проблемы (Сообщ. 1) // Психологический журнал. – Т. 23. – М.: 2002. – No 5. – С.

3.Qarshiboyeva G. Oilada bolalarni xalq ogʻzaki ijodida naʼmunalari asosida tarbiyalash //Архив Научных Публикаций JSPI. –2020.

4. Шарафитдинов А. и др. Проблема застенчивости у ребенка и ее устранение //Образование и воспитание. –2020. –No. 2. –С. 64-66.

5.Шарафитдинов А. и др. Формирование у учеников чувства общности //Образование и воспитание. –2020. –No. 2. –С. 66-67

6.МаджидовДж Б, Маджидова В, ШарофиддиновА. Социальный интеллект как совокупность способностей, обеспечивающих адаптацию личности в обществе страницы: 22-24 источник: актуальные вопросы современной психологии материалы международной научной конференции. 2017

7.Sharaffitdinov, A., &Yusupov, U. (2022). The opportunities of educating morality for children through samples of folklore. EurasianScientificHerald, 5, 65-68.

8. Sharafitdinov Abdulla, Qurbonboyev Miraziz Zulxaydar
o'g'li Psychological Characteristics of DecisionMaking in Management
Global Scientific Review A Peer Reviewed, Open Access, International Journal
www.scienticreview.com

Volume 1, February 2022 ISSN (E): Pending

9. Sharofitdinov, A. (2022). BOSHQARUV JARAYONIDA QA
ROR QABUL QILISHNING PSIXOLOGIK XUSUSIYATLARI. Журнал
Педагогики и психологии в современном образовании, 2(6).извлечено от
<https://ppmedu.jspi.uz/index.php/ppmedu/article/view/5405>

NEYROPEDAGOGIKA VA BOLANING TIL BORASIDAGI KOMPETENTLIGINI SHAKLLANTIRISH

Rustamova Laylo Furqat qizi, BuxDPI 1MTPP23 guruh talabasi
farmonovfurqat167@gmail.com

Annotatsiya: Ushbu maqolada neyropedagogika va bolada nutqiy kompetensiya shakllanishi haqida, bolalarda nutqiy imkoniyatlarni oshirishning ahamiyati hamda nutqiy kompetensiyani tashkil etuvchi asosiy elementlar haqida fikr yuritilgan. Bolada nutq jarayonini shakllantirishda bir qancha usullardan foydalaniladi. Bolaning ta'limi moslashuvchan bo'lishi kerak, bunda bolaning miya rivojlanishining yosh standartlari va aqliy neoplazmalar haqidagi bilimlariga tayanish kerak.

Kalit so'zlar: Nutq kamchiligi, kompetensiya, nutqiy kompetensiya, elementlar, so'zlash, nutq, psixomotor rivojlanish, tafakkur, xotira va diqqat, ijtimoiy va hissiy soha, polimodal soha.

NEUROPEDAGOGY AND FORMATION OF LANGUAGE COMPETENCE OF THE CHILD

Rustamova Laylo Furkat kizi, Students of BuxDPI 1MTPP23
farmonovfurqat167@gmail.com

Abstract: This article discusses neuropedagogy and speech in children the formation of competence, the importance of increasing children's speech abilities, and the main elements that make up speech competence are discussed. A number of methods are used to from the speech process in a child. The child's education should be flexible, relying on the age standarts of the child's brain development and knowledge about mental neoplasms.

Keywords: speech deficiency, competence, speech competence, elements, adjustment, psychomotor development, thinking, memory and attention, social and emotional sphere ,polymodal sphere .

НЕЙРОПЕДАГОГИКА И ФОРМИРОВАНИЕ ЯЗЫКОВОЙ КОМПЕТЕНТНОСТИ РЕБЕНКА

Рустамовой Лейлы Фуркатовна, Студентка группы БухДПИ 1МТПП23
farmonovfurqat167@gmail.com

Аннотация: В данной статье рассматриваются нейропедагогика и речи у детей. Обсуждаются формирование компетентности, значение повышения речевых способностей детей, а также основных элементы, составляющие речевую компетентность. Для формирования речевого процесса у ребенка используется ряд методов. Обучение ребенка должно быть гибким, опирающимся на возрастные нормы развития мозга и знаний о психических новообразованиях ребенка.

Ключевые слова: Речевой дефицит, компетентность, речевая компетентность, элементы, адаптация, говорени, речь психомоторное развитие, мышление, память и внимание ,социально-эмоциональная сфера, полимодальная сфера.

Mamlakatimizda maktabgacha ta'lim sohasida qabul qilingan me'yoriy-huquqiy hujjatlar bolaning rivojlanish sohalari kompetensiyalari mavzusini o'rganishda metodologik asos hisoblanadi. Bularga asosan 2019 yil 16 dekabrda qabul qilingan „O'zbekiston Respublikasi “Maktabgacha ta'lim va tarbiya to'g'risida ”gi O'RQ-595-sonli qonuni[1], O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 8 maydagi „Maktabgacha ta'lim tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida”gi PQ-4312-sonli qarori[2], Vazirlar Mahkamasining 2020 yil 22 dekabrda

“Maktabgacha ta’lim tarbiyanining davlat standartini tasdiqlash to‘g‘risida”gi VMQ-802-sonli qarori[3] kiradi.

Xususan, boshlang‘ich ta’lim tizimini takomillashtirish, o‘quvchilarni mustaqil fikrlovchi shaxs sifatida hayotiy jarayonlarga tayyorlab boorish masalasi o‘z kelajagi hamda jamiyat taraqqiyoti uchun mas’uliyatni his eta oladigan barkamol avlodni voyaga yetkazish maqsadini o‘zida ifoda etadi. Shu nuqtai nazardan, bugungi kunda ta’lim mazmunida ahamiyati tobora ortib borayotgan ”kompetensiya” tushunchasi xususida to‘xtalish joiz. Zero keying yillarda til ta’limiga kommunikativ yondashuv, integrar yondashuv , kompetensiyaviy yondashuv kabi yangicha yondashuvlar tadbiriq etilmoqda[4].

Kompetensiya- ma’lum bir sohada samarali faoliyat olib boorish uchun zarur bo‘lgan mutaxassisning ta’limiy tayyorgarligiga qo‘yilgan talabdir. U davlat ixtiyorida bo‘lgan, oldindan belgilangan ijtimoiy talab bo‘lib, u o‘quvchining muayyan sohada samarali faoliyat ko‘rsatishi uchun zarur bo‘lgan ta’limiy (professional) tayyorgarligiga nisbatan qo‘yiladi.

Kompetensiyalarni shakllantirishga yo‘naltirilgan ta’lim – o‘quvchilarning egallagan bilim , ko‘nikma va malakalarini o‘z shaxsiy, kasbiy va ijtimoiy faoliyatlarida amaliy qo‘llay olish imkoniyatidir. Kompetensiyaviy yondashuvga asoslangan ta’lim o‘quvchilarda mustaqillik , mediaresurslar va axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan o‘z faoliyatida oqilona foydalana olish , ongkli ravishda kasb-hunar tanlash, sog‘lom raqobat hamda umummadaniy ko‘nikmalarini shakllantiradi.

Kompetensiya tushunchasining ta’lim mazmuniga tadbiriq etilishi zamirida o‘qitish tizimiga nisbatan yangicha yondashuvlar, ta’lim tizimini rivojlantirish masalasi yotadi, albatta. Hozirgi zamon talabiga monand tarzda endilikda o‘quvchilarga faqatgina ilmiy- nazariy bilimlar berish bilan kifoyalanib qolmasdan, balki bolalarning dunyoqarashini kengaytirish, ularni mustaqil mushohada eta oladigan, egallagan bilimlarini kundalik hayotga ham ongkli ravishda tadbiriq qila oladigan shaxs sifatida shakllantirish maqsadida ”kompetensiya”, ”kompetentlik” tushunchalarini har bir darsning asosiy maqsadi mazmuniga singdirishga urg‘u berila boshlandi.

Kompetensiya- bu kutilgan natijaga olib keluvchi faoliyat belgisidir. U bilim mahsuli bo‘lib , mutaxassis tomonidan uni amaliyotda qo‘llay olish qobiliyatidir. Kompetensiyaning bilimdan farqi shundaki, vazifani amaliy bajarmasdan turib , uni aniqlab ham, baholab ham bo‘lmaydi. Malaka kompetentlikning muhim mezonini bo‘lib, u turli holatlarda, shu qatori muammoli vaziyatlarda ham bir necha bor qo‘llash natijasida namoyon bo‘ladi[4].

Zamonaviy yondashuvlar o‘qitish jarayonida pedagogik va axborot texnologiyalarini o‘zaro integratsiyalash orqali o‘quvchilarda tayanch va fanga oid kompetensiyalar. Ayrim manbalarda esa kompetensiyalarning quyidagi 3 turi tasniflangan:

1. tayanch kompetensiyalar;
2. umumiy (predmetli) kompetensiyalar;
3. xususiy kompetensiyalar

O‘quvchi shaxsining umumiy rivojlanishiga zamin tayyorlaydigan kompetensiyalar *tayanch kompetensiya* , faqat o‘quv fani orqali shakllantiriladigan kompetensiyalar *xususiy kompetensiyalar* deyiladi[5].

Nutqiy kompetensiya til ta’limining quyidagi 4 komponentni rivojlantirishni

nazarda tutadi:

1. *Tinglab tushunish* (eshitilgan va eshittirilgan nutqni, tinglangan matndagi asosiy axborotni, dolzarb mavzulardagi radio va teledasturlarni tushunish);

2. *Gapirish* (monologik, dialogik og‘zaki nutq turlarida o‘z shaxsiy qarashlari va fikrlarini bildirish, mavzu doirasida taqdimot qila olish ko‘nikmalarini rivojlantirish);

3. *O‘qish*: mavzuga oid materiallarni, adabiy-badiiy matnlarni, ommabop materiallarni (gazeta, hikoya, shaxsiy va elektron xatlarni) o‘qish;

4. *Yozish* (diktant, bayon, insho yoza olish, ijodiy matnlar tuza olish, rasmiy ish qog‘ozlarni yuritishni bilish)[5].

Kompetensiyaga hech qachon to‘g‘ridan-to‘g‘ri tashxis qo‘yish va baholash mumkin emas, balki har doim uning samaradorligini nuqtai nazaridan bilvosita anglash mumkin. Zamonaviy ta’limdagi kompetensiyaga asoslangan yondashuv - olingan bilimlarni qo‘llash qobiliyatiga e’tiborni qaratish usulidir.

Neyropedagogik polimodal ta’lim texnologiyalari. Neyropedagogik polimodal ta’lim texnologiyalari - bu bolalarni o‘qitishning innovatsion yondashuvi bo‘lib, u bola miyasi rivojlanishining individual xususiyatlarini hisobga oladigan ta’lim texnologiyalarini, shuningdek, vizual, eshitish, taktil kabi turli xil idrok kanallarini qo‘llaydi. "Polimodal" tushunchasi "ko‘p modallik" ma’nosini anglatadi. Psixologiyada modallik - ma’lumotlarni qabul qilish va ishlashni amalga oshiruvchi ichki va tashqi reprezentatsiyalardan birining ko‘proq qo‘llanilishidir. Insonparvarlikka asoslangan shaxsga yo‘naltirilgan maktabgacha ta’lim jarayoni nafaqat bolaning tashqi holati balki uning ichki dunyosi mayllari, intilishlarini hisobga olgan holda tashkil etilishi bilan alohida ahamiyatga ega. Bu jarayonda tarbiyachilarning vazifasi tarbiyalanuvchilarning shaxsiy imkoniyatlarini ro‘yobga chiqarish, intellektual rivojlanishlarini ta’minlash vositalari, usullari, metodlari va yo‘llarini izlab topishi, bolaning muammolarini tushunishi, o‘zlari kiritgan qoidalarni bajarishga ularni majbur qilmasliklari lozim. Bolani intellektual rivojlantirish muammosi XXI asrda pedagogikaning yetakchi muammolaridan biriga aylandi. Bu esa jamiyatda insonparvarlik g‘oyalarining dolzarbligi bilan belgilanadi. Pedagoglar ta’lim oluvchilarning har bir holatini e’tibordan chetda qoldirmasliklari kerak. Ular yordamga muhtoj bolalarni izlashlari va aniqlay olishlari lozim. Pedagogik qo‘llab-quvvatlash asosida tarbiyachi tarbiyalanuvchining jismoniy, ruhiy salomatligi, intellektual rivojlanishi, bir-birlariga nisbatan o‘zaro munosabatlari, atrof-muhitni anglashdagi yutuqlari va o‘ziga xos muammolarini xal qilishga qaratilgan oddiy, samimiy, tezkor, ogohlantiruvchi yordam berib boriladi. Bugungi kunda intellektual jihatdan rivojlangan shaxsni shakllantirish dolzarb muammo hisoblanadi. Bizning nuqtai nazarimizga ko‘ra, mazkur muammoni hal etish uchun o‘quv-tarbiya jarayoni ta’lim oluvchilarning aynan o‘zlariga yo‘naltirilishi lozim.

Neyrolingvistika, fan sifatida, turli til jarayonlari kontekstida miya tuzilishi va uning neyron faolligini o‘rganishni ko‘zda tutadi. Ushbu webinarining maqsadi rus tilini chet tili sifatida o‘qitish jarayoniga ta’sir ko‘rsata oladigan neyrolingvistika sohasidagi muhim tadqiqotlarni ko‘rib chiqishdan iborat. Ayniqsa, rus tilini erta olish va bolalikda ikki tillilikning shakllanishi kontekstida.

Birinchi muhim jihati ikki tilning bir vaqtning o‘zida olinishi bilan rus tilining keyingi ustuvorligi o‘rtasidagi farqlarni tushunishdir. Parallel o‘rganishda bola tug‘ilishdan ikki tilni o‘rganganda "ona tilini ikki marta olish" atamasi ishlatiladi. Ikkinchi til ma’lum davr ichida birinchisidan tashqari joriy etilgan holatda "ikkinchi tilni erta olish" atamasi qo‘llaniladi. Bu ikkala holat ham erta bolalikda, olti-etti yoshgacha

bo'lgan ikki tillilikning shakllanishini anglatadi.

Erta til o'rganish bir nechta foyda keltiradi, masalan, suhbat shaklida ikkala tilda ham ravon bo'lish, shaxslararo muloqot ko'nikmalarini yaxshilash, so'zlarni va sintaktik tuzilmalarni assimilyatsiya qilishda samaradorlik. Ikki tillilik miya plastikasining rivojlanishiga va kognitiv ko'nikmalarining shakllanishiga ham hissa qo'shadi. Tadqiqotlar shuni tasdiqlaydiki, erta til olish kalitdir, chunki erta yoshda o'rganilgan so'zlar va tuzilmalar nutqda tez-tez va samaraliroq bo'ladi. Bu natijalar Vygotskiyning ikkinchi tilni egallashi ona tilida malaka darajasini oshirishi mumkin degan tushunchasini qo'llab-quvvatlaydi, bu esa til tizimini kengroq tushunishga hissa qo'shadi.

XULOSA

Xulosa qilib aytganda, bolalarning neyropedagogik xususiyatlari asosida intellektual rivojlantirish tizimining afzalligi ularni har tomonlama taraqqiy ettirishga yo'naltirilgan bo'lib, uning asosiy mazmuni ta'lim oluvchilarning intellektual faoliyatlarini rivojlantirish, dastlabki tushuncha, ko'nikma, va tasavvurlarini tarkib toptirishning ishonchli asosi sifatida iroda va xissiyotlarini boyitishdan iborat. . Shunday qilib, zamonaviy ta'limning asosiy vazifalaridan biri bolaning kognitiv fazilatlari va shaxsiy fazilatlarni shakllantirish bo'lib, u tanqidiy fikrlash, tahliliy ko'nikmalar va ijtimoiy kompetensiyalar uchun asos bo'ladi. Bu vazifani bolaning individual kognitiv strategiyalari bilan bog'liq neyropsixologik bilimlarni qo'llash bilan muvaffaqiyatli hal qilish mumkin, unda maktab qiyinchiliklarining paydo bo'lish mexanizmlari haqida tushuncha beradi, uning yanada rivojlanishi uchun imkoniyatlarni belgilaydi. Yurt taraqqiyoti yoshlarning kelgusida qanday shaxs bo'lin kamol topishiga uzviy bog'liqdir. Farzandlarimizning kelajagi poydevori bo'lmish boshlang'ich ta'lim tizimini yanada isloh qilish esa bu boradagi ustuvor vazifalardan biri hisoblanadi. Ma'lumki, umumiy o'rta ta'lim maktablari zimmasiga ta'lim – tarbiya jarayoni orqali o'quvchilarda tayanch konsepsiyalar, jumladan, kommunikativ, axborot bilan ishlay olish, shaxs sifatida o'z-o'zini rivojlantirish, ijtimoiy faol fuqarolik, umummadaniy, matematik savodxonlik, fan va texnika yangiliklaridan xabardor bo'lish hamda foydalanish kompetensiyalarini shakllantirish vazifasini yuklatilgan[5].

Bu jarayonni amalga oshirishda esa, avvalo, o'qituvchi o'zining egallab turganlavozi darajasida kasbiy kompetentlikka ega bo'lmog'i lozim. Zotan uni kasbiy bilimdonlik, halollik, rostgo'ylik, izlanuvchanlik, tinimsiz sermahsul mehnat, ijodkorlik va yaratuvchanlik kabi fazilatlar yuksaltiradi. Bu kabi fazilatlari orqali pedagog yuksak ma'naviyatli, teran fikrga ega yetuk shaxslarni kamol toptirishi shubhasizdir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. O'zbekiston Respublikasi "Maktabgacha ta'lim va tarbiya to'g'risida"gi qonuni, 2019 yil 16 dekabr <https://lex.uz>.

2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 8 maydagi "Maktabgacha ta'lim tizimi konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi PQ-4312-sonli qarori, <https://lex.uz>.

3. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining "Maktab ta'limi va tarbiyasining davlat standartini tasdiqlash to'g'risida"gi VMQ 802-sonli qarori. 2020 yil 22 dekabr. <https://lex.uz>.

4. "Nutqiy kompetensiya tushunchasining mazmun mohiyati hamda uning

elementlari tasnifi” Nizomiy nomidagi TDPU N.O‘. Sattorova.(696:697-betlar).
5.Qorayev S.B.Tirkashev N.I.Kompetensiyaviy yondashuvga asoslangan ta’limning asosiy jihatlari. ”Academic Research in Educational Sciences”, Volume 3/ISSUE 1/2022.

6.G‘ulomov J Bilish jarayoni faolligi va neyropedagogik tadqiqotlar talqini ”Pedagogika” 2015 B 29-35

7.O‘zbekiston Respublikasi ”Maktabgacha ta’lim va tarbiya to‘g‘risida”gi qonuni 2019 yil 16 dekabr , <https://lex.uz>.

8.L.R.Mirjalolova va boshqalar Maktabgacha ta’limda zamonaviy yondashuvlar moduli bo‘yicha O‘quv-uslubiy majmua. T.:2018[1/6] 147 bet.

ВЛИЯНИЕ КНИГИ НА ОБУЧЕНИЕ И ВОСПИТАНИЕ МЛАДШИХ ШКОЛЬНИКОВ

Ниязова Хилола Хаят кизи, Кафедра русского языка и литературы, Бухарский государственный педагогический институт, Бухара, Узбекистан;
niyazovaxilola@buxdpi.uz

Аннотация: Статья рассматривает значение книги в обучении и воспитании младших школьников, акцентируя внимание на формировании их читательской самостоятельности и любви к чтению. Анализируются возрастные особенности детей, их круг чтения, влияние художественных и познавательных текстов на интеллектуальное и нравственное развитие. Особое внимание уделяется методам работы с книгой, выбору литературы в зависимости от возраста и уровня подготовки учащихся, а также роли учителя в развитии техники чтения. Представлены рекомендации по организации внеклассного чтения как важного компонента образовательного процесса.

Ключевые слова: круг чтения, возрастные особенности детей, образцовые книги, техника чтения, внеклассное чтение, художественная литература, познавательные тексты, читательская самостоятельность, развитие речи, методика обучения чтению.

KITOBNING BOSHLANG'ICH SINFLARDA TA'LIM VA TARBIYAGA TA'SIRI

Niyazova Xilola Xayat qizi, Rus tili va adabiyoti kafedrası, Buxoro davlat pedagogika instituti, Buxoro, O'zbekiston
niyazovaxilola@buxdpi.uz

Annotatsiya: Maqolada kitobning boshlang'ich sinf o'quvchilarining ta'limi va tarbiyasidagi ahamiyati ko'rib chiqilib, ularning mustaqil kitob o'qish ko'nikmalarini shakllantirish va kitobga muhabbat uyg'otish masalalariga e'tibor qaratiladi. Bolalarning yosh xususiyatlari, ularning o'qish doirasi hamda badiiy va ilmiy-ommabop matnlarning intellektual va axloqiy rivojlanishga ta'siri tahlil qilinadi. Kitob bilan ishlash usullari, o'quvchilarning yoshiga va tayyorgarlik darajasiga mos adabiyot tanlash hamda o'qish texnikasini rivojlantirishda o'qituvchining o'rni muhokama etiladi. Darsdan tashqari o'qishning ta'lim jarayonidagi muhim tarkibiy qismi sifatida tashkil etish bo'yicha tavsiyalar beriladi.

Kalit so'zlar: o'qish doirasi, bolalarning yosh xususiyatlari, namunali kitoblar, o'qish texnikasi, darsdan tashqari o'qish, badiiy adabiyot, ilmiy-ommabop matnlar, mustaqil o'qish, nutq rivoji, o'qishga o'rgatish metodikasi.

THE IMPACT OF BOOKS ON THE EDUCATION AND UPBRINGING OF YOUNG SCHOOLCHILDREN

Niyazova Khilola Khayat qizi, Department of Russian Language and Literature, Bukhara State Pedagogical Institute, Bukhara, Uzbekistan
niyazovaxilola@buxdpi.uz

Abstract: The article examines the importance of books in the education and upbringing of young schoolchildren, emphasizing the development of their independent reading skills and love for literature. It analyzes children's age characteristics, their reading preferences, and the impact of artistic and informative texts on their intellectual and moral development. Special attention is given to methods of working with books, selecting literature according to age and level of preparation, and the teacher's role in improving reading techniques. Recommendations are provided for organizing extracurricular reading as an essential component of the educational process.

Keywords: *reading preferences, children's age characteristics, exemplary books, reading techniques, extracurricular reading, fiction, informative texts, independent reading, speech development, methodology of teaching reading.*

Введение

Ведущие отечественные лингвисты и методисты, начиная с Ф. И. Буслаева, придавали большое значение использованию художественных текстов для интеллектуального и художественного развития учащихся. Для того чтобы книга оставляла неизгладимое впечатление в душе ребенка, он пропагандировал обучение языку на художественном материале [1].

Особое внимание в процессе обучения уделяется развитию мотивации к чтению. Важно не просто научить ребенка механически складывать буквы в слова, но и привить ему любовь к книге, желание читать осознанно, вдумчиво и с интересом. На это влияет широкий спектр факторов, начиная от организации уроков чтения в школе и заканчивая семейным окружением и доступностью качественной детской литературы.

Методика работы с книгами на разных этапах начального обучения имеет свои особенности. В первом классе закладываются основы грамотности, дети привыкают к книгам и приобретают базовые навыки чтения. Во втором классе начинается систематическая работа с текстами: ученики учатся анализировать содержание, выражать собственное мнение, обсуждать произведения. К третьему и четвертому классам самостоятельное чтение становится важной частью образовательного процесса, а внеклассная литература играет значительную роль в расширении кругозора школьников.

В данной статье рассматриваются методические аспекты развития читательской самостоятельности младших школьников, а также влияние различных форм детской литературы – художественных произведений, иллюстрированных книг, книжек - игрушек, раскрасок – на становление устойчивого интереса к чтению. Особое внимание уделяется проблеме индивидуального подхода к выбору литературы, организации внеклассного чтения и формированию у детей навыков работы с книгой.

Набор книг, включая игрушки, раскраски и книжки-раскладушки, необходимы для организации образовательной деятельности и воспитания у детей интереса и желания обращаться к книгам в свободное время. Эти книги будут способствовать развитию самостоятельности в чтении, а также приобретению навыков чтения.

Чтобы получить максимальную пользу от художественного текста, ученики должны уметь читать самостоятельно. Развитие самостоятельности чтения у младших школьников происходит поэтапно.

Первый класс (системы 1-4) проходит на подготовительном этапе. Он протекает параллельно периоду обучения грамоте в 1-м классе и равен ему. Хотя учитель читает первоклассникам легкодоступные книги и готовит их к самостоятельному чтению, в первом классе нет специальных занятий, посвященных внеклассному чтению. Ученики учатся оценивать прочитанное и начинают слушать рассказы и сказки. Они знакомятся с основами обращения с книгой и гигиеной чтения, узнают название книги и составляют словесные картинки к прочитанному.

Начальная школа, или второй класс (система 1-4), - это второй этап. Раз в неделю здесь проводятся занятия по внеклассному чтению. Учащиеся ищут фамилию автора, название книги, рассматривают иллюстрации, оценивают содержание книги до ее

прочтения, учатся обсуждать прочитанное и кратко высказывать свое отношение к нему. Во втором классе скорость чтения детей сильно различается: одни читают по словам, другие - по слогам, и они все еще учатся читать книги, которые их интересуют. Потребности учеников не удовлетворяются чтением, лишенным выразительности. Поэтому на этом этапе учитель должен быть чутким и использовать осторожный подход «один на один». Общие романы читаются в классе, а задания на домашнее чтение строго индивидуализированы; слишком рано предписывать книгу, которую нужно прочитать к определенному сроку. Прося более способных учеников помогать менее способным в чтении, преподаватель способствует взаимной помощи. Менее подготовленные ученики читают краткие отрывки из текста, не содержащие сложной лексики и замысловатых структур. К концу первого класса читательские способности и опыт учебной работы учащихся улучшаются, а индивидуальные различия несколько выравниваются. Создаются условия для перехода к следующему основному этапу развития читательской самостоятельности.

Внутри основного этапа существует несколько стадий: 3 класс (система 1-4) - собственно основной этап; 4 класс (система 1-4) - последний уровень. К моменту завершения основного этапа читательские способности и общий рост учащихся возрастают, а внеклассное чтение занимает достойное место в качестве внеклассного занятия. Кроме того, уроки внеклассного чтения служат средством направления самостоятельного чтения учащихся. Внеклассное чтение оценивается на основном этапе (отрицательные оценки не рекомендуются). При выставлении оценок учитываются следующие факторы: во-первых, способность ученика выполнить требования программы внеклассного чтения; во-вторых, его участие в общей классной работе по внеклассному чтению; в-третьих, объем и качество самостоятельного чтения, понимание прочитанного, кругозор, оценка прочитанного и т.д. Дети должны знать, что овладение техникой чтения не оценивается в программах внеклассного чтения.

На третьем этапе школьники должны получить навыки, необходимые для активного чтения: технику чтения, ориентацию и гигиенические навыки. Самое главное - они должны ценить книгу и научиться читать её самостоятельно. Цели различных этапов обучения чтению различны, как и требования к учебным материалам (детским книгам), используемым методам и организации учебной деятельности учащихся, видам библиотечно-библиографической поддержки, планам занятий. Периодизация материала, все представления, понятия, типы упражнений и виды деятельности, предусмотренные программой, должны быть включены в учебные материалы, включающие факты, объекты и явления, чтобы способствовать развитию интереса учащихся. Учебника по внеклассному чтению нет, и детские книги из круга доступного чтения - единственный образовательный ресурс, который может помочь школьникам развить любовь к чтению и самостоятельность в выборе и чтении книг. Кроме того, в учебной программе по русскому языку нет списка обязательной литературы для внеклассного чтения. При выборе книг, предлагаемых учащимся, мы руководствуемся следующими рекомендациями: - выбор книг должен быть обусловлен целями образования. В круг детского чтения должны быть включены самые разные жанры и темы, например, книги о дружбе народов, защите Родины, нравственных качествах человека, дружеских отношениях, любви к природе. Это проза и поэзия, художественная и научно-популярная литература, книги о прошлом и настоящем, произведения классиков и современных авторов, фольклор, в том числе

сказки, загадки, книги и журналы, газеты, произведения российских авторов и переводы. Кроме того, принцип доступности должен учитываться при определении возрастного распределения детей. В результате первоклассникам предлагаются рассказы, сказки и стихи на темы «Родина», «Жизнь детей», «Растения и животные», «Сказки».

Первоклассники читают произведения А.С. Пушкина, Л.Н. Толстого, В.А. Осеева, Г. Скребицкого, С.Я. Маршака, К.И. Чуковского.

Задания для чтения во втором классе охватывают широкий круг тем, включая научно-популярные книги и произведения таких авторов, как В.В.Маяковский, Д.Родари, Ш.В.Маяковский, Д.Родари, Ш.Перро, Г.Х.Андерсен, В.Бианки, Е.Чарушин, Н.Носов, А.Кононов, С.Алексеев, Ю.Яковлев, Д.Н.Мамин-Сибиряк, А.М.Горький, И.А.Крылов.

Помимо перечисленного, учащиеся 3-4 классов читают научно-популярные, документальные и информационные книги, такие как энциклопедия «Что такое? «Кто такой?»; «О себе» А. Дорохова; «Партизанская тропа» А. Гайдара; историческую литературу, например, «Наша древняя столица» Н. Кончаловской; научную фантастику, например, «Дорога в космос» Ю. А. Гагарина; приключения, например, «Остров сокровищ» Л. Стивенсона. Третьеклассники читали М.Ю. Лермонтова, Н.А. Некрасова, А.П. Чехова, А.И. Куприна, М. Твена, Д. Дефо, К. Паустовского, Б. Полевого. Библиотекарь и учитель выбирают литературу. При выборе литературы важно учитывать концепцию индивидуального интереса и самостоятельности учащихся. Детям следует рекомендовать только те книги, которые являются по-настоящему художественными, выдающимися и обладают большой художественной ценностью. Выдающиеся авторы используют в своих художественных произведениях прекрасный литературный язык. Они используют энергичные, целенаправленные и мотивированные стилистические средства. Учитывая эстетический настрой читателя, который формируется в процессе обучения чтению, можно считать, что художественный дискурс дает достаточную информацию об эстетическом потенциале произведения.

В рамках внеклассного чтения учащимся предлагается самостоятельно знакомиться с книгами из доступного фонда. Классное и внеклассное чтение тесно связаны между собой. Дети лучше понимают прочитанный материал и приобретают навыки чтения, необходимые для внеклассного чтения. Оно расширяет словарный запас учащихся и прививает страсть к книгам и чтению. Внеклассное чтение, как более увлекательное и захватывающее занятие, расширяет кругозор детей, способствует установлению связи между уроками и внеклассным чтением, повышает интерес к чтению в целом и к курсам чтения в классе. Если внеклассное чтение - это сама жизнь, то чтение на уроках - это способ подготовки к жизни. Такой взгляд на внеклассное чтение помогает воспринимать его не как нечто случайное, а как значимую образовательную деятельность, перспективную и необходимую. Читая сказки, рассказы, стихи, загадки, песни, пьесы, повести, школьники получают знания о Родине, ее героях, доблестных поступках, других детях, природе (растениях и животных), путешествиях, переживаниях. Сегодня дети в начальной школе читают книги, которые учат их контролировать свои эмоции, расти как люди, реализовывать свой потенциал и постигать разнообразные жизненные уроки и опыт. Детские книги бывают разных форматов: большие, средние, маленькие, или «детские», фигурные и нестандартные. Это важно для преподавателя. Например, учитель может использовать

широкоформатную копию стихотворения С. Маршака «Усатый-полосатый» для чтения вслух в классе. Для индивидуального чтения желательно иметь книги среднего формата. Это особенно важно в первые годы обучения, когда дети начинают читать книги самостоятельно под присмотром учителя. Детям понравится книга небольшого формата, часто называемая «детской», потому что они не боятся ее, потому что она «ему по размеру», и они добровольно берут ее в руки и пытаются читать. По мере того как малыш переходит от подготовительного этапа к основному, книги такого формата должны помочь ему преодолеть трудности, связанные с навыками чтения. Возьмем для примера «Слоненок» Л. Н. Толстого (из серии «Для самых маленьких»). Книга хорошо написана. Иллюстрации Г. Никольского яркие и выразительные, а текст четкий и такого размера, что выделяется на белой бумаге. Графика Никольского яркая и эмоциональная. Вместе с изобразительными материалами краткий текст книги занимает четыре страницы, и дети могут читать его от трех до шести минут. В процессе обучения внеклассному чтению детей привлекают к усвоению материала фигурные книги. Это книжки-игрушки, которые можно показывать детям вместо соответствующей игрушки во время внеклассных занятий по чтению. Например, книга «Усатый-полосатый» С. Маршака может быть использована вместо игрушки во время вводной части урока. Тонкие и толстые книги необходимо различать, чтобы определить их полезность в качестве учебных пособий для младших школьников. Тонкие тома или буклеты (обычно от 8 до 30 страниц, но редко 60), несмотря на наличие обложки, иногда не имеют титульного листа и, к сожалению, оглавления. Они незаменимы для первоклассников и второклассников. При выборе учебных материалов для уроков внеклассного чтения учитель рассматривает три категории книг: книги с одним автором, книги с несколькими произведениями одного автора и книги с произведениями других писателей. Ребенок-читатель не способен распознать эти особенности в книгах без дополнительного обучения под руководством учителя. Для него все они одинаковы. После того как учитель прочитает книгу с точки зрения читателя, очень важно выслушать мнения и суждения каждого ребенка о прочитанном, прежде чем анализировать произведение с точки зрения автора и героев [2]. Чтобы побудить ребенка обратиться к книге в свободное время, организовать его учебную деятельность и развить интерес к чтению, следует использовать различные виды книг, включая игрушки, раскраски, книжки-раскладушки, книжки с картинками и многое другое. Развитие самостоятельности в чтении и освоение стратегий чтения - две области, в которых эти книги будут чрезвычайно полезны как для учителя, так и для учеников. Они сделаны так, чтобы побуждать ребенка читать и, например, смотреть на них. Крупноформатные, ярко иллюстрированные книги (например, «Птицы» Н. Чарушина), книжки-картинки, книжки-раскладушки (например, «Добрая хозяйка» В. Осеевой) требуют от ребенка упорного труда, чтобы научиться читать и приобрести способность вспоминать и пересказывать сюжет. Кроме того, учеников четвертого класса необходимо научить пользоваться справочной литературой и детскими изданиями, такими как журналы и газеты. В этом случае преподаватель убеждается, что книга действительно повлияла на жизнь каждого ребенка и послужила инструментом для личностного роста и воспитания личности. Произведения дагестанских авторов также должны быть включены в список литературы для внеклассного чтения. «Только когда иностранные студенты поймут смысл всех языковых средств, входящих в состав текста, они смогут активно воспринимать произведения, ориентированные на чужую (русскую) культуру» [3]. Детские книги

таких авторов, как Г. Цадаса, Р. Гамзатов, Н. Юсупов, Р. Рашидов, Н. Алиев, рассказывающие о природе родного края, Дагестана, его быте и народных обычаях, - лучший способ привить учащимся интерес к чтению. В организации внеклассного чтения большую помощь могут оказать специальные сборники стихов и рассказов (Стихи и рассказы писателей Дагестана. Москва: Детская литература, 1981), песен и загадок (Детские песни и загадки народов Дагестана. Махачкала: Дагучпедгиз, 1986).

Развитие самостоятельной читательской деятельности младших школьников играет ключевую роль в их когнитивном, эмоциональном и нравственном становлении. Современные исследования показывают, что дети, активно вовлеченные в процесс чтения, обладают более развитым воображением, критическим мышлением и высоким уровнем эмпатии [4]. Однако формирование устойчивого интереса к чтению требует целенаправленной работы со стороны учителей и родителей.

Учитель выступает не только проводником в мир литературы, но и наставником, способным помочь ребёнку сделать правильный выбор книги. Важно учитывать индивидуальные предпочтения учащихся, их уровень читательской подготовки, а также предлагать произведения, соответствующие возрастным особенностям. Кроме того, большое значение имеет взаимодействие с родителями: семейное чтение, обсуждение прочитанных книг, организация совместных литературных мероприятий способствуют развитию интереса к чтению у детей [5]. В рамках школьной среды эффективным инструментом является создание книжных уголков в классах, активное использование возможностей школьных библиотек, проведение тематических литературных встреч и конкурсов.

Современные подходы к развитию читательской самостоятельности предполагают использование игровых технологий, которые делают процесс чтения увлекательным и интерактивным. Литературные квесты, викторины, инсценировки по мотивам произведений не только вовлекают детей в процесс осмысления текста, но и способствуют закреплению полученных знаний. Важную роль играют цифровые технологии: электронные книги, аудиокниги, интерактивные приложения расширяют возможности детей и позволяют выбирать удобный формат восприятия информации. Однако необходимо учитывать баланс между традиционным и цифровым чтением, поскольку исследования показывают, что именно бумажные книги формируют более глубокие когнитивные навыки [6].

Эмоционально-нравственное развитие младших школьников во многом зависит от качества прочитанных ими книг. Художественная литература помогает формировать у детей представления о добре и зле, развивает эмпатию и способность анализировать поступки героев. В этом контексте важно предлагать детям произведения, способствующие формированию моральных ориентиров. Например, рассказы Л. Н. Толстого, произведения В. Осеевой, А. Линдгрен, К. Паустовского содержат глубокие нравственные уроки, которые помогают детям лучше понять окружающий мир. Учитель может использовать метод дискуссий, инсценировок и проектной деятельности для более глубокого осмысления прочитанного.

3. Ежкова Н. Эмоциональный компонент образования: проектирование содержания // Дошкольное воспитание. – 2005. – № 11.
4. Гоулман, Д. Эмоциональный интеллект. Почему он может значить больше, чем IQ. – М., 2013.

5. Mayer J.D., Salovey P., Caruso D.R. Models of emotional intelligence // Handbook of Human Intelligence (2nd ed.) / Ed by R.J. Sternberg. New York: Cambridge, 2000. P. 396–420
6. López-González L. and Oriol X. The relationship between emotional competence, classroom climate and school achievement in high school students. Cult. Educ. 28, 130–156. doi: 10.1080/11356405.2015.1120448
7. Канкараш М. Исследование социально-эмоциональных навыков // Материалы V Международной конференции «Школьное образование 21 века: формирование и оценка гибких компетенций». URL: http://obrnadzor.gov.ru/ru/press_center/news/index.php?id_4=7161 (дата обращения: 16.02.2020).
8. Schoeps K., Villanueva L., Prado-Gascó V.J. and Montoya-Castilla I. Development of Emotional Skills in Adolescents to Prevent Cyberbullying and Improve Subjective Well-Being. 2018. Front. Psychol. 9:2050. doi: 10.3389/fpsyg.2018.02050

AKADEMIK LITSEYLARDA ONA TILI FANINI O'QITISHNING SAMARADORLIGINI OSHIRISHDAGI ZAMONAVIY YONDASHUVLAR

*Jo'rayeva Mohigul Baxtiyor qizi, Buxoro davlat pedagogika instituti tayanch doktoranti, Buxoro viloyati,
O'zbekiston Respublikasi*
mohiguljurayeva95@gmail.com

Annotatsiya. Ushbu maqolada zamonaviy ta'lim tizimining talablaridan bo'lgan interfaol usulda dars jarayonlarini tashkil etish hamda ta'lim mazmunini anglagan holda o'quvchilarga bilimni to'liq yetkazish maqsad qilingan. Ta'limning o'rta bo'g'ini bo'lgan akademik litseylarda ona tili fanini o'qitishda foydalanish mumkin bo'lgan qator metodlar haqida ma'lumot berilgan. Bugungi kunda ta'limning asosiy maqsadi o'quvchilarga qisqa vaqt orasida muayyan nazariy bilimlarni yetkazib berish, ularda ma'lum faoliyat yuzasidan ko'nikma va malakalarni hosil qilish, shuningdek, o'quvchilar faoliyatini nazorat qilish, ular tomonidan egallangan bilim, ko'nikma hamda malakalar darajasini baholash, yuksak pedagogik mahorat hamda ta'lim jarayoniga nisbatan yangicha yondashuvlarni ta'lim tizimiga tatbiq etish orqali samarali natijalarga erishishdan iborat.

Kalit so'zlar. Zamonaviy ta'lim, ta'lim mazmuni, samaradorlik, pedagogik texnologiya, interfaol metodlar, o'qituvchi, o'quvchi, akademik litsey, ona tili, so'z turkumlari.

СОВРЕМЕННЫЕ ПОДХОДЫ К ПОВЫШЕНИЮ ЭФФЕКТИВНОСТИ ПРЕПОДАВАНИЯ РОДНОГО ЯЗЫКА В АКАДЕМИЧЕСКИХ ЛИЦЕЯХ

*Джураева Мохигуль Бахтиёр кизи, Докторант Бухарского государственного педагогического
института, Бухарская область, Республика Узбекистан*
mohiguljurayeva95@gmail.com

Аннотация. Данная статья направлена на организацию процессов урока интерактивным способом, исходя из требований современной системы образования, а также на создание пособия для полноценной передачи знаний учащемуся с пониманием содержания обучения. Академические средние школы со средним звеном образования предоставляют информацию о нескольких методах, которые можно использовать для преподавания родного языка. Сегодня основной целью образования является доведение до учащихся определенных теоретических знаний за короткий промежуток времени, формирование у них навыков и умений по конкретной деятельности, а также контроль за деятельностью учащихся, оценка уровня полученных ими знаний, умений и навыков, повышение уровня педагогического мастерства и новаторства в отношении образовательного процесса он направлен на достижение еще большего результата путем внедрения подходов в систему образования.

Ключевые слова. Современное образование, содержание обучения, эффективные, педагогические технологии, интерактивные методы, учитель, ученик, Академический лицей, родной язык, категории слов.

MODERN APPROACHES TO IMPROVING THE EFFECTIVENESS OF TEACHING THE NATIVE LANGUAGE IN ACADEMIC LYCEUMS

*Juraeva Mohigul Baxtiyor qizi, Doctoral Researcher at Bukhara State Pedagogical Institute,
Bukhara Region, Republic of Uzbekistan*
mohiguljurayeva95@gmail.com

Annotation. This article aims to organize lesson processes in an interactive way that is one of the requirements of the modern educational system, as well as to create a guide to fully convey knowledge to the student with an understanding of the content of Education. Academic lyceums, which are the middle link of their education, provide information about several techniques that can be used to teach their native language. Today, the main goal of education is to provide the student with certain theoretical knowledge for a short period of time, to develop skills and competencies in them in relation to certain activities, as well as to control the activities of students, to assess the level of related knowledge, skills and qualifications, high pedagogical skills and in relation to the educational process it aims to achieve

greater results in the bundan by introducing approaches to the educational system.

Keywords. *Modern education, educational content, effective, pedagogical technology, interactive methods, teacher, student, academic Lyceum, native language, word categories.*

Bugungi kunda mamlakatimiz dunyo ta'lim bozorida yuqori natijalarga erishib kelmoqda. Bu natijalarning bardavomligini saqlash maqsadida ta'limda zamonaviy o'qitish usullaridan foydalanish muhim ahamiyat kasb etadi. Darhaqiqat, o'qituvchi muayyan mavzuni o'qitishda uning oson, to'liq o'zlashtirilishiga imkon beruvchi didaktik vositalar, texnologiyalar va metodlardan samarali foydalangan taqdirdagina dars samaradorligiga erishadi. Shuningdek, o'quv materiallari, mavzulari o'zi aloqador bo'lgan fanning eng so'nggi yutuqlarini o'zida mujassam qilishi nihoyatda zarur. Buning uchun o'qituvchidan ta'limga yangicha yondashish, rejalashtirish ishlarini olib borish, innovatsiyalarni tatbiq etish talab qilinadi.

Akademik litseylarda ona tili fanini o'qitishning ta'lim samaradorligini oshirishda zamonaviy yondashuvlar haqida gapirganda, o'qitish metodlarining yangilanishi, texnologiyalarning joriy etilishi, va individual yondashuvlarning ahamiyati katta. Bu jarayonlar o'quvchilarning ona tili faniga bo'lgan qiziqishini oshiradi va ularni samarali ta'lim olishga yo'naltiradi.

Quyidagi zamonaviy yondashuvlar ta'lim samaradorligini oshirishda muhim rol o'ynaydi:

1. Interaktiv o'qitish metodlari:

Kichik guruhlardagi ishlar: o'quvchilarni kichik guruhlariga bo'lib, bir-biriga savollar berish, fikr almashish va muammolarni hal qilishga yo'naltirish. Bu, o'z navbatida, muloqot ko'nikmalarini rivojlantirishga yordam beradi.

Darslik va multimediya vositalari: Zamonaviy darsliklar, video materiallar, interaktiv platformalar orqali o'qitish samarali bo'ladi. Shu bilan birga, ona tili fanini o'rgatishda zamonaviy texnologiyalarni (smart taxtalar, kompyuterlar) ishlatish o'quvchilarning e'tiborini jalb qilishda muhim.

2. Personalizatsiya va individual yondashuv:

Har bir o'quvchining o'rganish tezligi va uslubi turlicha bo'lishi mumkin. Individual yondashuv orqali har bir o'quvchining ehtiyojiga mos ravishda darsni olib borish, ularning iqtidorini ochib berish va zaif tomonlarini mustahkamlash imkonini beradi.

Differensial o'qitish: O'quvchilarni bilim darajasiga qarab guruhlariga ajratib, ularni turli darajadagi topshiriqlar bilan shug'ullantirish.

3. Ta'limni raqamlashtirish:

Onlayn platformalar va ilovalar yordamida o'qitish jarayonini samarali tashkil etish. Darslarni interaktiv va gamifikatsiya qilish orqali o'quvchilarga yanada qiziqarli va samarali o'rganish imkoniyatlarini yaratish.

Videodarslar va o'quv resurslari: Internet orqali masofaviy o'qitish va videodarslar orqali o'quvchilarga kerakli bilimlarni taqdim etish.

4. Kritik va ijodiy fikrlashni rivojlantirish:

O'quvchilarga o'rganilayotgan materialni tahlil qilish, baholash va o'z fikrlarini aniq ifodalashga yordam berish. Bu jarayonni samarali o'tkazish uchun o'quvchilarga har xil matnlarni taqdim etib, ularni muhokama qilishga jalb etish mumkin.

5. Integratsiya va interdisiplinar yondashuv:

Ona tili fanini boshqa fanlar bilan integratsiya qilish orqali ko'proq amaliy va real hayotda foydalaniladigan bilimlarni taqdim etish. Masalan, ona tilini tarix, adabiyot yoki geografiya kabi fanlar bilan bog'lash o'quvchilarga tilni o'rganishning foydasini yanada aniqroq ko'rsatadi.

6. Pedagog kadrlarning malakasini oshirish:

Zamonaviy ta'lim uslublarini o'zlashtirgan va ilg'or texnologiyalardan foydalana olish qobiliyatiga ega pedagoglar o'quvchilarga yanada samarali ta'lim bera oladi, shu sababli o'qituvchilarning doimiy ravishda malakasini oshirish va yangi metodlarni o'zlashtirish juda muhimdir.

Bu yondashuvlar nafaqat o'quvchilarning ona tili bo'yicha bilimlarini mustahkamlashga yordam beradi, balki ularning umumiy ta'lim jarayonidagi muvaffaqiyatini ham oshiradi.

Bugungi kunda bir qator rivojlangan mamlakatlarda o'quvchilarning o'quv va ijodiy faolliklarini oshiruvchi hamda ta'lim-tarbiya jarayonining samaradorligini kafolatlovchi pedagogik texnologiyalarni qo'llash borasida katta tajriba to'plangan bo'lib, ushbu tajriba asoslarini tashkil etuvchi metodlar interfaol metodlar nomi bilan yuritilmoqda.

Interfaol metodlar shunday metodlarki, u o'quvchilarning o'zaro muloqot va o'zaro hamkorlik ta'siridagi dars jarayonini amalga oshiruvchi usuldur. "Interaktiv" so'zi ingliz tilidan olingan bo'lib, ya'ni "inter" – o'zaro, "akt" – harakat, ta'sir, faollik ma'nolarini beradi. Interfaol metodlar ortiqcha ruhiy va jismoniy kuch sarflamay, qisqa vaqt ichida yuksak natijalarga erishish maqsadini nazarda tutadi.

Aniq fanlarga qaraganda ona tili mashg'ulotlarida o'quv faoliyati o'z-o'zidan faollashmaydi, albatta. U, birinchi navbatda, o'qituvchi dars jarayonini qanday tashkil etganiga hamda tanlagan metodiga bog'liq bo'ladi. To'g'ri, tadqiqot metodi darsning to'liq o'zlashtirilishiga katta hissa qo'shadi. Zamonaviy ta'lim strukturasida akademik litseylarda ona tili fanini o'qitishda ta'lim berish mazmuni muhim omil sanaladi, chunki samaradorlik, avvalo, o'quvchilarga "Nimani o'qitish kerak?" masalasi bilan chambarchas bog'liq. Ona tili ta'limidan o'quvchilar egallashi lozim bo'lgan zaruriy bilimlar hamda shu bilimlarning qay darajada o'zlashtirilganlik malakasi va ko'zlangan maqsadi to'g'ri belgilansagina "Qanday o'qitish kerak?" degan savolga javob topish mumkin. Demak, samaradorlik, avvalo, ana shu ikki omil bilan bevosita aloqadordir. "Nimani o'qitish kerak?" va "Qanday o'qitish kerak?" so'roqlari ta'lim tizimiga ishlov berishning ikki qirrasidir. Bular shu darajada bir-biri bilan bog'langanki, birisiz boshqasi hech qanday samara ko'rsatmaydi.

Akademik litseylarda ona tili darslarining ta'lim mazmuni shu fandan

o'quvchilarga berilgan zaruriy bilim, ko'nikma va malakaga bog'liq bo'lsa, unda, ta'lim jarayoniga pedagogik texnologiyalarni joriy etish, o'quvchilarning ona tilini o'rganishga bo'lgan qiziqishini, bilish darajasini oshirishga xizmat qiladi. Bu fanni o'quvchiga to'liq yetkazib berish uchun pedagog fan mavzusiga mos hamda o'quvchi qabul qila oladigan darajadagi metodni tanlay bilishi juda muhim hisoblanadi.

Ona tili darslarida o'qituvchi ko'proq o'quvchi faoliyati bilan bog'liq metodlarga murojaat qiladi, chunki tilshunoslik bilan aloqador fanlarni o'quv materialini tushuntirib berish yoki o'quvchi bilan suhbat o'tkazish kabi sodda usulda o'rgatib bo'lmaydi. Ona tili mashg'ulotlarida o'quvchi ta'limning ishlov berish subyekti, ya'ni faol ishtirokchisiga aylanib, har bir o'quv topshirig'ini aqliy faoliyat "chig'irig'i"dan o'tkazgan taqdirdagina o'quv materiallarini o'zlashtirish jarayoni ancha yengil kechadi va dars mashg'ulotlarining foydaliligi ta'minlanadi. O'qitishda amaliy metodlarga tayangan o'qituvchi o'quv topshiriqlarida o'quvchining faolligini to'g'ri uyushtiradi va auditoriya diqqatini bir yerga jamlay oladi.

Bugungi kunda akademik litsey o'quvchilariga ona tilidan bilimlarni tayyor holda bayon qilish serunum usul sanalmaydi, chunki bu yoshdagi bolaning aqliy qobiliyati darajasi ancha yuqori, ayni damda beriladigan barcha ma'lumotni to'liq egallashga tayyor yoshda bo'lishadi.

Shuning uchun, fan ma'lumotlari tayyor holda berilar ekan, o'quvchi shu jarayonning ishtirokchisiga, tinglovchisiga va faqat andazaga qarab harakatlanuvchisiga aylanib qoladi. Pedagogikada o'quvchi bilimni qanday, qay darajada qabul qilishi foizlarda ko'rsatib berilgan. Masalan:

1. O'qiganda – 10%.
2. Eshitganda – 20%.
3. Ko'rganda – 30%.
4. Eshitib ko'rganda – 50%.
5. Muhokama, bahs-munozara jarayonida – 70%.
6. Shaxsan o'zi bajarganda – 80%.
7. Sinfdoshlari bilan bajarganda – 90%.

Shu o'rinda Xitoy xalq maqolini keltirib o'tish o'rinli: ***“Menga gapirsang esdan chiqaraman, ko'rsatsang eslab qolishim mumkin, o'zimga ishlashni ber, shunda bu batamom meniki bo'lib qoladi”.***

Interfaol metodlarni tanlashda quyidagilarga e'tibor qaratishimiz lozim:

- dars mazmuniga mos kelishi;
- o'quvchilarning imkoniyatlariga to'liq mos kelishi;
- ta'lim va tarbiyani rivojlantirishga yo'nalganligi;
- o'quv jarayonini tashkil etish shakllariga mos kelishi.

Noan'anaviy o'qitish usullaridan foydalanishdan maqsad mustaqil fikrlashni o'rgatadi, ko'p tarmoqli bo'ladi; sodda va oson, bilimni oshiradi, vaqtdan yutadi, mashg'ulot qiziqarli o'tadi, dars samaradorligini oshiradi, dunyoqarashni kengaytiradi,

tafakkurni rivojlantiradi, xotirani kuchaytiradi, izlanishga chorlaydi, har bir o'quvchi bilan individual munosabatda bo'ladi, o'quvchilar diqqatini darsga qaratadi va hokazo¹.

Interfaol metodlar o'quvchilarning ona tili o'rganish jarayonida faol ishtirok etishini ta'minlaydi, ularning fikrlarini erkin ifodalashga yordam beradi va o'rganishning samaradorligini sezilarli darajada oshiradi. Bu metodlar o'quvchilarga tilni nafaqat nazariy, balki amaliy ravishda o'rganish imkoniyatini ham yaratadi.

Bundan ko'rinadiki, **interfaol usullar o'quvchiga quyidagicha ta'sir ko'rsatadi:**

1. O'quvchilarda hamkorlikda ishlash ko'nikmasi shakllanadi.
2. O'quvchilarda ijodiy va mustaqil fikrlash malakalari tarkib topadi.
3. Umumiy yordamni topishda bir-birlariga ko'mak beradilar.
4. O'quvchilar o'z ishlari natijalariga, o'qishga, ta'lim olishga shaxsan mas'ullikni his qiladilar.

Quyida interfaol usullarning ayrimlarini sanab o'tamiz va akademik litseylarning ona tili fan dasturlari misolida yoritib beramiz:

1. Aqliy hujum.
2. Suhbat.
3. "Baliq skeleti".
4. "T" metodi.
5. Rolli o'yinlar.
6. Bahs-munozara.
7. Sinkveyn.
8. "Glossariy" metodi.
9. Idrok imkoniyatlari.
10. FSMU (Fikr, Sabab, Misol, Umumlashtirish).
11. Tanqidiy fikrlash.
12. Muzyorar
13. Hamkorlik
14. "Tushunchalar tahlili"
15. Bumerang ...

Buxoro davlat tibbiyot instituti akademik litseyi 1-kurs tabiiy va aniq fanlar yo'nalishida tahsil oluvchi o'quvchilar uchun tuzilgan ona tili fani II yarim yillik taqvimiy rejasining birinchi darsi **"Morfologiya. So'z turkumlari uslubiyati. Ot so'z turkumi"** mavzusini "Tushunchalar tahlili" hamda "Venn diagrammasi" metodi orqali yoritib bersak.

"TUSHUNCHALAR TAHLILI"

Tushunchalar	Sizningcha, bu tushuncha qanday ma'noni anglatadi?	Qo'shimcha ma'lumot
---------------------	---	----------------------------

¹ F.M.Kasimov. Dars jarayonida interfaol metodlardan foydalanish imkoniyatlari. International Conference on Developments in Education. Hosted from Sankt Petersburg, Russia: 2023. P.74-80.

Morfologiya	- – (yun. morphe – shakl, logos – fan, ta’limot degan ma’noni anglatadi) (tilshunoslikda) – 1) tilning morfologik qurilishi; 2) so‘z shakllari haqidagi ta’limot. Birinchi ma’nosida obyektni anglatga, ikkinchi ma’nosida tilshunoslikning shu obyektni o‘rganuvchi bo‘limini bildiradi. U, shuningdek, 3ta katta guruhga bo‘linadi: 1) <u>mustaqil so‘z turkumlari</u>; 2) <u>yordamchi so‘zlar</u>; 3) <u>oraliqdagi sozlar</u> (alohida olingan so‘zlar).²	
So‘z turkumlari	– <u>tildagi so‘zlarning</u> ularda umumiy kategorial ma’noning (mas., <u>otlarda</u> predmetlik, <u>fe’llarda</u> harakat-holat), <u>grammatik kategoriyalar</u> yagona tizimining, o‘ziga xos so‘z o‘zgarish, shakl va so‘z yasali sh tiplarining, sintaktik vazifalar umumiy ligining mavjudligiga qarab ajratiladigan guruhlari (Ba’zi adabiyotlarda “so‘zlarning leksik-grammatik kategoriyalari” deb ham ataladi)³.	
Mustaqil so‘z turkumlari	– So‘zlarning lug‘aviy va grammatik ma’no jihatdan o‘xshashligiga ko‘ra ayrim leksik-grammatik guruhlarga ajratilishi so‘z turkumlari deyiladi. So‘zlarni turkumlarga ajratishda ularning grammatik ma’nolari bilan bir qatorda, lug‘aviy ma’nosi ham asosiy belgilardan hisoblanadi. Ham grammatik, ham leksik ma’nolarga ega bo‘lib, gapda mustaqil sintaktik bo‘lak sifatida ishtirok etadigan so‘zlar mustaqil so‘zlar deyiladi. Mustaqil so‘zlarga: ot, sifat,	

² O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi haqida. *O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi Davlat ilmiy nashriyoti*. 1-jild. – Toshkent: 2000-yil.

³ O‘zbek tili grammatikasi. 2 jildli, 1jild. – Toshkent, 1975.


	son, olmosh, fe'l, ravish kiradi ⁴ .	
Yordamchi soʻzlar	– mustaqil gap boʻlagi vazifasida kela olmaydigan, yordamchi maʼno va funksiyada qoʻllanadigan <u>soʻzlar</u> . Bular gapda mustaqil boʻlak boʻlib keluvchi <u>soʻzlarni</u> bogʻlaydi yoki ularga grammatik (<u>sintaktik</u>) tavsif beradi (mas., <u>artikl</u>). <u>Oʻzbek tilida</u> vazifasiga koʻra, yordamchi soʻzlar 3 turga boʻlinadi: <u>koʻmakchi</u> ; <u>bogʻlovchi</u> ; <u>yukla ma</u> ⁵ .	
Oraliqdagi soʻzlar	Oraliqdagi soʻzlar (alohida olingan soʻzlar) deganda soʻz turkumlari orasida turadigan yoki muayyan bir nuqtaga toʻliq mansub boʻlmagan soʻzlar tushuniladi. Bu holat tilda turlicha talqin qilinishi mumkin, ammo oʻzbek tilida turli soʻzlar oraliq tarzda qaralishi mumkin: • Modal soʻzlar – gapga belgilangan munosabatni bildiradi, lekin mustaqil maʼnoga ega emas. Misollar: mumkin, balki, albatta, shubhasiz, darhaqiqat. • Undov soʻzlar – hissiyot, chaqiriq yoki hayratni ifodalaydi, lekin mustaqil soʻz turkumlariga kirmaydi. Misollar: oh, voy, ey, uff, hay-hay. • Taqlid soʻzlar – tovushlar, harakat yoki holatga taqlidni ifodalaydi. Misollar: gʻichir-gʻichir, shalop, gumbur, gʻuv-gʻuv.	

“VENN DIAGRAMMASI” – ikki yoki undan ortiq narsalarni, voqealarni, odamlar va tushunchalarni taqqoslash va farqlash uchun ishlatiladigan vositadir. Odatda, tilshunoslik va matematika kurslarida turli xillik va oʻxshashliklarni tashkil qilish uchun ishlatiladi. Ushbu soddalik grafik oʻquvchilarning ikkita narsaning bir vaqtning oʻzida turli xil va bir xil boʻlganligini tushunishlarini osonlashtiradi. “Venn diagrammasi” metodini barcha oʻquvchilar bir-biriga bogʻliq mavzularni tahlil qilish, solishtirish, taqqoslash va

⁴ Akmirzayeva Yulduz Xurramovna. Mustaqil soʻz turkumlarining oʻziga xos xususiyatlari. – “Zamonaviy dunyoda pedagogika va psixologiya” nomli ilmiy, masofaviy, onlayn konferensiya, 2022. 1(23). – 27-28-b.

⁵ Hozirgi oʻzbek adabiy tili, 1-qism. – Toshkent, 1980.

mustahkamlashda foydalanishlari yaxshi samara beradi.



“Tanqidiy fikrlash” metodida oʻrtaga kunning asosiy mavzusi yoki muammosi qoʻyiladi. Undan oʻquvchi oʻz fikrini aytishi, oʻzgalarning fikrlarini tanqidiy idrok etishi, oʻz nuqtayi nazarini asoslab berish imkoniyatiga ega boʻlishi uchun foydalaniladi. Masalan: Mustaqil soʻz turkumlari va yordamchi soʻz turkumlari nima sababdan aynan shunday nomlar bilan yuritiladi? Morfolgiya boʻlimi haqida munosabatingiz va hk.

Interfaol taʼlim usulining bunday shakli oʻquvchilarda tinglash va muloqot koʻnikmalarini shakllantiradi, turlicha qarashlar va tushunchalar haqida malakasini rivojlantiradi, bahsli masalalarni muhokama qilish, tahliliy mushohada yuritish koʻnikmasi shakllanadi va fikrlash doi rasi kengayib boradi. Oʻz dunyoqarashini, nuqtayi nazarini, fikrini bayon etish mahorati tobora ortib boradi.

“Tanqidiy fikrlash” metodini tashkil etish usullari:

1. Bahs-munozara xususiyatiga ega boʻlgan muammo yoki topshiriq qoʻyiladi va

savollar oʻrtaga tashlanadi:

A. Nima deb oʻylaysiz?

B. Fikringiz qanday?

S. Sizningcha qanday? va hk

2. Oʻquvchiga fikrini bir joyga toʻplash uchun imkoniyatlar va fursat beriladi.

3. Oʻquvchi oʻz fikrini asoslaydi, shu oʻrinda uning javoblariga aniqlik kiritib olishi uchun quyidagi savollarni berish mumkin:

A. Nega shunday deb oʻylaysiz?

B. Nimalarga asoslanib bunday xulosaga keldingiz?

S. Qanday manbalardan foydalanasiz?

4. Muhokama qilinayotgan masalani va vaqtni hisobga olib, boshqa oʻquvchilarga fikr bildirishlari uchun imkon beriladi. Bunda quyidagicha savollar bilan murojaat qilinadi:

A. Kimda boshqacha fikr bor?

B. Aytilganni maʼqullaysizmi? Nima uchun?

5. Oʻquvchilar bilan birgalikda barcha bildirilgan xulosalar muhokama va tahlil qilinadi, bunda baholash mazmunidagi savollar oʻrtaga tashlanadi:

A. Sinfdoshlaringiz fikrini nima uchun maʼqullaysiz?

B. Sinfdoshingiz fikriga qarshi oʻz qarashingizni tasdiqlovchi asoslar keltira olasizmi?

6. Muhokama qilingan muammo hisobga olinib, masala oʻquvchilar bildirgan fikrlarning qabul qilinishi yoki qayta baholanishi bilan yakunlanadi, bunda quyidagi savollarni berish mumkin:

A. Sizningcha, kimning fikrini maqbul deb qabul qilish mumkin?

B. Yuzaga kelgan vaziyatdan qanday xulosa bilan chiqishni maʼqulroq deb oʻylaysiz?

“Tanqidiy fikrlash” usulini qoʻllash qoidalar:

1. Muhokama vaqtida oʻquvchilar berilgan topshiriq yoki muammo boʻyicha oʻz vazifalarini ado etishlari lozim.

2. Har bir bajarilgan ish yuzasidan baho berib borilishi hamda xato va kamchiliklar yozib borilishi kerak.

Ishtirokchilar va kuzatuvchilar jarayondagi holatlarni tahlil qilib chiqish va muhokama qilish imkoniyatiga ega boʻlishlari lozim. Bunda quyidagi savollar oʻrtaga tashlanadi:

A. Muhokama jarayonida qanday natijalarga erishildi?

B. Qanday muammolar tilga olindi, u oʻz yechimini topdimi?

S. Jarayon oʻzgartirilsa, natijalar qanday boʻladi? va hk

Xulosa qilib aytganda, oʻqitish jarayonida interfaol metodlarni qoʻllash oʻquvchilar oʻquv-biluv faoliyatini faollashtirishga yordam beradi va mavzularni oʻzlashtirish darajasining oshishiga olib keladi. Oʻquvchilarni guruhlariga boʻlib oʻqitishda ham interfaol metodlardan foydalanish orqali ularning oʻquv-biluv faoliyatini yuksaltirish va mustaqil fikrlay olish qobiliyatlarini rivojlantirib borish mumkin.

Bir soʻz bilan aytganda, taʼlim samaradorligi pedagogning yangi bilimlarni puxta

egallaganligi va zamon talabiga mos bilimni o'quvchiga yetkazib berishi bilan belgilanadi. Bunda nafaqat o'quvchi, balki o'qituvchi ham tinimsiz izlanishi, rivojlangan mamlakatlarning ta'lim tizimini doimiy kuzatib, kerakli ma'lumotlarni o'zlashtirib, o'quvchiga yetkaza olishi lozim.

Zamonaviy ta'limni tashkil etishga qo'yiladigan muhim talablardan biri ortiqcha ruhiy va jismoniy kuch sarf etmay, qisqa vaqt ichida yuksak kafolatli natijalarga erishishdir. Bu talabni amalga oshirishda interfaol metodlar ishonchli vosita bo'la oladi. Bugungi kunda mamlakatimizda o'quvchilarning o'quv va ijodiy faolliklarini oshiruvchi, ta'lim-tarbiya jarayonining samaradorligini kafolatlovchi pedagogik texnologiyalarni qo'llashga doir katta tajriba to'plangan bo'lib, u tajriba asosini interfaol metodlar tashkil etmoqda.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Golish L.V., Fayzullayeva D.M. Pedagogik texnologiyalarni loyiha qilish va qayta tiklash: o'quv-uslubiy ta'minlash / Ta'limda innovatsion texnologiya seriyasi. – Toshkent, 2010. – 149 b.
2. Yo'ldoshev J., Usmonov S. Pedagogik texnologiya asoslari. – Toshkent: "O'qituvchi", 2004-yil. – 102 b.
3. Yo'ldoshev J., Usmonov S. Zamonaviy pedagogik texnologiyalarni amaliyotga joriy qilish. – Toshkent: "Fan va texnologiya", 2008. – 130 b.
4. 4. Yo'ldoshev J., Usmanov S.A. Pedagogik texnologiyalar. – Toshkent: Iqtisod-moliya, 2009. – 652 b.
5. O'zbekiston milliy ensiklopediyasi haqida". O'zbekiston milliy ensiklopediyasi Davlat ilmiy nashriyoti. 1-jild. –Toshkent, 2000-yil.
6. O'zbek tili grammatikasi [2 jildli]. 1-jild. – Toshkent, 1975.
7. Akmirzayeva Y. X. Mustaqil so'z turkumlarining o'ziga xos xususiyatlari. "Zamonaviy dunyoda pedagogika va psixologiya" nomli ilmiy, masofaviy, onlayn konferensiya, 2023-yil. – 27-28 bet.
8. Hozirgi o'zbek adabiy tili. 1qism. – Toshkent, 1980.

OLIIY TA'LIM TIZIMI TALABALARIDA TANQIDIY FIKRLASHNI RIVOJLANTIRISHNING INTERFAOL METODLARI

Nematova Nigina Nabi qizi, Buxoro Davlat Pedagogika Instituti 2-kurs magistranti

niginanabiyevna777797@gmail.com

Annotatsiya: Ushbu maqolada oliy ta'lim tizimi talabalarida tanqidiy fikrlash ko'nikmasini rivojlantirishga yordam beradigan interfaol metodlar va ulardan samarali foydalangan olimlar, ularning bu boradagi yondashuvlari haqida ma'lumotga ega bo'lasiz.

Kalit so'zlar: Tanqidiy fikrlash, eksperiment va tajriba, kooperativ ta'lim, muammoli ta'lim, keys stadi, muammo, falsafiy va etik bahs-munozara.

ИНТЕРАКТИВНЫЕ МЕТОДЫ РАЗВИТИЯ КРИТИЧЕСКОГО МЫШЛЕНИЯ У СТУДЕНТОВ СИСТЕМЫ ВЫСШЕГО ОБРАЗОВАНИЯ

Нематова Нигина Наби кизи, Магистрант 2-го курса Бухарского государственного педагогического института

niginanabiyevna777797@gmail.com

Аннотация: В этой статье вы узнаете об интерактивных методах, которые помогают студентам системы высшего образования развивать навыки критического мышления, об ученых, которые их эффективно использовали, и их подходах к этому.

Ключевые слова: критическое мышление, эксперимент и опыт, совместное обучение, проблемное обучение, тематическое исследование, проблема, философские и этические дебаты.

INTERACTIVE METHODS OF DEVELOPING CRITICAL THINKING IN STUDENTS OF THE HIGHER EDUCATION SYSTEM

Nematova Nigina Nabi qizi, 2nd-year Master's Student at Bukhara State Pedagogical Institute

niginanabiyevna777797@gmail.com

Abstract: In this article, you will learn about interactive methods that help students of the higher education system develop critical thinking skills, and scientists who have used them effectively, and their approaches to this.

Key words: Critical thinking, experiment and experience, cooperative learning, problem-based learning, case study, problem, philosophical and ethical debate.

KIRISH

Zamonaviy ta'lim tizimi o'quvchilarda faqat bilimlarni olishni emas, balki mustaqil fikrlash, tahlil qilish, baholash va muammolarni hal qilish ko'nikmalarini rivojlantirishni ham o'z ichiga oladi. Bu esa, albatta, o'qituvchilar tomonidan amalga oshiriladigan pedagogik jarayonlarning sifatiga bog'liq. Bugungi kun oliy ta'lim tizimi zamonaviy bilimlarga ega, tanqidiy fikrlay oladigan mutaxassislar tayyorlashni asosiy maqsad qilib qo'ygan. Tanqidiy fikrlash, o'quvchilarda muammolarni chuqur tahlil qilish, turli nuqtai nazarlarni hisobga olish va adolatli qarorlar qabul qilish ko'nikmalarini shakllantiradi. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yilgi "Ta'lim sifatini oshirish va yoshlarning tanqidiy fikrlash qobiliyatini rivojlantirish to'g'risida" farmonida: "Oliy ta'lim muassasalari tanqidiy fikrlashni rivojlantirishga qaratilgan yangi yondashuvlarni talab qiladi. Talabalarning mustaqil fikrlash ko'nikmalarini oshirish, ta'lim jarayonida o'z faoliyatini boshqarish imkoniyatini berish hamda ilmiy va amaliy muammolarni hal etishda tanqidiy fikrlashni rivojlantirish muhim ahamiyatga ega"- ekanligi keltirib o'tilgan.[1].

“Tanqidiy fikrlash”. Bu usul amerikalik psixolog va pedagog John Deweyning “ Insoning sharoitlar va temperamentga nisbatan tanqidiy fikrlashigina shaxs istagi va qiziqishlarini to‘g‘ri yo‘lga sola oladi “ aqidasiga rioya qilib, talim oluvchining o‘z bilimi, jismoniy, ruhiy tayyorgarlik darajasini tanqidiy o‘lchovlar, fikrlar orqali yechish, bahs-munozaraga to‘g‘ri ishtirok etish ko‘nikmasini hosil qilish maqsadida qo‘laniladi[2]. Bu usul o‘quvchi- talabalarga o‘zgalar fikrini tinglash, o‘z fikrlarini taqqoslash, muloqot olib borish, yechimlarni to‘g‘ri topishga to‘l ochib beradi va ularda analitik fikrlash, to‘g‘ri hukm chiqarish qobiliyatini rivojlantirishga yordam beradi. Bu usul yordamida talabalar o‘z fikrlarini erkin bayon etib, fikrlarni oydinlashtirish, ilmiy – amaliy asoslash, o‘zgalar fikrlarini o‘rganish, o‘z fikrining tahlili asosida to‘g‘ri xulosa chiqarish va aniq natija,qaror qabul qilishni o‘rganadilar. Jon Dyui (John Dewey) tanqidiy fikrlashni rivojlantirishda bir qator metodlarni ishlab chiqqan va ta’limda bu metodlarni keng qo‘llashni targ‘ib qilgan. Uning asosiy maqsadi – talabalarga faqatgina bilimni o‘zlashtirish emas, balki o‘ylashni, tahlil qilishni va muammolarni hal qilishni o‘rgatish edi. Deweyning tanqidiy fikrlashni rivojlantirishda qo‘llagan metodlari quyidagilardan iborat: **Eksperiment va tajriba:** Dewey "ta’limning tajribaviy falsafasi"ni ishlab chiqqan. Unga ko‘ra, o‘quvchilar yangi bilimlarni faqatgina kitoblardan emas, balki real hayot tajribalari va amaliyotlari orqali o‘rganishlari kerak. Bu metod o‘quvchilarni o‘ylashga, tahlil qilishga va yangi vaziyatlarga moslashishga undaydi.

Muammodan boshlash: Dewey tanqidiy fikrlashni rivojlantirish uchun o‘quvchilarni real hayotdagi muammolar bilan tanishtirishni ta’kidlagan. Ularning fikrlash jarayonlarini boshlash uchun masalalar yoki dilemmalarni taklif qilgan.

Bu metod talabalarga muammolarni o‘zgacha nuqtai nazardan ko‘rishga va muammoni bir nechta usullar bilan yechishga o‘rgatadi[3].

O‘zbekiston va MDH olimlarining oliy ta’lim talabalarida tanqidiy fikrlashni rivojlantirish texnologiyalariga oid izlanishlari bir-biridan farq qiladi ammo barcha qarashlar umumiy tarzda talabalar tanqidiy xulosalar qila olishlari, erkin fikrlash qobiliyatlarini rivojlantirishlarida interfaol metodlarning qanchalik muhim ahamiyat kasb etishini bayon qiladilar. Rustam Azimov pedagogika va psixologiya sohalarida tanqidiy fikrlashni rivojlantirishga katta hissa qo‘shgan olimlardan biridir. U ta’limda tanqidiy fikrlash metodlarini rivojlantirishni o‘zining asosiy ilmiy maqsadi sifatida belgilagan. Azimovning ishlari talabalarga tanqidiy tafakkurni shakllantirishda yordam beradi. U pedagogik jarayonlarda tanqidiy fikrlashni o‘rgatish va yosh avlodni mustaqil fikr yuritishga rag‘batlantirish metodlarini ishlab chiqqan[4]. Rustam Azimovning tanqidiy fikrlashni rivojlantirish oid metodlari:

1. Dialog va muhokama metodi:

Azimovning yondashuvlaridan biri — bu talabalarga darslarda tanqidiy fikrlashni rivojlantirish uchun muhokama va dialoglarni qo‘llashdir. O‘quvchilarga turli mavzularda fikr bildirish, qarama-qarshi nuqtai nazarlarga e’tibor qaratish va o‘z fikrlarini asoslash imkoniyati yaratish tanqidiy fikrni rivojlantirishda samarali vositadir. Bu metod yordamida o‘quvchilar bir-birining fikrlarini baholash, tahlil qilish va

o'zlarining pozitsiyalarini himoya qilishni o'rganadilar.

2. Projekt va muammo asosidagi o'qitish:

Azimov tanqidiy fikrlashni rivojlantirishda "muammo asosida o'qitish" (problem-based learning) metodini ham qo'llagan. Bu metodda o'quvchilarga real hayotdagi muammolar beriladi va ular bu muammolarni tanqidiy tahlil qilish, imkoniyatlarni o'rganish va eng yaxshi yechimni topish uchun ishlaydilar. O'quvchilar shunday tarzda o'z fikrlarini mustaqil ravishda ishlab chiqadilar va tanqidiy yondashuvni hayotda qo'llashni o'rganadilar.

3. Kooperativ ta'lim metodi:

Rustam Azimov kooperativ ta'limni tanqidiy fikrlashni rivojlantirishda samarali metod sifatida ko'radi. Bu metodda talabalar guruhlariga bo'linib, o'zaro fikr almashishadi, tahlil va muhokama qilishadi, natijada har bir talaba o'z fikrini boshqalar bilan baham ko'radi va fikrlarni baholashni o'rganadi. Bu usul, o'quvchilarning guruhdagi rollarini o'zlashtirishi va muammolarni tanqidiy tarzda hal qilishga yordam beradi.

3. Falsafiy va etik bahs-munozaralar:

Azimov, o'quvchilarga yuqori darajadagi fikr yuritish va etik muammolarni tanqidiy ko'rib chiqish imkoniyatini yaratishga harakat qiladi. Falsafiy muhokamalar orqali o'quvchilar ongli qarorlar qabul qilish, mantiqiy asoslarni o'rganish va masalalarga turli nuqtai nazardan yondashishni o'rganadilar[5].

MDH Davlatlarining bir qator olimlari ham bugungi kunda tanqidiy fikrlashning ta'lim tizimidagi ahamiyati uni tadbiq etish usullari ustida tadqiqotlarni amalga oshirganlar va bu jarayopnni amalga oshirishda qanday metodlardan foydalanishlari mumkinligi haqida o'z tavsiyalarini ishlab chiqqanlar. Tanqidiy fikrlashni rivojlantirish borasida L.Vygotskiy muammoli ta'lim texnologiyalarining ahamiyatini ta'kidlab, bu metod talabalarni o'ylashga va tahlil qilishga undashini aytgan [6]. Muammoli ta'lim texnologiyasidagi aynan muammo so'ziga ta'rif beradigan bo'lsak: "Javobi bevosita mavjud bilimda bo'lmagan va yechish usuli noma'lum bo'lgan masala(xolat). Muammoni qo'yish va hal qilish mavjud bilimlar doirasidan chetga chiqishni, yangicha yechish usuli, texnologiyalari yoki metod hamda metodologiyalarni yaratishdan iboratdir" [7.97]. L.Vgotskiy Oliy ta'lim tizimi talabalarda tanqidiy fikrlash ko'nikmasini rivojlantirish uchun dars mashg'ulotlari davomida muammoli ta'lim texnologiyasidan foydalanishlari talabalarda muammoga bir qancha yangicha yechimlarni keltira olish qobiliyatini shakllanishini, har qanday vaziyatda o'zini yo'qotib qo'yimnaslik kabi kompetensiyalarini namoyon bo'lishini ta'kidlab o'tgan. E. Ivanova "case-study"ining ta'limdagi rolini tahlil qilib, uning real vaziyatlarda qo'llanilishini chuqur yoritgan [7]. E. Ivanova tomonidan taklif etilgan "case-study" (holat tahlili) metodologiyasi ta'limda talabalarni real vaziyatlar bilan tanishtirish va tanqidiy fikrlashni rivojlantirishda katta rol o'ynaydi. U "case-study"ni nafaqat amaliy bilimlarni oshirish, balki talabalarning analitik va kritik fikrlash ko'nikmalarini rivojlantirish uchun samarali vosita sifatida ko'rsatadi. Case-study" metodi — bu

talabalarda o‘zlariga berilgan real hayotiy holatlar asosida chuqur tahlil va qarorlar chiqarishni o‘rgatadigan metoddir. Bu metod orqali talabalar konkret vaziyatlarni o‘rganib, ularni tahlil qiladi va real hayotdagi masalalarga yechimlar topishga harakat qiladi. Bu metod talabalar nafaqat nazariy bilimlarni o‘rganadi, balki o‘z bilimlarini amaliyotga tatbiq etish ko‘nikmalarini rivojlantiradi. Masalan, talaba bir kompaniya yoki tashkilotning moliyaviy holatini tahlil qilib, ularni yaxshilash uchun qanday choralar ko‘rish kerakligini aniqlaydi. "Case-study" metodining ta’limda tanqidiy fikrlashni rivojlantirishdagi ahamiyatini alohida ta’kidlaydi. Holat tahlili o‘quvchini voqea yoki muammoni chuqur tahlil qilishga undaydi, bu esa ularning fikrlash jarayonlarini faol va tizimli qiladi. Talabalar turli variantlarni ko‘rib chiqib, har birining afzalliklari va kamchiliklarini baholashni o‘rganadilar. Bu jarayon, o‘z navbatida, tanqidiy fikrlashni rivojlantirishga yordam beradi.

Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, interfaol metodlar — bu talabalarga nafaqat bilim olishni, balki tanqidiy fikrlashni rivojlantirishda katta yordam beradigan samarali vositalardir. Oliy ta’lim tizimida talabalar o‘zlarining mustaqil fikrlarini shakllantirish, analitik ko‘nikmalarini oshirish va real hayotdagi muammolarni hal qilishga tayyor bo‘lishlari uchun interfaol metodlar juda muhim ahamiyatga ega. Bu metodlar orqali talabalar o‘z fikrlarini erkin ifodalash, turli nuqtai nazarlarni tahlil qilish, jamoaviy ishda samarali ishlash va muammolarni turli usullar bilan hal qilish ko‘nikmalarini rivojlantiradilar.

Shu bilan birga, bu metodlar talabalarni tanqidiy fikrlashga o‘rgatish bilan birga, ularni ijodkor va innovativ yondashuvlar ishlab chiqishga ham undaydi, bu esa ularning kelajakdagi kasbiy faoliyatlarida muvaffaqiyatli bo‘lishiga yordam beradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti. (2023). Ta’lim sifatini oshirish va yoshlarning tanqidiy fikrlash qobiliyatini rivojlantirish to‘g‘risida farmon. <https://lex.uz>
2. Dewey John How We Think. D.C.Heath, 1910.
3. Dewey John "Experience and Education", Macmillan Company. 1938.
4. **Azimov, R. (2013).** *Ta'limda tanqidiy fikrlashni rivojlantirish metodlari.* - Toshkent.: "Sharq" nashriyoti.
5. **Azimov, R., & Xudoyberdiyev, B. (2017).** *Ta'lim jarayonida tanqidiy fikrlashni shakllantirishning metodik asoslari.* –Toshkent.: "O‘qituvchi nashriyoti".
6. Vygotskiy, L. S. (1986). Psixologik rivojlanishning sotsiokultur yondashuvi. //Moskva.: Psixologiya nashriyoti.
7. Pedagogika fanidan izohli lug‘at”. M.X.To‘xtodjayevning umumiy taxriri ostida O‘zbekiston respublikasi FA —"Fan" nashriyoti, Toshkent – 2008.97 b.
8. Ivanova, E. (2019). Keys-stadi metodikasi va uning ta’limdagi roli. //Oliy ta’lim jarayonida innovatsiyalar jurnali, 8(3), 22-25.

BOSHLANG'ICH SINIF O'QUVCHILARIDA INDUKTIV VA DEDUKTIV MULOHAZA YURITISH KO'NIKMASINI SHAKLLANTIRISH YO'LLARI

Kasimov Fayzullo Muhammadovich, BuxDPI, pedagogika fanlari nomzodi, professor
kasimov@mail.com

*Mahmudova Shahlo Maqsudovna, Buxoro davlat pedagogika institute Maktabgacha
va boshlang'ich ta'lim fakulteti magistranti*
shahlomahmudova2003@gmail.com

ANNOTATSIYA: Ushbu maqolada boshlang'ich sinf o'quvchilarida induktiv va deduktiv mulohaza yuritish ko'nikmasini shakllantirish usullari tahlil qilinadi. Induksiya va deduksiya tushunchalarining nazariy asoslari yoritilib, ularning o'quvchilarning fikrlash jarayoniga ta'siri ko'rib chiqiladi. Shuningdek, ushbu ko'nikmalarni rivojlantirishning samarali yo'llari, o'qitish jarayonida qo'llaniladigan metodlar va mashg'ulot turlari keltiriladi. Maqolada ta'lim jarayonida mantiqiy tafakkurni shakllantirishga yo'naltirilgan topshiriqlar va amaliy mashqlar misollar orqali tushuntiriladi.

KALIT SO'ZLAR: Induksiya, deduksiya, mulohaza yuritish, boshlang'ich sinf, mantiqiy tafakkur, tahlil va sintez, fikrlash jarayoni, ta'lim metodlari.

ПУТИ ФОРМИРОВАНИЕ НАВЫКОВ ИНДУКТИВНОГО И ДЕДУКТИВНОГО РАССУЖДЕНИЯ У УЧАЩИХСЯ НАЧАЛЬНЫХ КЛАССОВ

*Касимов Файзулло Мухаммадович Бухарский государственный педагогический институт,
кандидат педагогических наук, профессор*
kasimov@mail.com

*Махмудова Шахло Махсудовна, Магистрант факультета дошкольного и начального
образования Бухарского государственного педагогического института*
shahlomahmudova2003@gmail.com

АННОТАЦИЯ: В данной статье анализируются методы формирования навыков индуктивного и дедуктивного рассуждения у учащихся начальных классов. Освещаются теоретические основы понятий индукции и дедукции, рассматривается их влияние на процесс мышления учащихся. Также приводятся эффективные способы развития этих навыков, методы обучения и виды занятий, применяемые в образовательном процессе. В статье объясняются примеры заданий и практических упражнений, направленных на формирование логического мышления в обучении.

КЛЮЧЕВЫЕ СЛОВА: Индукция, дедукция, рассуждение, начальная школа, логическое мышление, анализ и синтез, процесс мышления, методы обучения.

WAYS TO DEVELOP INDUCTIVE AND DEDUCTIVE REASONING SKILLS IN PRIMARY SCHOOL STUDENTS

*Kasimov Fayzullo Muhammadovich, Bukhara State Pedagogical Institute, Candidate of
Pedagogical Sciences, Professor*
kasimov@mail.com

*Mahmudova Shahlo Maqsudovna, Master's student at the Faculty of Preschool and Primary
Education, Bukhara State Pedagogical Institute*
shahlomahmudova2003@gmail.com

ABSTRACT: This article analyzes methods for developing inductive and deductive reasoning skills in primary school students. The theoretical foundations of the concepts of induction and deduction are discussed, along with their impact on students' thinking processes. The article also presents effective ways to develop these skills, teaching methods, and types of lessons used in the educational process. Additionally,

examples of tasks and practical exercises aimed at fostering logical thinking in education are provided.

KEYWORDS: *Induction, deduction, reasoning, primary school, logical thinking, analysis and synthesis, thinking process, teaching methods.*

KIRISH

Boshlang'ich sinf o'quvchilari uchun induktiv va deduktiv mulohaza yuritish ko'nikmalarini shakllantirish muhim ahamiyatga ega. Bu ko'nikmalar bolaning tahlil qilish. umumlashtirish. xulosa chiqarish va mantiqiy fikrlash qobiliyatini rivojlantirishga yordam beradi. An'anaviy ta'lim usullari ko'pincha tayyor bilimlarni yetkazishga qaratilgan bo'lib, o'quvchilarning mustaqil fikrlashiga kamroq imkoniyat beradi. Natijada bolalar faqat yodlash orqali emas, balki mustaqil fikr yuritish orqali bilimlarni chuqur o'zlashtirishga ehtiyoj sezadilar.¶

Induktiv va deduktiv fikrlashning rivojlanishi o'quvchilarning matematik va mantiqiy tafakkurini shakllantirishda muhim o'rin tutadi. Chunki ushbu tafakkur shakllari orqali bolalar sabab-oqibat aloqalarini tushunadi, muammolarga yechim topadi va o'z fikrlarini aniq ifodalashga o'rganadilar. Shuning uchun ta'lim jarayonida bu ko'nikmalarni shakllantirishga qaratilgan metodik yondashuvlarni ishlab chiqish va amaliyotga tatbiq etish muhim vazifalardan biridir.¶

N.B. Istomina oz ishlarida mulohaza yuritish ko'nikmalarini shakllantirish jarayonida o'quvchilarni mantiqiy tarkibiy qismlar bilan tanishtirish zarurligini ta'kidlaydi: qarorlar. xulosalar va boshqalar [4].¶

Matematika-kursida qarorlarning to'g'riligini asoslash uchun ko'pincha deduktiv mulohazalar. to'liq bo'lmagan induksiya hisob-kitoblar o'lchashlar, eksperiment va boshqa usullar qo'llaniladi.¶ A.V. Beloshistavaning fikriga ko'ra matematik tilni egallash harakat algoritmlarini o'zlashtirish. turli masalalarni yechish rejasini tuzish va natijani oldindan bashorat qilish-bu mulohaza yuritish. oz nuqtai nazarini asoslash fikr bildirish yoki keltirilgan taxminning to'g'riligini dalillar bilan tasdiqlash yoki rad etish ko'nikmalarini shakllantirishning asosidir. Matematik mazmunni o'zlashtirish o'quvchilarning mantiqiy madaniyatini oshirish va kommunikativ faoliyatini rivojlantirish uchun sharoit yaratadi-[1]-¶

Boshlang'ich ta'lim jarayonida o'quvchilarning umumiy rivojlanishi. jumladan nazariy tafakkurining shakllanishi, ularning keyingi bosqichga tayyorlanish samaradorligiga bevosita ta'sir qiladi. Tajriba shuni ko'rsatadiki, agar bola boshlang'ich sinflarda fikrlash operatsiyalari va usullarini egallamasa o'rta maktabda odatda o'zlashtira olmaslik xavfi ostida qoladi.

Maktab fanlari orasida matematika eng ko'p mantiqiy tarkibga ega bo'lgan fan hisoblanadi. Bu esa nafaqat dars jarayonida balki darsdan tashqari matematik mashg'ulotlar asosida ham boshlang'ich sinf o'quvchilarida matematik qarorlarni asoslash ko'nikmasini shakllantirish imkonini beradi

MUHOKAMA VA NATIJALAR

Induksiya - umumiy xulosaga kelish uchun alohida hollardan foydalanish usuli. Bunda kuzatilgan misollardan kelib chiqib umumiy qonuniyatlar shakllantiriladi. Induktiv

tafakkur o'quvchilarga atrof-muhitni kuzatish, o'z tajribalaridan kelib chiqib xulosa chiqarish va mustaqil bilim olish imkonini beradi.

Deduksiya - umumiy qoidalar asosida alohida holatlarga xulosa chiqarish usuli. Deduktiv tafakkur o'quvchilarga mantiqiy izchillikni tushunish oldindan berilgan qoidalar yoki tamoyillarga asoslanib yangi bilimlarni hosil qilish imkonini beradi.

Induktiv va deduktiv tafakkur bir-birini to'ldiruvchi jarayonlar bo'lib, ta'lim jarayonida ularni uyg'unlashtirish o'quvchilarning muammoli vaziyatlarni hal qilish, mustaqil qaror qabul qilish va fikrlarini asoslab berish qobiliyatini rivojlantiradi.

Induktiv yondashuvga namuna:¶

Masala: O'quvchilar quyidagi son qatorini kuzatadi.

2, 4, 6, 8, 10, ...

Savol: Ushbu sonlarning o'zaro bog'liqligi qanday? Keyingi son nima bo'ladi?

Tahlil:¶

- O'quvchilar har bir son oldingisidan 2 ga katta ekanligini kuzatadilar.
- Ushbu qonuniyatni asoslab, keyingi son 12 bo'lishini tushunib yetadilar.¶
- Natijada umumiy qoidani shakllantiradilar. «Agar berilgan ketma-ketlikda har bir son oldingisidan 2-ga katta bo'lsa, keyingi sonni topish uchun unga 2 go'shish kerak»

Xulosa: O'quvchilar alohida misollarni tahlil qilib, umumiy qoida (juft sonlarning ketma-ketligi) haqida xulosa chiqarishadi.¶

Deduktiv yondashuvga namuna:

Masala: Uchburchakning ichki burchaklari yig'indisi har doim 180° ga teng. Agar bitta burchak 90° bo'lsa, qolgan ikki burchak qanday bo'ladi?

Tahlil:¶

- Umumiy qoida: uchburchakning burchaklar yig'indisi har doim 180° ga teng.
- Berilgan shart: uchburchakning bitta burchagi 90° .¶
- Deduktiv xulosa: qolgan ikki burchak yig'indisi $180^\circ - 90^\circ = 90^\circ$ bo'lishi kerak¶

Xulosa: O'quvchilar umumiy qoidadan foydalanib, aniq natijaga kelishadi.¶

Boshlang'ich sinf o'quvchilarida induktiv ya deduktiv mulohaza yuritish ko'nikmasini shakllantirish usullari(yo'llari)¶

Boshlang'ich sinf o'quvchilari hali abstrakt fikrlash qobiliyatini to'liq rivojlantirib ulgurmagan bo'lsa-da, ularning induktiv va deduktiv mulohaza yuritish ko'nikmalarini shakllantirish mumkin. Buning uchun quyidagi usullardan foydalanish samarali bo'ladi:

1. Kuzatish va taqqoslash asosida umumlashmalar chiqarish (Induktiv usul)¶

•“O'xshashlik va farqlar” metodi: O'quvchilarga turli obyektlar yoki hodisalarni taqdim etib, ularning o'xshash va farqli jihatlarini topish topshirig'i beriladi.

Misol: O'quvchilarga bir necha shakllar beriladi:



- O‘quvchilar: shakllarni solishtirib, umumiy xususiyatlarini topadilar va umumiy xulosa chiqaradilar.»

- “Misoldan qoida chiqarish” usuli: O‘quvchilarga bir necha misollar beriladi va ular asosida umumiy qoida chiqarish so‘raladi.

Misol:


- $2+3=5$, $4+1=5$, $3+2=5$ misollari beriladi va “Bu misollardan qanday: umumiy xulosa chiqarish mumkin?” deb so‘raladi. O‘quvchilar yig‘indining o‘zgarmasligini anglaydilar.¶

2. Qoidaga asoslanib xulosa chiqarish (Deduktiv usul).¶

- “Qoidani amalda qo‘llash metodi O‘quvchilarga ma‘lum bir qoida yoki qonuniyat tushuntiriladi va keyin ular shu qoidani turli vaziyatlarda qo‘llaydilar.

Misol:

- “To‘g‘ri to‘rtburchakning qarama-qarshi tomonlari teng bo‘ladi” qoidasi tushuntiriladi va o‘quvchilarga turli shakllar ko‘rsatiladi. Ular ushbu qoida asosida qaysi shakllar to‘g‘ri to‘rtburchak ekanini aniqlaydilar.



- “Agar ... bo‘lsa, unda ...” mulohaza yuritish texnikasi: O‘quvchilarga **shartli** fikrlashga asoslangan mashqlar beriladi.

Misol:

- Agar quyosh chiqsa, unda kun yorug‘ bo‘ladi.¶
- Agar uchburchakning barcha tomonlari teng bo‘lsa, unda u teng tomonli uchburchakdir.¶

3. Muammoli savollar va topshiriqlar orqali mulohaza yuritish¶

- “Nima bo‘lishi mumkin?” usuli: O‘quvchilarga ochiq savollar berilib, ularning turli fikrlari rag‘batlantiriladi.

Misol:

- “Agar dunyodagi barcha doiralar kvadrat shaklga o‘xshab qolsa, nima bo‘ladi?”
- «Nima uchun?» savollari: O‘quvchilardan har qanday hodisa yoki qoidaning sababini tushuntirish so‘raladi.

Misol:

- Nega ko‘prik qurishda uchburchak shakldan foydalaniladi?:¶

Javob:(Uchburchak shakl eng mustahkam va barqaror geometrik shakl bo‘lib, uning yukni teng taqsimlash va deformatsiyaga chidamlilik xususiyatlari tufayli ko‘prik qurilishida keng qo‘llaniladi).

4. Mantiqiy masalalar va o‘yinlar¶

•«Zanjirli fikrlash» oyini: Bir o‘quvchi bir fikr aytadi keyingi o‘quvchi shu fikrga asoslangan. holda yangi fikr qe shadi.

Misol:

«Daraxt o‘sadi, chunki...»

«Chunki daraxtga suv kerak...»

«Suv esa yomg‘irdan keladi...»¶

«Qaysi biri ortiqcha?» metodi: O‘quvchilarga bir-biriga bog‘liq bo‘lgan so‘z yoki rasm to‘plami beriladi, ulardan ortiqchasini aniqlash va izohlash so‘raladi.

Misol:


«Kvadrat, doira uchburchak kub»-bu yerda kub ortiqcha chunki u uch o‘lchamli shakl

5. Venn diagrammalari orqali tahlil qilish.¶


O‘quvchilarga ikki yoki undan ortiq tushunchani solishtirish uchun Venn diagrammalaridan foydalanish o‘rgatiladi.

Misol:

- Kvadrat va to‘rtburchakning o‘xshash va farqli jihatlarini aniqlash¶



- 3 va 5-sonlari qanday o‘xshashlik va farqlarga ega?¶



6. Matnli masalalar asosida xulosa chiqarish.¶

Matnli masalalar orqali bolalar mustaqil tahlil qilishga o'rgatiladi.

Misol:

- “Ali 4 ta olma yedi. Hasan esa undan 2 tasi ko‘p yedi. Hasan nechta olma yedi?”¶



- O‘quvchilar bu masalani tahlil qilib, yechim topadi¶

7. Real hayotga bog‘langan topshiriqlar.¶

- O‘quvchilarga hayotiy vaziyatlarga asoslangan topshiriqlar beriladi.¶

Misol:

- “Agar do‘kondan 3 kg olma ya 2 kg nok sotib olinsa, jami nechta kilogramm meva bo‘ladi?”



Induktiv va deduktiv mulohaza yuritish ko‘nikmasini shakllantirish uchun

-O‘quvchilarga kuzatish va taqqoslash imkoniyatini yaratish.¶

-Qoidalar asosida xulosa chiqarish ko‘nikmalarini rivojlantirish.¶

-Muammoli vaziyatlar yaratib, ularning mustaqil fikrlashini rag‘batlantirish.

-O‘yinlar, mantiqiy mashqlar va real hayotga bog‘langan topshiriqlardan foydalanish muhim. Bu metodlar boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining mantiqiy fikrlash qobiliyatini rivojlantirishga va ularni mustaqil xulosa chiqarishga o‘rgatishga yordam beradi.

XULOSA:¶

Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida induktiv va deduktiv mulohaza yuritish ko‘nikmasini shakllantirish ularning fikrlash qobiliyatini rivojlantirish va mustaqil xulosa chiqarishga o‘rgatishning muhim bosqichidir. Ushbu jarayon bosqichma-bosqich tashkil etilganda, o‘quvchilar o‘z kuzatishlari, taqqoslashlari va tahlillari orqali bilimlarni mustahkam o‘zlashtiradilar.

Induktiv va deduktiv mulohazani rivojlantirish metodlarini go‘llash natijasida o‘quvchilarda nafaqat mantiqiy tafakkur shakllanadi, balki ularning hayotiy muammolarni hal qilish, sabab- oqibat aloqalarini tushunish va o‘z fikrlarini asoslab berish qobiliyatlari ham rivojlanadi. Natijada. ta‘lim samaradorligi ortib, o‘quvchilarning fanga bo‘lgan qiziqishi oshadi.

Shunday qilib, induktiv ya deduktiv fikrlashni shakllantirishga yoʻnaltirilgan metodlar boshlangʻich sinf oʻquvchilarining keng fikrlash doirasini yaratishda va ularning kelajakdagi intellektual rivojlanishiga mustahkam poydevor qoʻyishda muhim ahamiyat kasb etadi.

ADABIYOTLAR ROʻYXATI:¶

1. Белошистая, А.В., Левитес. В.В. (2009). Развитие логического мышления младших школьников на основе использования специальной системы заданий. - Мурманск: МГПУ.
2. Истомина, Н.Б. (2009). Методика обучения в начальной школе: развивающее обучение. Смоленск: Ассоциация XXI век.
3. Леонтьев, А.Н. (2001). Психология обучения и развития ребенка. - Москва: Академия.
SI asosidagi virtual yordamchilar (masalan, Google Assistant yoki Amazon Alexa) talabalarga o'quv materiallari bilan ishlashda yordam beradi, ma'lum bir savol yoki topshiriq bo'yicha qo'shimcha ma'lumotlar taqdim etadi va murakkab jarayonlarni tushuntiradi. Intellektual ta'lim tizimlari esa o'quvchilarning javoblarini tahlil qilishi, ularga mos materiallarni tavsiya qilishi va ularga o'z bilimlarini mustahkamlash uchun individual topshiriqlar berishi mumkin. Bu tizimlar o'quvchilar bilimini chuqurlashtirish va o'zlashtirish ko'nikmalarini rivojlantirishda katta yordam beradi.

5. Big Data va o'quv tahlili (learning analytics)

SI texnologiyalari o'quv jarayonini yanada samarali boshqarish uchun katta hajmdagi ma'lumotlarni (big data) tahlil qilish imkonini beradi. O'quvchilarning ta'lim faoliyatini kuzatish, ularning o'zlashtirish qobiliyatini baholash va qiyinchiliklarni aniqlash orqali ta'lim jarayoniga individual yondashuvni ta'minlash mumkin. Learning analytics yordamida talabaning qaysi mavzularda qiynalayotgani, qaysi darslarni yaxshi o'zlashtirayotgani aniqlanadi va unga mos ravishda tavsiyalar beriladi.

6. O'quv kontentini yaratish va boshqarish

Sun'iy intellekt matnlar, video darslar va boshqa o'quv materiallarini yaratishda va ularni boshqarishda ham qo'llaniladi. Masalan, avtomatik ravishda yangi mavzularni o'z ichiga olgan dars rejalarini yaratish, talabalarning qiziqishlari va ehtiyojlariga mos kontent yaratish va ularni tartibga solish imkonini beradi. Shu orqali o'quvchilarga kerakli ma'lumotlar tez va oson yetkaziladi.

Yuqorida sanab o'tilgan tendensiyalar sun'iy intellekt texnologiyalarining ta'lim

sohasida qanchalik keng imkoniyatlar yaratishini va uning dolzarbligini namoyish etadi. Bu yondashuvlar nafaqat o'quv jarayonini yengillashtiradi, balki ta'lim samaradorligini oshirishda ham muhim rol o'ynaydi.

METODLAR

Adaptiv ta'lim tizimlari sun'iy intellekt texnologiyalari yordamida o'quvchilarning o'qish jarayonini shaxsiylashtirish va samaradorligini oshirishga qaratilgan innovatsion yondashuvdir. Ushbu tizimlar har bir o'quvchining bilim darajasi, qiziqishlari va ehtiyojlariga mos ravishda o'quv materiallarini tanlab, o'zlashtirish jarayonini individual yondashuv asosida tashkil etadi. Quyida adaptiv ta'lim tizimlarining asosiy afzalliklari va imkoniyatlari haqida kengroq ma'lumot beriladi.

- Individual ta'lim rejalarini tuzish

Adaptiv ta'lim tizimlari sun'iy intellekt algoritmlaridan foydalangan holda har bir talabaning bilim darajasini tahlil qiladi va shu asosda individual ta'lim rejalarini tuzadi. Masalan, talaba ma'lum bir mavzuni yaxshi o'zlashtirgan bo'lsa, tizim unga qiyinroq mavzularni taklif qiladi, aksincha, qiyin mavzularda yordam kerak bo'lsa, qo'shimcha tushuntirish va mashqlarni taqdim etadi. Bu usul har bir o'quvchi uchun o'qish jarayonini yanada samarali qiladi.

- Ta'lim jarayonini real vaqt rejimida moslashtirish

SI asosidagi adaptiv tizimlar o'quvchilarning faoliyatini doimiy ravishda kuzatib boradi va ularga real vaqt rejimida mos ravishda o'qitish usulini o'zgartiradi. Masalan, o'quvchi qiyinlashgan vazifalarda ko'p xatolar qilsa, tizim unga oddiyroq vazifalarni taklif qiladi yoki qo'shimcha yordam materiallari taqdim etadi. Shu tariqa, har bir o'quvchi o'z imkoniyatlari va qobiliyatlariga mos ravishda ta'lim oladi.

- O'quvchilarning faolligi va muvaffaqiyatini kuzatish

Adaptiv ta'lim tizimlari o'quvchilarning ta'lim jarayonidagi faolligini va muvaffaqiyatlarini avtomatik ravishda kuzatadi. Bu orqali har bir o'quvchining ta'limdagi yutuqlari va qiyinchiliklari haqida batafsil ma'lumot olish mumkin. O'qituvchilar esa ushbu ma'lumotlar asosida talabalar bilan ishlash strategiyasini belgilaydi va ularning muvaffaqiyatlarini oshirish uchun zaruriy tavsiyalarni ishlab chiqadi.

- Shaxsiylashtirilgan tahlil va tavsiyalar

SI asosidagi adaptiv tizimlar o'quvchilarning tahlil qilingan natijalari asosida ularning qaysi mavzularni yaxshi o'zlashtirayotganini va qaysi mavzularda qiynalayotganini aniqlaydi. Ushbu ma'lumotlar asosida tizim talabalarga shaxsiylashtirilgan tavsiyalar beradi. Masalan, talaba matematikadan qiynalayotgan bo'lsa, tizim unga qo'shimcha mashqlar va videodarslar taqdim etadi yoki o'qituvchini xabardor qilib, individual yordam ko'rsatishni taklif qiladi.

- Interfaol o'qitish va rag'batlantirish

Adaptiv ta'lim tizimlari o'quvchilarning bilimni chuqurlashtirish va ularning qiziqishini oshirish uchun interfaol usullarni qo'llaydi. Masalan, gamifikatsiya elementlarini o'quv jarayoniga kiritish, virtual laboratoriyalardan foydalanish va o'quvchilarni turli topshiriqlar va loyihalar orqali rag'batlantirish. Bu usullar o'quv jarayonini qiziqarli va samarali qiladi hamda o'quvchilarning o'quv motivatsiyasini oshiradi.

- Keng qamrovli o'quv jarayoni

Adaptiv ta'lim tizimlari faqatgina talabalarning bilimlarini mustahkamlash bilan

cheklanmay, balki ularning o'quv jarayonidagi boshqa ko'nikmalarini ham rivojlantiradi. Masalan, vaqtni boshqarish, tanqidiy fikrlash va mustaqil ishlash kabi ko'nikmalarni shakllantirishga yordam beradi. Bu esa o'quvchilarning kelgusida nafaqat bilimli, balki muvaffaqiyatli shaxs bo'lib yetishishlariga ham zamin yaratadi.

– O'qituvchilarga yordamchi vosita

Adaptiv ta'lim tizimlari o'qituvchilarga yordamchi vosita sifatida xizmat qiladi. Tizim avtomatik ravishda o'quvchilarning yutuqlari va kamchiliklarini tahlil qiladi va o'qituvchiga ushbu ma'lumotlar asosida talabalarga qanday yordam berish mumkinligi haqida tavsiyalar beradi. Bu orqali o'qituvchilar o'z vaqtini samarali boshqaradi va har bir o'quvchiga individual yondashish imkoniyatiga ega bo'ladi.

Sun'iy intellekt texnologiyalari o'quvchilarning bilim darajasi, qobiliyatlari va o'zlashtirish ko'nikmalarini tahlil qilishda keng imkoniyatlarga ega. Ushbu texnologiyalar yordamida o'quvchilarning bilimni aniq baholash, ularning qobiliyatlarini rivojlantirish va o'zlashtirish jarayonini samarali boshqarish mumkin. Quyida SI yordamida o'quvchilar qobiliyatlarini baholash va rivojlantirishning asosiy jihatlari batafsil ko'rib chiqiladi.

1. O'quvchilar bilimni avtomatik baholash tizimlari
2. O'quvchilarning bilim darajasi va rivojlanishini kuzatish
3. O'quvchilarning qiziqish va qobiliyatlarini aniqlash
4. Shaxsiy rivojlanish rejalarini tuzish
5. Intellektual qobiliyatlarni rivojlantirish uchun individual dasturlar
6. Qiyinchiliklarni aniqlash va individual yordam ko'rsatish
7. Emosional va psixologik holatni tahlil qilish

Ushbu jihatlar tahlil qilib chiqilsa, quyidagi mulohazalarga kelish mumkin.

Sun'iy intellekt asosidagi avtomatik baholash tizimlari o'quvchilarning yozma ishlari, testlar va boshqa topshiriqlarini avtomatik tahlil qilib, ularga ob'ektiv baho beradi. Bunday tizimlar nafaqat an'anaviy testlarni tekshirish, balki ochiq savollar yoki insho kabi murakkab matnli topshiriqlarni ham tahlil qilish imkoniyatiga ega. Bu orqali o'qituvchilarning ish hajmi kamayadi va baholash jarayoni ancha tezlashadi. Masalan, avtomatik ravishda grammatik xatolarni topish, matn mazmunini tahlil qilish va baho qo'yish kabi imkoniyatlar mavjud. SI yordamida o'quvchilarning bilim darajasi va rivojlanishini doimiy ravishda kuzatish va tahlil qilish mumkin. Masalan, o'quvchilarning o'qish jarayonidagi faoliyati, topshiriqlarni bajarish sifati, savollariga bergan javoblari va boshqa faoliyatlari orqali ularning qanchalik rivojlanayotganini aniqlash mumkin. Bu ma'lumotlar asosida har bir o'quvchining kuchli va zaif tomonlarini aniqlash va ularning o'qish jarayonini shaxsiylashtirish mumkin. Sun'iy intellekt texnologiyalari o'quvchilarning qiziqishlari va qobiliyatlarini aniqlashda ham samarali vosita hisoblanadi. Tizimlar o'quvchilarning turli mavzularga qiziqishini, ularning qaysi sohalarida ko'proq muvaffaqiyat qozonayotganini va qanday bilimlarni oson o'zlashtirayotganini tahlil qilishi mumkin. Bu orqali o'quvchilar uchun ularning qiziqishlariga mos bo'lgan qo'shimcha mashg'ulotlar, loyihalar yoki mavzular tavsiya qilinadi. Natijada, o'quvchilar o'zlariga qiziqarli bo'lgan yo'nalishlarni rivojlantirish imkoniyatiga ega bo'ladi.

Sun'iy intellekt tizimlari o'quvchilarning shaxsiy rivojlanish rejalarini tuzishda ham yordam beradi. Tizim har bir o'quvchining qobiliyatlarini, bilim darajasini va o'zlashtirish qobiliyatini tahlil qilib, ularning kelgusida rivojlanishi uchun qanday yo'nalishlarda ishlashi kerakligini tavsiya qiladi. Masalan, agar o'quvchi matematika

faniga qiziqsa va bu fanni yaxshi o'zlashtirsa, tizim unga qo'shimcha matematika kurslari yoki olimpiadalarda qatnashishni tavsiya qilishi mumkin.

Sun'iy intellekt tizimlari o'quvchilarning intellektual qobiliyatlarini rivojlantirish uchun turli individual dasturlar ishlab chiqadi. Bu dasturlar o'quvchilarning bilim darajasiga va qiziqishlariga mos ravishda o'quv materiallarini taqdim etadi, interfaol mashg'ulotlar va o'yinlar orqali ularning fikrlash qobiliyatini oshiradi. Masalan, mantiqiy fikrlash, analitik qobiliyatlar yoki ijodiy fikrlash kabi qobiliyatlarni rivojlantirish uchun maxsus o'quv dasturlari taklif etiladi.

Sun'iy intellekt tizimlari o'quvchilarning o'zlashtirish jarayonida duch kelayotgan qiyinchiliklarni tezda aniqlash va ularni bartaraf etishda yordam berishi mumkin. Tizim o'quvchilarning qaysi mavzularda qiyinlanayotganini, qaysi topshiriqlarda xatolar ko'p ekanini tahlil qiladi va ularga kerakli yordamni taqdim etadi. Bu yordamlar maxsus qo'shimcha materiallar, tushuntirish videolari yoki individual maslahatlar ko'rinishida bo'lishi mumkin.

Sun'iy intellekt yordamida o'quvchilarning emosional va psixologik holatini tahlil qilish imkoniyati ham mavjud. Masalan, yuz ifodalari, ovoz ohangi yoki harakatlar orqali tizim o'quvchilarning qanday kayfiyatda ekanini va ularning ruhiy holatini aniqlashi mumkin. Bu ma'lumotlar asosida o'qituvchilar o'quvchilar bilan qanday ishlash kerakligi, ularga qanday motivatsiya berish kerakligi haqida tavsiyalar olishlari mumkin. Bu esa o'quvchilarning o'z-o'zini anglash va psixologik holatini yaxshilashda muhim ahamiyatga ega.

Yuqorida sanab o'tilgan imkoniyatlar sun'iy intellekt texnologiyalarining o'quvchilarning qobiliyatlarini rivojlantirish va baholashda qanchalik samarali ekanligini ko'rsatadi. Bu texnologiyalar o'quvchilarning individual ehtiyojlariga mos yondashish, ularning qiziqishlari va qobiliyatlarini rivojlantirish imkonini beradi. Natijada, ta'lim jarayoni yanada shaxsiylashtirilgan va samarali bo'ladi.

NATIJALAR

Sun'iy intellekt texnologiyalari o'quv jarayonini avtomatlashtirish va optimallashtirish imkoniyatiga ega bo'lib, bu ta'lim tizimini samarali boshqarish va o'quv jarayonini yengillashtirishga xizmat qiladi. Ushbu texnologiyalar yordamida darslarni rejalashtirishdan tortib, baholash jarayonigacha bo'lgan barcha jarayonlarni avtomatlashtirish mumkin. Quyida o'quv jarayonini avtomatlashtirish va optimallashtirishning asosiy jihatlari va ulardan kutiladigan natijalar batafsil yoritiladi.

1. Darslarni avtomatik rejalashtirish

Sun'iy intellekt asosidagi tizimlar o'quvchilarning jadvali, ularning darsga kirish holati va bilim darajalarini hisobga olgan holda darslarni avtomatik rejalashtirish imkoniyatiga ega. Masalan, talabalarining vaqt jadvali va qiziqishlariga mos darslarni tuzib chiqish, turli o'quv guruhlari uchun optimal dars jadvalini tuzish va darslarni mos ravishda taqsimlash orqali o'qituvchilar va talabalar uchun qulaylik yaratadi. Bu usul ta'lim jarayonini rejalashtirishda ketadigan vaqtni sezilarli darajada qisqartiradi va jarayonni soddalashtiradi.

2. Uy vazifalarini avtomatik topshirish va baholash

SI yordamida o'quvchilarga uy vazifalarini avtomatik ravishda topshirish va ularni tekshirish mumkin. Tizim har bir o'quvchining bilim darajasi va mavzular bo'yicha muvaffaqiyatlarini tahlil qilib, ularga mos vazifalar tayinlaydi. Uy vazifalari bajarilgandan so'ng, SI algoritmlari ularni avtomatik tarzda tekshirib, natijalarni

o'quvchiga qaytaradi. Bu jarayon o'qituvchilarning ishini ancha yengillashtiradi va o'quvchilarning o'z vaqtida baho olishiga yordam beradi.

3. Yozma ishlarga avtomatik tahrir va sharh

Yozma ishlarga avtomatik tahrir va sharh qilish tizimlari SI algoritmlari yordamida o'quvchilarning matnli ishlarini avtomatik tarzda tahlil qiladi. Masalan, grammatika va stil xatolarini aniqlash, matnning mazmunini baholash va shu asosda o'quvchilarga tavsiyalar berish mumkin. Bu usul o'qituvchilarning ish hajmini kamaytiradi va o'quvchilarning yozma ko'nikmalarini rivojlantirishda yordam beradi.

4. O'quv resurslarini boshqarish va yangilash

Sun'iy intellekt texnologiyalari o'quv resurslarini boshqarishda ham samarali vosita hisoblanadi. Tizimlar o'quvchilar tomonidan qanday o'quv materiallari ko'proq o'zlashtirilganligini, qaysi mavzular qiziqish uyg'otganligini tahlil qiladi va shu asosda yangi o'quv resurslarini tavsiya qiladi. Shuningdek, tizim eski resurslarni yangilash va yangilarini qo'shish jarayonini avtomatlashtirishga imkon beradi. Natijada, ta'lim muassasalari o'quvchilarga har doim zamonaviy va dolzarb materiallar taqdim eta oladi.

5. Virtual yordamchilar va o'qitish platformalari

Sun'iy intellektga asoslangan virtual yordamchilar o'quvchilarga o'quv jarayonida qo'shimcha yordam ko'rsatadi. Masalan, o'quvchilar o'zlariga tushunarsiz bo'lgan mavzularda virtual yordamchiga murojaat qilib, qo'shimcha tushuntirish yoki materiallar olishi mumkin. Bunday yordamchilar savollarga tezkor javob beradi, o'quvchilar bilan individual ishlaydi va ularning bilim darajasini oshirishda yordam beradi. Shu bilan birga, onlayn o'qitish platformalari SI algoritmlari yordamida o'quvchilar uchun individual o'quv dasturlarini ishlab chiqadi va ularning o'qish jarayonini boshqaradi.

6. Interfaol ta'lim muhitini yaratish

SI texnologiyalari yordamida interfaol ta'lim muhitini yaratish mumkin. Masalan, virtual laboratoriyalar, simulyatsiyalar va o'quv o'yinlari orqali o'quvchilar uchun turli mavzular bo'yicha amaliy mashg'ulotlar tashkil etiladi. Bu usul o'quvchilarni ta'lim jarayoniga faol jalb qiladi, ularning mavzularni yaxshiroq o'zlashtirishiga yordam beradi va ta'limni qiziqarli qiladi. Virtual reallik (VR) va kengaytirilgan reallik (AR) texnologiyalari bilan birgalikda bu yondashuv o'quvchilar uchun yanada samarali ta'lim muhitini taqdim etadi.

7. O'quvchilarning o'zlashtirish ko'rsatkichlarini tahlil qilish

SI yordamida o'quvchilarning o'zlashtirish ko'rsatkichlarini tahlil qilish va bu ma'lumotlar asosida ta'lim jarayonini optimallashtirish mumkin. Masalan, tizim har bir o'quvchining muvaffaqiyatlarini, qiyinchiliklarini va ehtiyojlarini doimiy ravishda kuzatib boradi. Ushbu tahlillar asosida o'quvchilarning samaradorligini oshirish uchun qanday chora-tadbirlar ko'rish kerakligi haqida tavsiyalar beradi. Bu orqali ta'lim jarayoni doimiy ravishda rivojlanib boradi va o'quvchilarning bilim darajasi oshadi.

XULOSA

Yuqorida keltirilgan imkoniyatlar sun'iy intellekt texnologiyalarining ta'lim jarayonini avtomatlashtirish va optimallashtirishda qanchalik samarali ekanligini ko'rsatadi. Ushbu texnologiyalar yordamida o'qituvchilar va o'quvchilarning vaqti tejiladi, ta'lim jarayoni esa yanada sifatli va samarali bo'ladi.

Sanab o'tilgan texnologiyalar ta'lim sohasida katta imkoniyatlar yaratib, o'quv jarayonini zamonaviy va samarali tarzda tashkil qilishda muhim rol o'ynaydi. Ushbu

texnologiyalar ta'lim jarayonini shaxsiylashtirish, o'qitish strategiyalarini takomillashtirish va o'quvchilar muvaffaqiyatini oshirishda katta ahamiyat kasb etadi. Sun'iy intellekt asosidagi adaptiv ta'lim tizimlari har bir o'quvchining individual ehtiyojlarini hisobga olgan holda moslashtirilgan ta'lim dasturlarini taqdim etib, ularning bilim olish jarayonini yanada samarali qiladi. Shuningdek, SI yordamida ishlab chiqilgan intellektual yordamchilar va avtomatlashtirilgan baholash tizimlari o'qituvchilarning vaqtini tejash va ta'lim sifatini oshirishda qo'l keladi.

SI texnologiyalarining ta'limda qo'llanilishi o'qituvchilarga o'quvchilarning bilim darajasini aniq kuzatish, ularning qiyinchiliklarini aniqlash va ularga mos pedagogik yordam ko'rsatish imkoniyatini beradi. Bu esa o'quvchilarning ta'lim jarayoniga qiziqishini oshirish, o'zlashtirish darajasini ko'tarish va umuman ta'lim sifatini yaxshilashga xizmat qiladi.

Kelajakda sun'iy intellektning ta'lim tizimiga integratsiyasi yanada chuqurlashib, yangi innovatsion yondashuvlar va texnologiyalar yordamida ta'lim jarayonini optimallashtirish imkoniyatlarini yaratadi. Raqamli ta'lim platformalari, adaptiv o'qitish tizimlari, virtual va kengaytirilgan haqiqat texnologiyalari kabi ilg'or usullar o'quvchilarga ta'lim olishda yangi ko'nikmalarni egallash va o'zlarini yanada erkin rivojlantirish imkoniyatini taqdim etadi. Shu sababli, sun'iy intellekt texnologiyalarining ta'lim jarayonida keng qo'llanilishi bugungi kunda nafaqat dolzarb, balki kelajak ta'lim tizimining ajralmas qismi hisoblanadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. B. Woolf, "Building Intelligent Interactive Tutors: Student-centered Strategies for Revolutionizing e-learning" Morgan Kaufmann, 2009.
2. S. J. Russell, P. Norvig, "Artificial Intelligence: A Modern Approach" 4th Edition, Pearson, 2020.
3. B. Churcher, "Artificial Intelligence in Education: Promises and Implications for Teaching and Learning" Springer, 2021.
4. B. Edmonds, "Big Data and Learning Analytics in Higher Education: Current Theory and Practice" Springer, 2018.
5. Wang, "Artificial Intelligence in Education: Enhancing the Learning Process" International Journal of Educational Technology in Higher Education, vol. 17, no. 39, 2020.
6. S. Chin, "Adaptive Learning Technologies: From Smart Tutors to Intelligent Classrooms" Educational Technology Research and Development, vol. 66, no. 2, pp. 609-631, 2018.
7. N. I. To'laganov, "Ta'lim tizimida innovatsion texnologiyalar va ulardan foydalanish imkoniyatlari", Toshkent: O'zbekiston Respublikasi Fanlar Akademiyasi Nashriyoti, 2019.
8. X. A. Vahobov, "Sun'iy intellekt texnologiyalari va ularning iqtisodiyotdagi qo'llanilishi", Toshkent: Iqtisodiyot Nashriyoti, 2020.
9. F. F. Kasimov, "Principles of formation of programming competences of 9-grade pupils on the basis of digital technologies". Education and innovative research. №9, 2022.

KICHIK MAKTAB YOSHIDAGI BOLALARNING IJTIMOIIY XUSUSIYATLARI SHAKLLANISHI

*Mamedova Maftuna Muxidinovna, Buxoro Davlat Pedagogika Instituti Maktabgacha ta'lim
kafedrası o'qituvchisi*

maftunamamedova@688gmail.com

Annotatsiya: Ushbu maqolada kichik maktab yoshidagi bolalar ijtimoiylashivuning obektiv va subektiv omillarini aniqlash, hamda bolaning oila va maktab sharoitida ijtimoiylashuvi borasida so'z yuritilgan.

Kalit so'zlar: aqliy faollik, psixik faollik, jismoniy faollik, kichik bog'cha yoshi, katta maktab yoshi, ehtiyojlar.

FORMATION OF THE SOCIAL CHARACTERISTICS OF YOUNG SCHOOL-AGE CHILDREN

*Mamedova Maftuna Muxidinovna, Teacher at the Department of Preschool Education,
Bukhara State Pedagogical Institute*

maftunamamedova@688gmail.com

Abstract: This article discusses the identification of objective and subjective factors of socialization of children of primary school age, as well as the socialization of a child in the family and school environment.

Key words: mental activity, psychic activity, physical activity, kindergarten age, senior school age, needs

ФОРМИРОВАНИЕ СОЦИАЛЬНЫХ ХАРАКТЕРИСТИК ДЕТЕЙ МЛАДШЕГО ШКОЛЬНОГО ВОЗРАСТА

*Мамедова Мафтуна Мухидиновна, Преподаватель кафедры дошкольного образования
Бухарского государственного педагогического института*

maftunamamedova@688gmail.com

Аннотация: В данной статье рассматриваются вопросы выявления объективных и субъективных факторов социализации детей младшего школьного возраста, а также социализации ребенка в семейной и школьной среде.

Ключевые слова: умственная деятельность, психическая активность, физическая активность, дошкольный возраст, старший школьный возраст, потребности.

Kichik maktab yoshi 6-7 yoshdan 9-10 yoshgacha bo'lgan vaqtni o'z ichiga oladi. Bu davr mubaynida bola kichik maktab davri ya'ni ochiqroq qilib aytadigan bo'lsak, boshlang'ich sinf davrini boshidan o'tkazayotgan bo'ladi. Bu davrda bolaning o'qishga, maktabga bo'lgan qiziqishini oshirish, unga muhabbat uyg'ota bilish lozim. Kichik maktab yoshidagi bolalarning eng muhim xususiyatlaridan biri bu uning o'z ehtiyojlariga ega ekanligidir. Bu ehtiyojlarga esa, bolaning o'z portfeli, o'quv qurollari, kitob javoni, dars stoli va shu kabi buyumlarining mavjudligi uning kattalar singari maktabga borishga qiziqishini, istagini oshiradi. Inson borki, u hayoti davomiga o'zini turli ehtiyojlarga moyilligini his etadi. Ushbu ehtiyojlarning mavjudligi ham bola shaxsining rivojlanayotganidan dalolat. Bizga ma'lumki, maktabga o'qish jarayoni 7 yoshdan etib belgilangan. Chunki, bu paytda bola miyasi yaxshigina rivojlangan, u atrofdagi signallarni, yangiliklarni, o'zgarishlarni yaxshi qabul qiladigan yoshda bo'ladi. Shu o'rinda bolani maktabga qabul qilish jarayoni haqida qisqa fikr bildiradigan bo'lsak, bu

paytda bolaning aqliy, jismoniy va psixik jarayonlari tekshiriladi. Ulardan ijobiy natija olingandagina, bola maktabga qabul qilinadi. Lekin, ko'pchilik otaonlarning xohish-istaklari tufayli bola maktabga muddatidan oldin boradi. Buning ham o'ziga yarasha yaxshi va yomon tomonlari mavjud. To'g'ri, ilmga intilishni qanchalik oldin boshlasa, shunchalik yaxshi, albatta. Ammo, ba'zida bu yoshdagi bolalarning psixikasida ruhiy zo'riqish ham kuzatiladi. Buning natijasida bolada horg'inlikni, darslarga yaxshi qatnasha olmasligini va uyga vazifalariga ulgura olmasligini ko'rishimiz mumkin.

Kichik maktab Yoshidagi bolalar tez chalg'iydilar, uzoq vaqt diqqatlarini bir narsaga qarata olmaydilar, tasirchan hamda emotsional bo'ladilar. Maktabda o'qishning boshlanishi 7 Yoshda bo'ladigan ikkinchi fiziologik inqiroz bilan mos keladi (bola organizmida jadal bo'yining o'sishi, ichki organlarning kattalashuvi, vegetativ o'zgarishlar bilan bog'liq bo'lgan keskin endokrin o'zgarishlar ro'y beradi). Bolaning ijtimoiy munosabatlar tizimi va faoliyatidagi kardinal o'zgarishlar uning organizmidagi barcha tizimlar va funksiyalaridagi o'zgarishlarga to'g'ri kelib, boladan kuchli zo'riqish va o'z ichki imkoniyatlaridan to'liq foydalanish zaruriyatini taqozo etadi. Ushbu yoshdagi o'zgarishlar salbiy oqibatlarni olib kelmay, aksincha uning yangi sharoitlarga muvaffaqiyatli moslashuviga yordam beradi. O'qituvchining munosabat uslubi o'quvchining faolligiga bevosita ta'sir ko'rsatadi. Kichik maktab Yoshidagi o'quvchi faolligining asosan uch xil ko'rinishi mavjud bo'lib, bular: jismoniy, psixik va ijtimoiy faollikdir. Jismoniy faollik – sog'lom organizmning harakat qilishga bo'lgan turli mavjud to'siqlarni engishdagi tabiiy ehtiyojidir. Bu Yoshdagi bolalar nihoyatda serharakat bo'ladilar. Kichik maktab davrida o'qish faoliyati bilan shug'ullanish, jumladan, moddiy narsalarning har xil xossalari bilan tanishish sezgilarning o'sishiga katta ta'sir ko'rsatadi. Kichik maktab Yoshidagi o'quvchilarda asosan farq qila olish, ko'rish va eshitish sezgilari ayniqsa tez o'sadi. 7-10 Yoshli bolalarda ranglarning tuslarini sezish 45% ortishi, 10-12 Yoshgacha bolalarda esa 65%gacha ortishi rus olimlari tomonidan aniqlanilgan. Kichik maktab o'quvchilarini rasm chizishga o'rgatish ranglarni farqlash sezgirligining o'sishiga katta ta'sir ko'rsatadi. Ohanglarni farq qilish sezgirligi, ayniqsa bolalarga musiqa va ashula o'rgatish jarayonida kuchli suratda o'sadi. Sezgilarning o'sishida Shuningdek, jismoniy tarbiya mashg'ulotlarining ham ahamiyati katta. Aniq harakat qilishga jalb etuvchi mashqlar bolalarning muskul-harakat sezgilarini o'stiradi. Kichik maktab davriga kelib idrokning hamma turlari asosan ta'lim- tarbiya tufayli mazmun, aniqlik, ravshanlik jihatdan ko'p darajada takomillashadi. Mazkur Yoshdagi bolalar o'z idroklarining aniqligi, ravonligi, o'tkirligi bilan boshqa Yosh davrdagi insonlardan keskin farq qiladi. Ular har bir narsaga berilib, o'ta sinchkovlik bilan qarashlari sababli idrokning muhim xususiyatlarini o'zlashtirish imkoniyatiga ega bo'ladilar. Birinchi sinfga kelgan bola predmetlarning rangi, shakli va kattaligini, ularni maqonda joylashishini bilish bilan, birga ularni taqqoslay oladi. Maktabda muvaffaqiyatli o'qish uchun bola sensor rivojlanganlik darajasining yuqori bo'lishi juda muhim hisoblanadi. Maktab Yoshiga kelib, normal rivojlanayotgan bolalar rasm va suratlar real hayotni aks ettirayotganligini yaxshi tushunadilar. Shuning uchun ham surat va rasmlarda nimalar aks etganini real hayotga

taqqoslagan holda bilishga harakat qiladilar. Bola rasmlarda atrof-hayotdagi narsalarni kichiklashtirib tasvirlanganligini anglay biladi. Bu tasvirlar bolalarda estetik va badiiy didni rivojlantiradi. Chunki, bola shu rasmlar orqali olam go'zalligini, uning turfa ranglardan iborat ekanligini anglaydi, ajratadi va o'z munosabatini bildiradi. Talim-tarbiya jarayonida bolalarda ixtiyoriy idrok va kuzata olish qobiliyati o'sadi. Kuzata bilish muvaffaqiyatli o'qish uchun zarur shartlardan biridir. O'quvchilarda kuzata bilish qobiliyati ularning tafakkuri, irodasi, qiziqish, havaslari bilan birgalikda o'sib boradi. Bu Yoshdagi o'quvchilar o'z idroklarini mustaqil idora eta oladilar. Boshlang'ich sinf o'quvchilari katta Yoshdagi odamlardan deyarli qolishmasdan to'g'ri chiziqni ko'z bilan chamalab teng ikki bo'lakka bo'la oladilar, narsa va chiziqlarni katta-kichikligiga qarab taqqoslay oladilar, narsalarning fazoda turgan o'rnini, ularning qaysi biri yaqinroq yoki uzoqroq, qaysi biri balandroq yoki pastroq joylashganini ko'z bilan chamalab, shu masofani bosib o'tish uchun talab qilinadigan vaqtni ham taxminan hisoblay oladilar. Kichik maktab yoshidagi bola shaxsining ijtimoiy faolligini rivojlantirish maktab ta'limini modernizatsiya qilishning strategik yo'nalishlaridan biridir. Kichik maktab yoshi 7 yoshdan 11 yoshgacha davom etadi. Bola rivojlanishining ijtimoiy holati jiddiy o'zgarishga uchraydigan bosqichi. Bu davrda u maktabga ya'ni ta'lim dargohiga chiqadi va uning zimmasiga ma'lum qoidalarga amal qilish, vazifalarni bajarish kabi ma'suliyatlar tushadi. Ijtimoiylashuvda muhim odamlar sifatida tengdoshlarning ahamiyatini ham ta'kidlab o'tmoq kerak. Tengdoshlar shaxsiyat ijtimoiylashuvsining alohida agentlari sifatida ajralib turadi. Nima uchun ular bolaning rivojlanishi uchun juda muhim? O'spirin va undan katta yoshdagi odam o'zini qiziqtirgan ma'lumotlarga.

Bu kattalar tomonidan emas, balki tengdoshlar tomonidan to'liq ta'minlanishi mumkin. Shu sababli, qiziqish guruhlari shakllantirilib, ularda shaxsiyat rivojlanishda davom etadi. Ba'zi bolalar sinflar ichida o'ziga o'xshagan do'stlar bilan tez til topishishadi, bunda ularning o'zaro qiziqish, dunyoqarashlarining mos kelishi sabab. Ota-onalar bolani noto'g'ri sozlangan submultural guruhlar ta'siriga tushib qolmasligi uchun boshqarishi kerak. Pedagog esa ota-onalarga nisbatan kichik maktab yoshidagi bola shaxsiyatini rivojlantirishga juda katta ta'sir kuchiga ega. Pedagogning har bir o'rgatgan bilimlarini kichik maktab yoshidagi bolalar tomonidan haqiqatligiga ishonishlik, ularga taqlid qilishlik, topshirilgan vazifalarni mehr va muhabbat bilan bajarishlik kabi psixologik xususiyatlar boshlang'ich ta'limning muhim shartlaridan biridir. Shu bilan birga, ushbu xususiyatlar bolalar tarbiyasidagi ilk axloqiy va madaniy sifatlarning shakllanishi bilan bog'liq jarayon hisoblanadi. Kichik maktab davrida bolaning boshqa insonlar bilan munosabatlarida katta o'zgarishlar ro'y beradi. Bolaning muloqoti endi aniq maqsadga qaratilgan bo'ladi. Bunga sabab bir tomondan o'qituvchining faol ta'siri bo'lsa, ikkinchi tomondan o'quv jamoasining ko'rsatadigan ta'siridir. Kichik maktab yoshidagi o'quvchilar sinfida jamoa bilan muloqot qilish jarayonida turli darajadagi o'quvchilar bor: gipermuloqotchan (sergap) bolalardan dars holatidan qo'rqadigan: javob berishga uyaladigan, tortinchoq yoki darsga quloq solmaydigan o'quvchilar ham bo'lishi mumkin. Ularda maktab davrigacha oilada, bog'chada muloqot ko'nikmalari shakllangan bo'ladi.

Masalan, bola yoshligidan oilasi davrasida salomlashish, minnatdorchilik bildirish kabi muloqot ko'nikmalarini o'zida shakllantiradi. Ammo maktab jamoasiga kirishib ketish, o'z tengdoshlari bilan muloqot olib borish sekin amalga oshadi. Ular avvalo, birbirlarining hatti-xarakatlarini kuzatishadi, o'zaro bir-birlariga nisbatan taqlid qilishadi. Ayrim kichik maktab yoshidagi o'quvchilar maktabda, tengdoshlari oldida muloqot qilishdan uyalishadi, o'zlarini chetga tortishadi, lekin ular oilasi davrasida erkin o'z fikrini bimalol bayon qilishadi. Kichik maktab yoshdagi bolalar qiziqishi, iqtidori, individual talanti, ruhiy va jismoniy xususiyatlari, madaniy ehtiyojlarini inobatga olgan holda hamda bolada ma'naviy me'yorlarni shakllanishi, hayotiy va ijtimoiy tajriba egallanishini ko'zda tutgan bolalarni har tomonlama rivojlantirishga qaratilgan jarayon hisoblanadi. Kichik maktab yoshdagi bolalarni jismoniy tarbiyasni rivojlantirish, muammolarini hal etishning yangi yo'llarini izlash, birinchidan, ko'rsatilgan ziddiyatlarni hal etish zarurati bilan, ikkinchidan, o'sib kelayotgan yosh avlodning jismoniy tayyorgarligi hamda psixik rivoji jarayonini takomillashtirish qonuniyatlarini, metodologik va usubiy sharoitlarini o'rganish zarurati bilan bog'liq holda amalga oshiriladi.

Kichik maktab yoshidagi bolalarda yurush, yugurish, sakrash, uloqtirish, konkida yurush yugurush, suzush hayot uchun kerak bo'ladigan eng oddiy harakat malakalarni rivojlantirishdir. Bu harakatlarni bolalar tez o'zlashtiradi, sababi-ularning asab tizimi yuqori darajada egiluvchandir. Kichik maktab yoshidagi bolalarga mashq berishdan oldin ularga o'sha mashqlarni ahamiyati, bajarish texnikasi, harakatli o'yin qoidalari tanani tarbiyalashni ayrim elementlari haqida tushuncha berib borish lozim. Mazkur maqsadni ro'yobga chiqarish uchun ularda, odatda, jismoniy mashqlar va harakatli o'yinlardan iborat bo'lgan keng o'quv materiallari taqdim etilgan. Kichik maktab yoshidagi davrda bolalar badiiy-estetik rivojlanishda katta imkoniyatlariga ega bo'ladilar. Bolalar odatda rasm chizishga, loy yoki plastilindan narsa yasash Kichik maktab yoshidagi bolalar uchun mehnatning tarbiyaviy ahamiyati kattadir. Biroq shuni takidlab o'tish lozimki, har qanday mehnat ham shaxsda ijtimoiy jihatdan qimmatli hislatlarini tarbiyalayvermaydi. Bolalar o'z-o'ziga xizmat qilish va o'zlari uchun foydali bo'lgan narsalarni tayyorlash bilan shug'ullanayotganlarida ularda mehnatsevarlikni tarbiyalashga xususan zo'r e'tibor berish kerak. Kichik maktab yoshidagi o'quvchilarni sekin-asta ko'pchilik foydasiga qaratilgan, boshqalar uchun bo'lgan ijtimoiy-foydali mehnatga jalb etish juda muhimdir. O'quv faoliyati kichik maktab yoshidagi o'quvchi uchun nafakat bilish jaraenlarining yuqori darajada rivojlanishi . balki shaxsiy xususiyatlarini rivojlantirish uchun ham imkoniyat yaratadi.

Shuni aloxida ta'kidlash lozimki yetakchi bo'lgan o'quv faoliyatidan tashkari boshqa faoliyatlar-uyin, mulokot va mehnat faoliyatit ham o'quvchi shaxsi rivojiga bevosita ta'sir kursatiadi. Shuningdek bu faoliyatlar asosida muvafakkiyatga erishish motivlari bilan bog'liq bo'lgan shaxsiy xususiyatlar tarkib topa boshlaydi. O'quv faoliyati kichik maktab yoshidagi bolalarda o'qishda ma'lum yutuklarga erishish ehtiyojini kondirishga ,shuningdek tengdoshlari orasida uz urniga ega bulishiga imkoniyat ham yaratadi. Aynan ana shu urin yoki mavkega erishish uchun ham bola yaxshi o'qish uchun

xarakat kilishi mumkin. Bu yoshdangi bolalar doimiy ravishda uzlari erishgan muvaffakkiyatini boshka tengdoshlari muvaffakkiyati bilan solishtiradilar. Ular uchun doimo birinchi bulish nixoyatda muxim .Kichik maktab davrida bolalardagi musobakaga kirishish motivi tabiiy psixologik extiyoj hisblanib bu motiv ularga kuchli emotsional zurikishni beradi. Bu xususiyatlar aslida bogcha davridan boshlab yuzaga kela boshlaydi va kichik maktab davrida, shuningdek o'smirlik davrida ham yakkol kuzga tashlanadi. Kichik maktab yoshidagi bolalar kattalarning u xakidaga fikr va baxolariga karab uzlariga uzlari baxo beradilar. O'quvchining uziga uzi beradigan baxosi asosan tugridan tugri o'qituvchining beradigan baxosiga va turli faoliyatlaridagi muvaffakkiyatlariga boglik.

Kichik maktab yoshidagi o'quvchilarda uz uziga beradigan baxolari turlicha –yukori , adekvat, past bulishi mumkin. Bu yoshdagi bolalarda mavjud bo'lgan ishonuvchanlik, ochiklik, tashki ta'sirlarga beriluvchanlik, itoatkorlik kabi xususiyatlari ularni shaxs sifatida tarbiyalash uchun yaxshi imkoniyat yaratadi. Kichik maktab yoshi davrini bolaning turli faoliyatlarda muvaffakkiyatga erishishini belgilab beruvchi asosiy shaxsiy xususiyatlarni yuzaga kelish va mustahkamlash davri deb hisoblash mumkin. Bu davrda muvaffakkiyatga erishish motivlari tarkib topish bilan bir katorda mehnatsevarlik va mustaqillik kabi sifatlar rivojlanadi. Kichik maktab yoshidagi o'quvchilarda mehnatsevarlik asosan o'qish va mehnat faoliyatida rivojlanadi va mustahkamlanadi. Mehnatsevarlik bolada uz kilayotgan mehnati unga zavk bergan takdirdagina yuzaga keladi. Bolada mustaqillik xusuiyatining shakllanishi asosan kattalarga boglik. Agar bola xaddan ziyod ishonuvchan, itoatkor, ochiq xususiyatli bulsa unda asta sekinlik bilan buysinuvchanlik mustaqil bo'la olmaslik xususiyati mustahkamlana boradi. Lekin bolani vaqtli mustaqillikga undash unda quloqsizlik yopiqlikni shakllanishiga olib keladi va hayotiy tajribalarni asosan kimlargadir taklid qilgan xolda uzlashtiradi

Mustaqillikni shakllantirish uchun bolaga mustaqil bajaradigan ishlarni ko'proq topshirish va unga ishonch bildirish nihoyatda muhimdir. Shuningdek shunday bir ijtimoiy psixologik muhit yaratish kerakki, unda bolaga biron bir ma'sul vazifani mustaqil bajarishni topshirish, bu ishni bajarish jarayonida bola o'zini tengdoshlari, kattalar va boshqa odamlarning lideri deb his qilsin .Ana shu his bolada mustaqil bulishga undovchi motivlarni yuzaga keltiradi. Kichik maktab yoshidagi o'quvchilarni har tomonlama yetuk, go'zal axloqli, xush odobli inson qilib kamol toptirish hozirgi kunning muhim vazifalaridan biridir. Chunki bu narsa milliy qadriyat va ruhiyatni tiklash jarayonida ta'lim va tarbiya samaradorligini oshirish masalasidan kelib chiqadi. O'quv faoliyati kichik maktab yoshidagi o'quvchi uchun nafaqat bilish jarayonlarining yuqori darajada rivojlanishi, balki shaxsiy xususiyatlarining rivojlanishi uchun ham imkoniyat yaratadi. Maktabgacha ta'lim tashkiloti o'zining asosiy vazifasi etib har bir bolashaxsini maksimal rivojlantirish va uni keyingi rivojlanish bosqichiga tayyorgarligini ta'minlash maqsadida tashkilotda ijobiy psixologik mikroklimat vasharoit yaratishni belgilaydi. Maktabgacha yoshdagi bolalarning oilada o'z "men"ini anglashi juda muhim hisoblanadi. Pedagoglar va psixologlar oila muammolarini, uning an'ana va udumlarini, bola shaxsining shakllanishida oilaning ta'sirini ko'plab tadqiqotlarda o'rganganlar. Bola ota – onaning

faqatgina tarbiyaviy ta'sir etish mahsuli emas. U o'z oilasini o'zicha tushunadi va qabul qiladi.

Oiladagi o'z o'rnini o'zaro aloqada belgilaydi va oilada o'zini shaxs sifatida anglaydi. Bolalar oilada ro'y berayotgan hodisalarga kattalarga nisbatan boshqacha baho beradilar. Biz qachonki atrofimizdagi olamni bola ko'zi bilan ko'rishga o'rganib olganimizdan so'nggina, ularni to'g'ri tushunamiz, hayajonlariga, qayg'ulariga yordam bera olamiz. Bugungi maktabgacha pedagogikada maktabgacha yoshdagi bolalarning oilada bolani shaxs sifatida idrok etilishi va uning ijtimoiy xususiyatlari taraqqiyotiga ta'siri, oila a'zolarining o'zaro munosabatlari doirasida ijtimoiy roller haqidagi tasavvurlar shakllanishi, kattalarga taqlid orqali muloqot ko'nikma malakalarining tarkib topishi kabi masalalar o'rganilmoqda.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI :

1.O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Maktabgacha ta'lim tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-361 sonli qarori-T: 2018-yil 9sentyabr.2.Sodiqova Sh.A. "Maktabgacha pedagogika" Fan va texnologiya. T.2017-yil.

2. Maftuna M. OILADA MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALARNING SHAXS XUSUSIYATLARINI SHAKILLANTIRISH //Involta Scientific Journal. – 2022. – T. 1. – №. 4. – C. 266-274.

3. Muhidinovna M. M. OILADA MAKTABGACHA VA KICHIK MAKTAB YOSHDAGI BOLALARNING IJTIMOIIY XUSUSIYATLARINI SHAKILLANTIRISH //BOSHQARUV VA ETIKA QOIDALARI ONLAYN ILMIY JURNALI. – 2022. – T. 2. – №. 2. – C. 103-107.

4. Muhidinovna M. M. Preschool Education System and Family Cooperation in the Formation of Social Characteristics //EUROPEAN JOURNAL OF INNOVATION IN NONFORMAL EDUCATION. – 2022. – T. 2. – №. 2. – C. 267-270.

5. Mamedova M. MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALARNING IJTIMOIIY XUSUSIYATLARINI SHAKLLANTIRISHDA TARBIYANING O'RNI //ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ (buxdu. uz). – 2021. – T. 8. – №. 8.

HAMKORLIKDA O'QITISHNI RAQAMLI TEXNOLOGIYALAR ORQALI TAKOMILLASHTIRISH IMKONIYATLARI

Ashurova Dildora G'afurovna, Buxoro davlat pedagogika instituti tayanch doktoranti

dildoraashurova21@gmail.com

Annotatsiya: Ushbu maqolada raqamli texnologiyalarni ta'lim jarayoniga integratsiyalash orqali hamkorlikda o'qitish va yozishni rivojlantirish imkoniyatlari tahlil qilinadi. Hamkorlikda o'qitishning nazariy asoslari va ijtimoiy o'zaro bog'liqlik tamoyili asosida qurilgan metodlarning samaradorligi ilmiy manbalar asosida bayon etiladi. Maqolada Google Docs, Padlet, Notion, Miro kabi zamonaviy onlayn platformalarning funksiyalari va dars jarayonidagi roli yoritilgan. Tadqiqotda texnologiyalarning o'quvchilarda fikr almashinuvi, muloqot va ijodiylikni rivojlantirishdagi o'rni ta'kidlanadi.

Kalit so'zlar: Hamkorlikda o'qitish, raqamli texnologiyalar, onlayn platformalar, ijtimoiy o'zaro bog'liqlik, Google Docs, yozma hamkorlik.

ВОЗМОЖНОСТИ УЛУЧШЕНИЯ СОВМЕСТНОГО ОБУЧЕНИЯ С ПОМОЩЬЮ ЦИФРОВЫХ ТЕХНОЛОГИЙ

Ашурова Дилдора Гафуровна, Докторант Бухарского государственного педагогического института

dildoraashurova21@gmail.com

Аннотация: В данной статье рассматриваются возможности развития совместного обучения и письма посредством интеграции цифровых технологий в образовательный процесс. На основе теории социальной взаимозависимости анализируется эффективность методов, построенных на принципах сотрудничества. В статье освещаются функции современных онлайн-платформ, таких как Google Docs, Padlet, Notion и Miro, и их роль в учебной деятельности. Подчеркивается значимость технологий в развитии у учащихся навыков общения, обмена идеями и творческого мышления.

Ключевые слова: Совместное обучение, цифровые технологии, онлайн-платформы, социальная взаимозависимость, Google Docs, коллективное письмо.

OPPORTUNITIES FOR IMPROVING COOPERATIVE LEARNING THROUGH DIGITAL TECHNOLOGIES

Ashurova Dildora G'afurovna, Doctoral Candidate, Bukhara State Pedagogical Institute

dildoraashurova21@gmail.com

Abstract: This article explores the potential of enhancing cooperative learning and writing through the integration of digital technologies in the educational process. Based on the theory of social interdependence, the effectiveness of collaborative methods is discussed. The article highlights the functionality and educational role of modern digital tools such as Google Docs, Padlet, Notion, and Miro. The study emphasizes how these technologies support communication, idea exchange, and creativity among students.

Keywords: Cooperative learning, digital technologies, online platforms, social interdependence, Google Docs, collaborative writing, modern education.

Kirish: Hamkorlikda o'qitishning nazariy asoslari

Hamkorlikda o'qitish ijtimoiy o'zaro bog'liqlik nazariyasiga asoslanadi (Deutsch, 1949; Johnson & Johnson, 1989). Ushbu nazariyada o'zaro bog'liqlikning uch shakli farqlanadi: musbat (hamkorlik), manfiy (raqobat) va nisbatan mustaqil (individual). Musbat o'zaro bog'liqlikda guruh a'zolari faqat barcha birgalikda muvaffaqiyatga erishgan taqdirdagina maqsadga yetishish mumkin deb hisoblaydi. Manfiy bog'liqlik esa boshqalarning muvaffaqiyatsizligidan foyda ko'rishga asoslanadi, individual yondashuvda esa shaxs o'z maqsadiga boshqalardan qat'i nazar erishishga intiladi.

Ushbu nazariyaning asosiy g'oyasiga ko'ra, o'zaro bog'liqlik qanday tashkil etilgan bo'lsa, ishtirokchilar o'rtasidagi muloqot shunga mos shakllanadi. Musbat bog'liqlik o'zaro yordam, qo'llab-quvvatlash va ijobiy munosabatlarni kuchaytiradi; manfiy bog'liqlik qarama-qarshilik va to'siqlarga olib keladi; hech qanday bog'liqlik bo'lmagan holatda esa ishtirokchilar bir-biriga befarq bo'lishadi. Tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, musbat bog'liqlik nafaqat bilim olish samaradorligini oshiradi, balki o'quvchilar o'rtasida ijobiy munosabatlar va psixologik farovonlikni ham rivojlantiradi.

Ko'plab tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, hamkorlikka asoslangan faoliyatlarda to'g'ridan-to'g'ri (yuzma-yuz) muloqot onlayn muloqotdan samaraliroq bo'ladi (Johnson va Johnson, 2013). Garchi elektron muloqotning kamchiliklari ko'p muhokama qilinaётgan bo'lsa-da, texnologiyalar hamkorlikni rivojlantirishda qanday qulayliklar yaratishi haqida yetarlicha fikr yuritilmagan.[1]

Assosiy qism Johnson o'zining maqolasida ushbu fikrni bundan o'n yil avval ilgari surgan bo'lsa-da, bugungi kunda raqamli texnologiyalarning ta'limdagi o'rni va samaradorligi ilmiy jihatdan tobora ko'proq isbotlanmoqda. So'nggi yillardagi izlanishlar va amaliy tajribalar shuni ko'rsatmoqdaki, o'quvchilarning darsdagi ishtirokini oshirish, muloqot va hamkorlik ko'nikmalarini shakllantirish, turli tipdagi o'quvchilar ehtiyojiga mos metodlarni joriy etishda texnologiyalar muhim vosita bo'lib xizmat qilmoqda. Shunday ekan, texnologiyalarning dars jarayoniga integratsiyalashuvi nafaqat dolzarb, balki ta'lim samaradorligini oshiruvchi asosiy omillardan biri sifatida qaralmoqda.

Aynan texnologiyalar 21-asr ta'limida hamkorlikda o'qitish usullarini tubdan yangilashi mumkin. Texnologiyalar orqali o'qish, yozish, muhokama qilish kabi asosiy ko'nikmalarni rivojlantirish osonlashadi. Shuningdek, hisobotlarni taqdim etish, muhim voqealarni yoritish va multimedaviy loyihalarni yaratish jarayoni ham boyitiladi. Bundan tashqari texnologiyalar o'quvchilar o'rtasidagi muloqotni kengaytiradi, guruh a'zolari birgalikda ishlash usullarini o'zgartiradi, izlanish loyihalarini samarali tuzishga yordam beradi. Har bir guruh o'z veb-sahifasini yaratishi, simulyatsion jarayonlarda ishtirok etishi mumkin. Eng muhimi, texnologiyalar orqali o'qituvchilar har bir o'quvchi va guruh faoliyatini kuzatib borishi, darslarni samarali boshqarishi va ta'limiy hamjamiyatlar shakllantirishi mumkin.

Shu nuqtai nazardan kelib chiqib, samarali hamkorlik uchun zarur bo'lgan vositalarni – xususan, raqamli texnologiyalardan oqilona foydalanish ko'nikmalarini – o'quvchilarga o'rgatish o'qituvchining muhim vazifasidir. Biroq ko'plab o'qituvchilar uchun bu jarayon murakkab bo'lishi mumkin. Sababi, ayrim hollarda texnologiyani hamkorlikda o'qitish maqsadida qo'llash tajribasi yetarli bo'lmaydi yoki bu usullarni sinfda qanday va qachon ishlatish lozimligi borasida aniqlik yetishmaydi.

Mazkur muammoning samarali yechimlaridan biri – o'qituvchilarning malakasini oshirish bo'yicha mashg'ulotlarda raqamli hamkorlikni bevosita namoyish qilishdir. O'qituvchilar raqamli vositalarni qanday integratsiya qilish mumkinligini amalda ko'rganlarida, ular o'z ta'lim jarayonlarida bunday yondashuvlarni ishonch bilan qo'llay olishadi.

Ba'zi o'qituvchilar raqamli texnologiyalarni qo'llashda qiynalganliklarini tan olib, ularning haddan tashqari ko'p integratsiyasi o'qituvchilar charchoqlarining asosiy sabablaridan biri bo'layotganini ta'kidlaydilar. Dars jarayoniga texnologiyalarni joriy etish ko'plab murakkabliklarni keltirib chiqargan, sun'iy intellekt asosidagi vositalar – masalan, ChatGPT kabi tizimlar – esa bu masalani yanada dolzarb va bahsli holga keltirgan. O'qituvchilarda texnologiyalarga nisbatan paydo bo'lgan qo'rquv ularning bu

vositalarni sinfga olib kirishdan bosh tortishiga sabab bo'lmoqda. Bu holat, ehtimol, bir nechta omillar bilan bog'liq: o'zgarishlardan cho'chish, yetarli tayyorgarlikning yo'qligi, texnologiyaning samaradorligiga shubha, yangiliklarga moslashishdagi qiyinchiliklar va o'quv jarayonining tez sur'atda o'zgarib borishi. Bunday to'siqlarni yengib o'tish uchun esa – o'zaro hamkorlik va doimiy muloqot muhim vositalardir.

Texnologiyalarning o'quvchilar bilim olishiga ta'siri

Hozirgi yosh avlod texnologiyalar bilan ulg'aymoqda va ko'pincha ularni ishlatishda o'zini erkin his qiladi. Agarda biz o'quvchilarning ijodiy va mustaqil fikrlashi rivojlanadigan samarali o'quv muhiti yaratmoqchi bo'lsak, ularga texnologiyalardan foydalangan holda bilim olish imkoniyatini taqdim etishimiz zarur. Bu esa o'qituvchilardan har bir texnologiyani mukammal bilishni talab etmaydi, ammo ular zamonaviy vositalarni kundalik darslarda qo'llashga tayyor bo'lishi lozim.

Ko'plab hollarda o'qituvchilar o'zlarining texnologiyaga bo'lgan bilimi o'quvchilarnikidan kam deb o'ylashadi. Bu har doim ham haqiqatga mos kelmaydi. Talabalar ayrim qurilmalar yoki ilovalarni ishlata olishlari mumkin, biroq ular ham texnologiyadan to'laqonli foydalanishni bilmasligi mumkin. Shunday vaziyatda o'qituvchi va o'quvchi birgalikda raqamli vositalarni o'rganishga harakat qilsa, bu jarayon ikkala tomon uchun ham samarali va foydali bo'ladi.

O'qituvchi va o'quvchilarning raqamli texnologiyalarni birgalikda o'rganishi ta'lim jarayonini zamonaviy, moslashuvchan va samarali qilishda muhim omil hisoblanadi. Onlayn kurslar, simulyatsiyalar, virtual haqiqat vositalari va o'yinlashtirish elementlari yordamida bilim olish jarayoni yanada chuqurlashadi, o'quvchilar faol ishtirok etishga undaladi, o'qituvchilar esa yangicha metodlarni sinab ko'rish imkoniyatiga ega bo'lishadi. Texnologiyalar o'quvchilarning ehtiyojiga mos yondashuvlarni joriy etishga, axborotga tezkor kirishga va mustaqil o'rganishga xizmat qiladi. Raqamli vositalar baholash tizimini soddalashtiradi, konstruktiv fikr-mulohazalar almashinuvini kuchaytiradi va moslashtirilgan yondashuvlarga yo'l ochadi. Texnologik darslar qiziqarli, dinamik bo'lib, o'quvchilarda raqamli savodxonlik, tahliliy fikrlash va zamonaviy ko'nikmalarni shakllantirishga yordam beradi. Shu bilan birga, bu jarayon umrbod, uzluksiz ta'limga intilish, global muloqotga tayyorlik va doimiy yangilanish madaniyatini rivojlantiradi.

Texnologiyalarni muvaffaqiyatli integratsiya qilish yo'li

Ta'lim jarayoniga texnologiyalarni muvaffaqiyatli kiritish puxta rejalashtirish va doimiy qo'llab-quvvatlovni talab etadi. Texnologiya barcha an'anaviy uslublarning o'rnini bosmasligi kerak – aksincha, ularni to'ldirishi lozim. An'anaviy va raqamli metodlar o'rtasida muvozanat saqlangan holda tashkil etilgan ta'lim o'quvchilar uchun turli imkoniyatlarni yaratadi. O'qituvchi va o'quvchi o'zaro birga o'rganar ekan, bu hamkorlik ularning fikrlashini kengaytiradi, sun'iy intellekt va yangi texnologiyalarni o'quv jarayoniga samarali kiritish imkonini beradi.[2]

Quyida biz zamonaviy raqamli texnologiyalar yordamida hamkorlikda o'qitish va yozishni rivojlantirishga xizmat qiluvchi onlayn vositalar haqida ma'lumot beramiz. Ushbu vositalar o'quvchilar o'rtasida muloqot va hamkorlikni kuchaytirish, fikr almashish, birgalikda yozma topshiriqlar bajarish va bilim almashishni samarali tashkil etishga xizmat qiladi.

Hamkorlikda o'qish (Cooperative Reading)

Texnologiyalar bir xil yoki o'zaro bog'liq matnlarni guruhda hamkorlikda o'qishni

osonlashtiradi. Bugungi kunda o'quvchilar raqamli formatda taqdim etilgan **elektron kitoblar** yordamida bilimlarini mustahkamlashlari, muhim joylarni belgilash va izoh qoldirish orqali **hamkorlikda o'qish** jarayonida faol ishtirok etishlari mumkin Masalan:

- **Kindle** – Amazon tomonidan ishlab chiqilgan elektron kitob o'qish qurilmasi bo'lib, u turli formatdagi matnlarni saqlash, o'qish, belgilash va izoh qoldirish imkonini beradi.

- **Nook** – Barnes & Noble kompaniyasining raqamli kitob o'qishga mo'ljallangan qurilmasi bo'lib, foydalanuvchilarga kitoblarni yuklab olish va elektron kutubxonaga ega bo'lish imkonini beradi.

- **iPad** – Apple kompaniyasi tomonidan yaratilgan ko'p funksiyali planshet bo'lib, u nafaqat o'qish, balki yozish, chizish, video tomosha qilish va ilovalardan foydalanishga ham xizmat qiladi.

Bu kabi qurilmalar (masalan, **Inkling** ilovasi bilan) orqali hamkorlikda ishlovchi guruh a'zolari o'qiyotgan kitoblaridan iqtiboslarni o'zaro ulashishlari, muhim deb hisoblangan joylarni belgilangani holda ko'rsatishlari va matnga izohlar qoldirishlari mumkin. Boshqa guruh a'zolari esa ushbu izohlarni o'qib, o'z fikrlarini bildiradilar. Shuningdek, ba'zi o'quvchilar o'qigan matn parchalari ijtimoiy tarmoqlar — **Twitter** va **Facebook** orqali bo'lishilishi orqali muhokamani kengaytirishlari mumkin.

Hamkorlikda yozish (Cooperative Writing)

Hamkorlikda yozishni samarali tashkil etish uchun o'qituvchilar va talabalar turli raqamli vositalardan foydalanishlari mumkin. Eng mashhur va qulay platformalardan biri – Google Docs bo'lib, u real vaqt rejimida birgalikda matn yozish, izoh qoldirish va tahrir qilish imkonini beradi. Biroq, Google Docs'dan tashqari ham turli funksiyalarga ega bo'lgan bir nechta onlayn vositalar mavjud. Masalan, Microsoft Word Online akademik matnlar bilan ishlashda, Etherpad esa tezkor izoh va muhokamalar uchun foydalidir. OnlyOffice kengaytirilgan ofis hujjatlari ustida ishlash imkonini bersa, Zoho Writer grammatik tekshiruv va soddalashtirilgan interfeys bilan ajralib turadi. Shuningdek, Notion va Miro platformalari loyiha asosida yozilgan matnlar, fikr xaritalari va vizual taqdimotlar yaratish uchun qo'llaniladi. Padlet esa taxtacha uslubida tashkil etilgan muhokama platformasi bo'lib, o'quvchilarning o'z fikrlarini erkin ifoda etishiga xizmat qiladi. Quyidagi jadvalda ushbu vositalarning qisqacha tavsifi va ta'limda qo'llashga doir tavsiyalari keltirilgan.

Hamkorlikda Yozish Vositalari

Quyidagi jadvalda hamkorlikda yozishni qo'llab-quvvatlovchi mashhur onlayn platformalar, ularning qisqacha tavsifi va qaysi turdagi topshiriqlar uchun mos kelishi haqida ma'lumotlar keltirilgan.

Platforma nomi	Tavsifi	Tavsiya etiladi
Google Docs	Real vaqt rejimida matn yozish, izoh qoldirish va kuzatuv funksiyasi bilan	Hamkorlikda insho, maqola yoki hujjat yozish
Microsoft Word Online	Word formatida onlayn ishlash, birgalikda tahrirlash va chat imkoniyatlari	Akademik hujjatlar yoki rasmiy tahrirlar

Etherpad	Engil va oddiy interfeys, har bir foydalanuvchi rang bilan ajratiladi	Tezkor muhokamalar, fikr almashish
OnlyOffice	Word, Excel, PowerPoint formatlarida birgalikda ishlash imkoniyati	Kengaytirilgan hujjat muharriri kerak bo'lganda
Zoho Writer	Tarkibiy yozuvlar uchun qulay, avtomatik grammatik tekshiruv va eksport funksiyasi	Yozma topshiriqlarni baholash bilan birga
Notion	Matn, jadval, ro'yxat, vazifa va media kontentlar bilan ishlashga qulay	Loyiha va reja asosida yozuvlar uchun
Miro	Vizual xaritalar, diagrammalar, loyiha taxtalari uchun mos	Kollektiv vizual rejalashtirish yoki dars dizayni uchun
Padlet	Textacha uslubidagi yozuvlar, o'quvchilar fikr almashishi uchun qulay	Muhokama, tahlil va javob yozuvlari uchun

Hamkorlikda o'qitishda raqamli texnologiyalarning qo'llanilishi: muhim yo'nalishlar

Raqamli texnologiyalar hamkorlikda o'qitish jarayonini yanada interaktiv, qiziqarli va samarali qilish imkonini beradi. Ular o'quvchilarning fikr almashish, loyihalar ustida birgalikda ishlash, resurslarga tezkor kirish va o'zaro bog'lanishni kuchaytiradi. Quyida texnologiyalar qo'llanishining asosiy yo'nalishlari keltirilgan:

1. **Muhokama va fikr almashinuvi:** Guruh a'zolari mobil messenjerlar, videokonferensiyalar (Zoom, Skype) va ijtimoiy tarmoqlar (Facebook, Twitter) orqali darsdagi muhokamalarni davom ettirib, o'z fikrlarini istalgan vaqtda bo'lishishlari mumkin.

2. **Hisobot va taqdimotlarni boyitish:** Flickr, Canva yoki Google Slides kabi vositalar yordamida guruhlar rasmlar, vizual elementlar va sharhlar bilan boyitilgan hisobotlar va taqdimotlar tayyorlashlari mumkin.

3. **Multimediaviy loyihalar:** O'quvchilar video, animatsiya, slayd-shou, ovozli taqdimot yoki sahnalashtirilgan chiqishlar tayyorlash orqali o'z loyihalarini ko'rgazmali va qiziqarli tarzda taqdim etishadi. Tayyorlangan videolarni YouTube kabi platformalarda ulashish mumkin.

4. **Loyihaviy tadqiqotlar va real voqealarni tahlil qilish:** CoverItLive, bloglar va muhokama platformalari orqali siyosiy nutqlar, dunyo yangiliklari yoki tarixiy hodisalar guruh bo'lib tahlil qilinadi.

5. **Onlayn o'yinlar va simulyatsiyalar:** The Sims yoki Civilization kabi veb-simulyatsion o'yinlar o'quvchilarga bir-biri bilan hamkorlikda ishlash, muammolarni hal qilish va boshqa madaniyatlar bilan tanishish imkonini beradi.

6. **WebQuest va saytlar yaratish:** WebQuestlar orqali o'quvchilar birgalikda tadqiqotga yo'naltirilgan topshiriqlarni bajarishadi. Shuningdek, guruh sahifalari va veb-saytlar (Google Sites, Wikis) yaratish orqali o'z faoliyatlarini keng auditoriyaga namoyish qilishadi.

7. **Resurslar va baham ko'rish tizimlari:** Google Bookmarks, Diigo kabi ijtimoiy saqlash platformalari o'quvchilarga foydali havolalarni to'plash, baham ko'rish va birgalikda ishlash imkonini beradi.

8. **Kurs boshqaruvi tizimlari (LMS):** Moodle, Blackboard, Google Classroom kabi platformalar o'qituvchilarga materiallar joylashtirish, onlayn muhokamalar tashkil etish va o'quvchilar faoliyatini boshqarish imkonini beradi.

Xulosa

Xulosa qilib aytganda, raqamli texnologiyalarning ta'lim jarayoniga jadal kirib kelishi, ayniqsa, hamkorlikda o'qitish metodlarining samaradorligini oshirishda muhim omilga aylandi. O'quvchilarning bir-biri bilan fikr almashishi, birgalikda muhokama olib borishi, matnlar ustida ishlashi va loyihaviy faoliyatlar tashkil etishi texnologik vositalar orqali yanada interaktiv va samarali tus olmoqda. Johnson va Johnson (2014) tomonidan ilgari surilgan g'oyalardan kelib chiqilsa, o'zaro bog'liqlik va hamkorlik asosida qurilgan dars jarayonlari o'quvchilarda nafaqat bilim, balki ijtimoiy-psixologik ko'nikmalarni ham shakllantirishga xizmat qiladi.

Google Docs, Zoho Writer, Etherpad, Padlet, Notion kabi platformalar esa ushbu jarayonni texnik jihatdan qo'llab-quvvatlab, o'qituvchi va o'quvchilar o'rtasidagi hamkorlikni yangi bosqichga olib chiqadi. Shunday ekan, zamonaviy ta'limda o'qituvchilarning texnologik savodxonligini oshirish va mavjud vositalardan maqsadli foydalanish — ta'lim sifatini oshirishning ustuvor yo'nalishlaridan biri hisoblanadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1) Johnson, D. W., & Johnson, R. T. (2014). *Using technology to revolutionize cooperative learning: an opinion*. *Frontiers in Psychology*, 5, 1156. <https://doi.org/10.3389/fpsyg.2014.01156>

2) Kapadia, D. H. (2024). *9 ways that collaborative technology learning can benefit teachers and students*. CoSN. <https://www.cosn.org/9-ways-that-collaborative-technology-learning-can-benefit-teachers-and-students/>

3) Ashurova, D. (2024). *Designing effective collaborative strategies for English language instruction: Key didactic conditions*. *International Journal of Advance Scientific Research*, 4(12), 246–251. <https://doi.org/10.37547/ijasr-04-1237>

4) Ashurova, D. (2023, November 17). *Oliy ta'lim muassasalarida hamkorlikda o'qitish strategiyalarini qo'llash orqali ta'lim samaradorligini oshirish usullari*. In "O'zbekistonning xalqaro reyting va indeksdagi o'rnini yaxshilash muammolari: nazariya, amaliyot va strategiya" xalqaro ilmiy-amaliy konferensiyasi materiallari (betlar 766–769). Toshkent. <https://doi.org/10.5281/zenodo.10143281>

5) Deutsch, M. (1949). *A theory of cooperation and competition*. *Human Relations*, 2(2), 129–152. <https://doi.org/10.1177/001872674900200204>

FILOLOGIYA FANLARI

ОТРАЖЕНИЕ ЭТНИЧЕСКИХ СТЕРЕОТИПОВ В ПРОЗЕ А. П. ЧЕХОВА

Юлдашева М.М., PhD, Бухарский государственный педагогический институт, Бухара, Узбекистан

mashhurayuldasheva1973@gmail.com

Исмоилова Ханифабону Кобил кизи, Магистрант Бухарского государственного педагогического института

ismoilovahanifabonu@icloud.com

Введение: В тезисе рассматривается проблема отражения этнических стереотипов в произведениях А. П. Чехова. Анализируются особенности изображения представителей различных национальностей в его прозе, выявляются ключевые художественные приёмы, используемые автором для создания этнических образов. Особое внимание уделяется вопросам сатиры, иронии и реалистической типизации. Статья демонстрирует, как Чехов избегает прямых предубеждений, но при этом фиксирует бытовые и культурные особенности различных народов, что отражает специфику эпохи и общественных настроений того времени.

Ключевые слова: А. П. Чехов, этнические стереотипы, проза, национальные образы, реализм, сатира, ирония, типизация.

ETNIK STEREOTIPLARNING A. P. CHEXOV PROZASIDAGI AKS ETISHI

Yuldasheva Mashhura Muzaffarovna., PhD, Buxoro davlat pedagogika instituti, Buxoro, O'zbekiston

mashhurayuldasheva1973@gmail.com

Ismoilova Hanifabonu Qobil qizi, Buxoro davlat pedagogika instituti magistranti

ismoilovahanifabonu@icloud.com

Kirish: Ushbu tezisdagi A. P. Chexov asarlarida etnik stereotiplarning aks etish muammosi ko'rib chiqiladi. Uning prozasida turli millat vakillarining tasvirlanish xususiyatlari tahlil qilinadi, etnik obrazlarni yaratishda muallif qo'llagan asosiy badiiy usullar aniqlanadi. Xususan, satira, istehzo va realistik tipizatsiya masalalariga alohida e'tibor qaratiladi. Maqolada Chexov to'g'ridan-to'g'ri xurofotlardan qochgan holda, turli xalqlarning turmush tarzi va madaniy xususiyatlarini aks ettirgani, bu esa o'sha davrning ijtimoiy kayfiyatini va tarixiy xususiyatlarini aks ettirganini ko'rsatadi.

Kalit so'zlar: A. P. Chexov, etnik stereotiplar, proza, milliy obrazlar, realizm, satira, istehzo, tipizatsiya.

REFLECTION OF ETHNIC STEREOTYPES IN A. P. CHEKHOV'S PROSE

Yuldasheva M.M., PhD, Bukhara State Pedagogical Institute, Bukhara, Uzbekistan

mashhurayuldasheva1973@gmail.com

Ismoilova Hanifabonu Kobilovna, Master's Student, Bukhara State Pedagogical Institute

ismoilovahanifabonu@icloud.com

Introduction: *This thesis examines the issue of ethnic stereotypes in the works of A. P. Chekhov. It analyzes the characteristics of how representatives of different nationalities are portrayed in his prose and identifies key artistic techniques used by the author to create ethnic images. Special attention is paid to satire, irony, and realistic typification. The article demonstrates how Chekhov avoids direct prejudices while simultaneously capturing the everyday life and cultural characteristics of various peoples, reflecting the social atmosphere and historical context of his time.*

Keywords: *A. P. Chekhov, ethnic stereotypes, prose, national images, realism, satire, irony, typification.*

МЕТОДОЛОГИЯ

Антон Павлович Чехов (1860–1904) — выдающийся представитель русской реалистической литературы, чьи произведения известны глубиной психологического анализа и тонкой социальной критикой. В его прозе часто можно встретить героев, представляющих разные этнические группы, что позволяет исследовать особенности их художественного изображения и выявить наличие этнических стереотипов. Вместе с тем, Чехов стремится к объективности и беспристрастности, внимательно наблюдая за окружающей действительностью и передавая её с точностью. Он избегает резких и предвзятых национальных клише, вместо этого передавая характеры персонажей через их поведение, поступки и социальные условия. Его произведения демонстрируют не только нюансы межнационального взаимодействия, но и особенности восприятия разных народов в российском обществе конца XIX века.

Антон Павлович Чехов в своих произведениях часто изображал персонажей различных национальностей, таких как евреи, украинцы, грузины, татары и другие. Это позволяло ему передать многообразие общества и исследовать межэтнические отношения.

В рассказе «Ванька» (1886) присутствует упоминание о «немце-фельдшере». Образ немца-фельдшера был распространён в русской литературе того времени и часто ассоциировался с профессионализмом и педантичностью. Чехов использует этот стереотип, чтобы подчеркнуть определённые черты персонажа, придавая ему национальную окраску.

В рассказе «Случай из практики» (1883) Чехов вводит образ еврейского врача. Персонаж выписан с реалистической точностью, без использования злонамеренных стереотипов, что было нетипично для литературы того периода. Чехов стремится показать профессионализм и человечность врача, избегая предвзятости и подчёркивая его индивидуальность.

В других произведениях Чехова также встречаются образы представителей различных национальностей. Например, в рассказе «Дочь Альбиона» (1883) изображена англичанка, чьё поведение и манеры противопоставляются русским традициям, что подчёркивает культурные различия и стереотипы того времени.

В рассказе «Толстый и тонкий» Антон Павлович Чехов исследует различия в социальном статусе и положении двух персонажей, избегая при этом

акцентирования на их этнической принадлежности. Это подчёркивает стремление автора сосредоточиться на человеческих качествах и социальных взаимоотношениях, не прибегая к этническим стереотипам.

Сюжет разворачивается на Николаевском вокзале, где случайно встречаются два давних школьных товарища — Михаил (Толстый) и Порфирий (Тонкий). Их первоначальная радость от встречи постепенно сменяется напряжением, когда Тонкий узнаёт о высоком чине Толстого — тайного советника. Узнав об этом, Тонкий начинает проявлять чрезмерное почтение и раболепие, что вызывает у Толстого отвращение и побуждает его поскорее завершить разговор.

Чехов мастерски использует контраст между персонажами, подчёркивая их внутренние качества и отношение к социальной иерархии. Толстый остаётся непринуждённым и искренним, несмотря на свой высокий статус, тогда как Тонкий, узнав о положении друга, мгновенно меняет своё поведение, проявляя чинопочтение и самоуничижение.

РЕЗУЛЬТАТЫ И ОБСУЖДЕНИЕ

Важным аспектом рассказа является отсутствие этнической окраски в изображении персонажей. Чехов сосредотачивается на социальных ролях и личностных качествах, избегая этнических клише. Это позволяет автору глубже исследовать тему человеческого достоинства и самоуважения, показывая, что истинная ценность человека определяется не его социальным статусом или этнической принадлежностью, а внутренними качествами и отношением к другим.

Антон Павлович Чехов, в отличие от некоторых своих современников, избегал крайних проявлений национализма в своих произведениях. Он стремился изображать представителей различных народов через их индивидуальные черты, не сводя их к упрощённым стереотипам. Это свидетельствует о его глубоком гуманизме и стремлении к объективному отображению действительности.

В своих произведениях Чехов часто обращался к этническим стереотипам, однако его подход отличался от общепринятого в литературе того времени. Он использовал стереотипы не для унижения или высмеивания, а для демонстрации разных ценностно-смысловых позиций и отделения одной культуры от другой. Например, в рассказе «Дочь Альбиона» Чехов изображает англичанку, чьё поведение и манеры противопоставляются русским традициям, подчёркивая культурные различия и стереотипы того времени.

Чехов мастерски использовал сатиру и иронию, но не допускал карикатурных или уничижительных изображений национальностей. Его персонажи, представляющие разные этнические группы, выписаны с реалистической точностью и лишены предвзятости. Такой подход позволяет читателю увидеть представителей разных народов через призму их индивидуальных качеств, а не через призму стереотипов.

Его творчество остаётся актуальным и сегодня, поскольку поднимает

универсальные темы, затрагивающие вопросы человечности, нравственности и социальной справедливости. Чеховское изображение этнических стереотипов служит средством выражения художественного замысла, позволяя глубже понять межкультурные взаимодействия и человеческую природу.

Таким образом, Чехов, избегая крайних проявлений национализма и упрощённых стереотипов, создавал многогранные образы представителей разных народов, что подчёркивает его стремление к объективности и гуманизму в литературе.

СПИСОК ЛИТЕРАТУРЫ:

1. Чехов А. П. Полное собрание сочинений в 30 томах. — М.: Наука, 1974–1983.
2. Венгеров С. А. Критические очерки о русской литературе XIX века. — СПб., 1901.
3. Громов М. П. Чехов и его эпоха. — М.: Просвещение, 2008.
4. Казарин Л. Л. Поэтика прозы А. П. Чехова. — СПб.: Изд-во СПбГУ, 2000.
5. Лотман Ю. М. Анализ художественного текста. — М.: Академический проект, 2001.
6. Трояновский В. П. Реализм в русской литературе XIX века. — М.: Литературоведение, 1999.

ЗВУКОВОЙ ПОВТОР КАК СРЕДСТВО ХУДОЖЕСТВЕННОЙ ВЫРАЗИТЕЛЬНОСТИ

Адизов Фаррух, Магистрант Бухарского государственного педагогического института
dgabbana629@gmail.com

Аннотация В статье рассматривается роль звукового повтора как важного средства художественной выразительности в поэзии. Анализируется влияние различных видов звуковых повторов, таких как аллитерация, ассонанс, анафора и эпифора, на восприятие читателя. Особое внимание уделяется поэзии Серебряного века и творчеству таких поэтов, как Валерий Брюсов, Константин Бальмонт, Александр Блок и Осип Мандельштам. Рассматривается взаимодействие звуковых повторов с метрической структурой, лексическим наполнением и стилем произведения. Делается вывод о значимости звуковой организации текста как важного элемента художественного воздействия.

Ключевые слова: звуковой повтор, аллитерация, ассонанс, анафора, поэзия Серебряного века, художественная выразительность.

OVOZ TAKRORI – BADIY IFODALILIK VOSITASI SIFATIDA

Adizov Farrux, Buxoro davlat pedagogika instituti magistranti
dgabbana629@gmail.com

Annotatsiya: Ushbu maqolada ovoz takrorining poeziyada muhim badiiy ifodalilik vositasi sifatidagi roli ko'rib chiqiladi. Aliteratsiya, assonans, anafora va epifora kabi turli xil ovoz takrorlarining o'quvchi tomonidan qabul qilinishiga ta'siri tahlil qilinadi. Xususan, Kumush asr poeziyasi hamda Valeriy Bryusov, Konstantin Balmont, Aleksandr Blok va Osip Mandelstam ijodiga alohida e'tibor qaratiladi. Ovoz takrorlarining metrik tuzilma, leksik jihatlar va asarning uslubi bilan o'zaro aloqasi tahlil qilinadi. Maqolada badiiy matnning ta'sirchanligini oshirishda ovoz tashkiloti muhim omil ekanligi xulosa qilinadi.

Kalit so'zlar: ovoz takrori, aliteratsiya, assonans, anafora, Kumush asr poeziyasi, badiiy ifodalilik.

SOUND REPETITION AS A MEANS OF ARTISTIC EXPRESSION

Adizov Farrukh, Master's Student, Bukhara State Pedagogical Institute
dgabbana629@gmail.com

Abstract: This article examines the role of sound repetition as an important means of artistic expression in poetry. It analyzes the impact of various types of sound repetitions, such as alliteration, assonance, anaphora, and epiphora, on the reader's perception. Special attention is given to the poetry of the Silver Age and the works of poets such as Valery Bryusov, Konstantin Balmont, Alexander Blok, and Osip Mandelstam. The interaction of sound repetitions with metrical structure, lexical composition, and style is explored. The study concludes that sound organization plays a significant role in enhancing the artistic impact of a text.

Keywords: sound repetition, alliteration, assonance, anaphora, Silver Age poetry, artistic expression.

Звуковой повтор играет ключевую роль в поэтическом тексте, усиливая его ритмическую организацию, эмоциональное воздействие и смысловую глубину. В художественной литературе повтор звуковых элементов не только создаёт особую интонацию, но и способствует музыкальности и экспрессивности речи, влияя на восприятие читателя. Он позволяет автору формировать особую атмосферу

произведения, передавая различные эмоциональные состояния — от тревоги и напряжённости до умиротворённости и гармонии. [Брик, с. 58].

В поэзии Серебряного века звуковая организация текста становится важным средством художественной выразительности. Поэты, такие как Валерий Брюсов, Константин Бальмонт, Александр Блок и Осип Мандельштам, активно использовали аллитерацию, ассонанс и другие формы фонетического повторения для усиления образной насыщенности и передачи эмоционального состояния. Эти техники позволяли передавать сложные философские идеи и лирические настроения через звукопись, делая текст более выразительным и мелодичным.

Аллитерация — повторение согласных звуков — помогает создать эффект динамики или, напротив, замедленности, в зависимости от используемых сочетаний. Ассонанс — повторение гласных — делает стихотворение более певучим, усиливает его эмоциональное звучание. Особое значение имеет анафора, когда повторяются начальные звуки или слова в строках, что способствует ритмической организации произведения и его запоминаемости. Эпифора, представляющая собой повторение звуков или слов в конце строк, способствует усилению драматического эффекта и подчёркивает ключевые моменты текста.

Исследование звукового повтора в поэзии открывает новые возможности для понимания механизмов формирования художественного смысла. Особое внимание уделяется взаимодействию звуковых повторов с метрической структурой, лексическим наполнением и общим стилистическим строем произведения. Также рассматривается их связь с традициями символизма и акмеизма. Символисты стремились к музыкальности стиха, используя сложные ритмические и звуковые конструкции, а акмеисты предпочитали более чёткую и точную звуковую организацию. В этом контексте можно отметить влияние античной и средневековой поэзии, где звуковые повторы играли сакральную и магическую роль, подчеркивая важность звучания слова.

Кроме того, звуковые повторы играют важную роль в создании авторского стиля. Например, у Александра Блока аллитерация и ассонанс часто служат средством передачи мистического и загадочного настроения, а у Осипа Мандельштама звуковая организация подчинена поиску гармонии между звучанием и смыслом. У Бальмонта повтор звуков и ритмическая структура придавали текстам гипнотическую музыкальность, создавая эффект колдовства и очарования. [Бальмонт, с. 45]. Брюсов использовал звуковые повторы как средство создания холодной, математически выверенной поэтической архитектуры. [Брюсов, с. 120]

Современные исследования фонетической организации текста демонстрируют, что звуковые повторы могут не только усиливать художественное впечатление, но и

оказывать влияние на когнитивное восприятие произведения. Экспериментальные данные показывают, что ритмически организованные тексты легче запоминаются, а фонетические повторы могут вызывать определённые эмоциональные реакции у читателей. Этот аспект делает звуковую организацию текста особенно важной в контексте изучения влияния поэзии на сознание и подсознание.

Заключение В данной статье проанализированы основные функции звукового повтора в художественном тексте, рассмотрены его разновидности и влияние на восприятие читателя. Было показано, что звуковая организация текста является не просто стилистическим приёмом, а ключевым элементом художественной формы, способным глубже раскрыть авторский замысел и воздействовать на читателя на интуитивном уровне. Исследование данного явления позволяет понять, как взаимодействие звука и смысла в поэзии способствует её эмоциональной и интеллектуальной глубине. Таким образом, звуковые повторы становятся важным инструментом поэтического мастерства, оказывающим сильное воздействие на восприятие произведения и формирующим уникальную художественную ткань текста.

СПИСОК ЛИТЕРАТУРЫ

1. Брик О. М. Звуковые повторы // Поэтика. Сборник статей. — Петроград: 1919. — С. 57–63.
2. Брюсов В. Я. Стихотворения и поэмы. — М.: Правда, 1987. — 480 с.
3. Бальмонт К. Д. Стихотворения. — М.: Художественная литература, 1988. — 560

ОСОБЕННОСТИ МАЛОЙ ПРОЗЫ Л. УЛИЦКОЙ

Эргашева Дилфуза Камилловна, Преподаватель Бухарского государственного педагогического института
dilfuzaergasheva1972@mail.ru

Аннотация: В статье исследуются характерные черты малой прозы Людмилы Улицкой, одной из ярких фигур современной русской литературы. Малые жанры, такие как рассказ и новелла, занимают особое место в её творчестве, отличаясь насыщенной образностью и философским подтекстом. В своих произведениях она создала особый, во многом уникальный художественный мир.

Ключевые слова: «Новая волна», художественный мир, избранный народ, философско-религиозный уровень, трагизм жизни.

L. ULITSKAYANING KICHIK PROZASI XUSUSIYATLARI

Ergasheva Dilfuza Kamilovna, Buxoro davlat pedagogika instituti o'qituvchisi
dilfuzaergasheva1972@mail.ru

Annotatsiya: Ushbu maqolada zamonaviy rus adabiyotining yorqin vakillaridan biri bo'lgan Lyudmila Ulitskayaning kichik prozasiga xos jihatlar tadqiq etiladi. Hikoya va novella kabi kichik janrlar uning ijodida alohida o'rin tutib, boy badiiy obrazlilik va falsafiy ma'nolar bilan ajralib turadi. Yozuvchi o'z asarlarida o'ziga xos, ko'p jihatdan betakror badiiy olam yaratgan.

Kalit so'zlar: «Yangi to'lqin», badiiy olam, tanlangan xalq, falsafiy-diniy daraja, hayot fojiasi.

FEATURES OF L. ULITSKAYA'S SHORT PROSE

Ergasheva Dilfuza Kamilovna, Lecturer at Bukhara State Pedagogical Institute
dilfuzaergasheva1972@mail.ru

Abstract: This article explores the distinctive features of Lyudmila Ulitskaya's short prose, one of the prominent figures in contemporary Russian literature. Short genres such as the short story and novella hold a special place in her work, characterized by rich imagery and a philosophical undertone. In her writings, she has created a unique and, in many ways, unparalleled artistic world.

Keywords: "New Wave," artistic world, chosen people, philosophical-religious level, life's tragedy.

В середине 80-х годов XX века с происходящей в стране «перестройкой» рухнул советский тип ментальности, распался социальный базис всеобщего понимания действительности. Несомненно, это нашло свое отражение и в литературном процессе конца века.

Наряду с еще существовавшим нормативным соцреализмом, который просто «ушел» в масскульт: детективы, сериалы – направления, где художник изначально уверен, что знает истину и может выстроить модель мира, которая укажет путь в светлое будущее; наряду с уже заявившим о себе постмодернизмом со своей мифологизацией действительности, саморегулирующимся хаосом, поисками компромисса между хаосом и космосом (Т. Толстая «Кысь», В. Пелевин «Омон Ра» и др.); наряду с этим в 90-е годы публикуется ряд произведений, которые опираются на традиции классического реализма: А. Азольский «Диверсант», Л. Улицкая «Веселые похороны» и др. Тогда стало ясно, что традиции русского реализма XIX века, несмотря на кризис романа как основного жанра реализма, не просто не умерли, а еще обогатились, ссылаясь на опыт возвращенной литературы (В. Максимов, А. Приставкин и др.). А это в свою очередь свидетельствует о том, что попытки расшатать традиционное понимание и объяснение причинно-следственных связей не удалась, т.к. реализм может

работать только тогда, когда возможно обнаружить эти причинно-следственные связи. Кроме того, постреализм стал объяснять секрет внутреннего мира человека через обстоятельства, которые эту психологию формируют, он ищет объяснение феномена человеческой души.

Но до сих пор до конца неисследованной остается литература так называемой «Новой волны», появившаяся еще в 70-е годы XX века. Эта литература была очень неоднородной, и авторов зачастую объединяла лишь хронология появления произведений и общее стремление к поиску новых художественных форм. Среди произведений «Новой волны» появились книги, которые стали называть «женской прозой»: Т. Толстая, В. Токарева, Л. Улицкая, Л. Петрушевская, Г. Щербакова и др. И до сих пор нет единогласного решения в вопросе о творческом методе этих писательниц. Ведь отсутствие «устоявшихся табу» и свобода слова дают возможность писателям разных направлений без ограничений выражать свою художественную позицию, а лозунгом художественного творчества стали эстетические поиски самого себя. Возможно, этим и объясняется отсутствие единой точки зрения на творчество писателей «Новой волны». Так, например, если многие литературоведы определяют Т. Толстую как постмодернистского писателя, то с Л. Улицкой вопрос обстоит сложнее. Одни видят в ней представительницу «женской прозы», другие рассматривают ее как «постмодернистку», третьи – представительницей современного неосентиментализма. Вокруг этих имен ведутся споры, звучат взаимоисключающие суждения не только о творческом методе, но и о смысле аллюзий, роли автора, типах героев, выборе сюжетов, манере письма. Все это свидетельствует о сложности и неоднозначности восприятия художественного текста представительниц «женской прозы».

Одной из ярких представительниц современной литературы является Л. Улицкая. В своих произведениях она создала особый, во многом уникальный художественный мир.

Во-первых, отметим, что многие ее рассказы посвящены не сегодняшнему времени, а времени начала века, войне или послевоенному времени.

Во-вторых, автор погружает читателя в простую и в то же время угнетенную жизнь обычных людей, в их проблемы и переживания. После прочтения рассказов Улицкой возникает тяжелое чувство жалости к героям и в то же время безысходности. Но всегда за этим у Улицкой кроются проблемы, касающиеся всех и каждого: проблемы взаимоотношения людей.

Так, например, в рассказах «Народ избранный» и «Дочь Бухары» с помощью очень незначительных частных историй поднят огромный пласт жизни, которого мы в большинстве своем не то чтобы не знаем, а не хотим знать, бежим от него. Это рассказы об инвалидах, убогих и попрошайках («Народ избранный»), о людях, страдающих синдромом Дауна («Дочь Бухары»).

Для чего автор обращает наше внимание на убогих, страдающих и инвалидов? Какую мысль она хочет донести до нас?

Ни один человек, по мнению Л. Улицкой, не рождается для страданий и боли. Все достойны того, чтобы быть счастливыми, здоровыми и благополучными. Но даже самому счастливому человеку дано понять трагизм жизни: боль, страх, одиночество, болезни, страдания, смерть. Далеко не каждый смиренно принимает свою судьбу. А высшая мудрость, по мнению автора, состоит как раз в том, чтобы научиться верить, уметь смиряться с неизбежным, не завидовать чужому счастью, а быть счастливым самому, несмотря ни на что. А найти счастье может только тот, кто понял и принял свое предназначение. Именно поэтому, когда больные синдромом Дауна Мила и Григорий в рассказе «Дочь Бухары» шли по улице, взявшись за руки, «оба в уродливых круглых очках, выданных им бесплатно», все оборачивались на них. Многие показывали на них пальцем и даже смеялись. Но они не замечали чужого интереса. Ведь и сейчас есть множество здоровых, полноценных людей, которые могли бы только позавидовать их счастью!

Именно поэтому убогие, нищие, попрошайки у Улицкой – народ избранный. Потому что они мудрее. Потому что они познали истинное счастье: счастье не в богатстве, не в красоте, но в смирении, в благодарности за жизни, какой бы она ни была, в осознании своего места в жизни, которое есть у каждого – к такому выводу приходит Катя, героиня рассказа «Народ избранный». Просто необходимо понять, что Богом обиженные страдают больше, чтобы остальным легче было.

Отличительной чертой прозы Л. Улицкой является спокойная манера повествования, а главным достоинством ее творчества – авторское отношение к своим героям: Улицкая подкупает не просто интересом к человеческой личности, а состраданием к ней, чего не часто встретишь в современной литературе.

Таким образом, в рассказах Л. Улицкой всегда есть выход на философско-религиозный уровень осмысления жизни. Ее персонажи, как правило, – «маленькие люди», старики, больные, бедные, отверженные обществом люди – руководствуются принципом: никогда не спрашивай «за что», спрашивай «для чего». По мнению Улицкой, все происходящее, даже самое несправедливое, мучительное, если его правильно воспринимать, непременно направлено на открытие в человеке нового видения. Именно эта мысль лежит в основе ее рассказов.

ЛИТЕРАТУРА

1.Егорова Н.А.ПрозаЛ. Улицкой 1980-2000-х годов (проблематика и поэтика): автореф. дис. на соиск. учён. степени канд. филол. наук / Н. А. Егорова. – Астрахань, 2007. – 24 с.

2. Ильин И. Постмодернизм от истоков до конца столетия: эволюция научного мифа / И. Ильин. – М.: Интрада, 1998. — 255 с.

3. Тимина С. Ритмы вечности (Роман Л. Улицкой «Медея и её дети») / С. Тимина // Русская литература XX века в зеркале критики. – Спб.-М.: Академия, 2003. — С. 432-456.

ALISHER NAVOIY ASARLARIDA ANTONOMAZIYALAR: BADIY VA MA'NAVIY TAHLILI

Achilova Risolat Azamovna, PhD, Buxoro davlat pedagogika institute, Xorijiy tillarni o'qitish metodikasi kafedrası dotsenti, O'zbekiston, Buxoro

achilovaRisolat@buxdpi.uz

Mustafoyeva Nodira Erkin qizi, **asalom ale** Buxoro davlat pedagogika instituti, Xorijiy til va adabiyoti yo'nalishi, 1-bosqich magistranti, O'zbekiston, Buxoro

nodiramustafoyeva31@gmail.com

Annotatsiya: Ushbu tezisdagi Alisher Navoiy asarlaridagi antonomaziyalarning semantik tadqiqoti, ularning badiiy ifoda vositalari sifatida qanday ishlatilishi, ma'naviy va falsafiy qarashlarning ifodasi sifatida qanchalik ahamiyatga ega ekanligi o'rganiladi. Xususan, Navoiy asarlarida yasalgan qarama-qarshi tushunchalar, simbolizm, fe'l-atvorlar o'rtasidagi ziddiyat va tasavvufiy yondashuvlar tushuntiriladi. Natijada, bu tadqiqot Alisher Navoiy ijodining ichki mantig'ini va estetik boyligini yanada chuqurroq anglash imkonini beradi.

Kalit so'zlar: antonomaziya, badiiy ifoda, simbolizm, falsafiy aspektlar, tasavvuf.

АНТОНОМАЗИИ В ТВОРЧЕСТВЕ АЛИШЕРА НАВОИ: ХУДОЖЕСТВЕННЫЙ И ДУХОВНЫЙ АНАЛИЗ

Ачилова Рисолат Азамовна, PhD, Бухарский государственный педагогический институт, Доцент кафедры методики преподавания иностранных языков, Узбекистан, Бухара

achilovaRisolat@buxdpi.uz

Мустафоева Нодира Эркин кизи, Бухарский государственный педагогический институт, Направление иностранный язык и литература, Магистрант 1-курса, Узбекистан, Бухара

nodiramustafoyeva31@gmail.com

Аннотация: В данной диссертации исследуется семантическое исследование антономазий в творчестве Алишера Навои, как они используются как средства художественной выразительности, насколько они важны как выражение духовно-философских взглядов. В частности, объясняются противоречия между противоположными понятиями, символикой, характерами и мистическими подходами, выработанными в произведениях Навои. В результате это исследование дает более глубокое понимание внутренней логики и эстетического богатства творчества Алишера Навои.

Ключевые слова: антономазия, художественное выражение, символизм, философские аспекты, мистицизм.

ANTONOMASIAS IN THE WORKS OF ALISHER NAVOI: ARTISTIC AND SPIRITUAL ANALYSIS

Achilova Risolat Azamovna, PhD, Bukhara State Pedagogical Institute, Associate professor of the Department of methodology for teaching foreign languages, Uzbekistan, Bukhara

achilovaRisolat@buxdpi.uz

Mustafoyeva Nodira Erkin qizi, Bukhara State Pedagogical Institute, Master's student of foreign language and literature, Uzbekistan, Bukhara

nodiramustafoyeva31@gmail.com

Annotation: in this thesis, the semantic study of antonomasies in the works of Alisher Navoi is studied how they are used as tools of artistic expression, how important they are as expressions of spiritual and philosophical views. In particular, the works of Navoi explain the opposite concepts, symbolism, conflict between characters and mysticism approaches made. As a result, this study allows you to more deeply understand the inner logic and aesthetic richness of the work of Alisher Navoi.

Keywords: *antonomasia, artistic expression, symbolism, philosophical aspects, mysticism.*

Kirish: Alisher Navoiy ijodi o'zbek adabiyotining eng yuksak cho'qqilaridan biri bo'lib, u o'z asarlari orqali nafaqat san'at va adabiyotga, balki inson tafakkuri va ma'naviyatiga ham katta hissa qo'shgan. Uning ijodi chuqur falsafiy, diniy va ijtimoiy mazmun bilan boyitilgan bo'lib, har bir asarida inson tabiatining murakkab jihatlari, jamiyatdagi muammolar va axloqiy qadriyatlar o'z aksini topgan. Shu jihatdan, Navoiy asarlaridagi badiiy vositalarni, xususan, antonomaziyani o'rganish katta ahamiyat kasb etadi.

Antonomaziya – bu bir tushunchani boshqasi orqali ifodalash san'ati bo'lib, u adabiy tilda ma'no chuqurligini oshiradi, obrazlarning boyligi va ko'p qirraliligini ta'minlaydi. Alisher Navoiy o'z asarlarida antonomaziyani keng qo'llagan bo'lib, uning yordami bilan insoniy his-tuyg'ular, axloqiy g'oyalar va falsafiy qarashlarni yanada chuqurroq ifodalagan. Ushbu tadqiqot aynan Navoiy asarlarida antonomaziya vositasida qanday badiiy ma'no hosil qilinishini, bu usulning semantik va stilistik xususiyatlarini o'rganishga bag'ishlanadi.

Tadqiqot obyekti: Mazkur ishda Alisher Navoiy asarlarida antonomaziya vositasida ifodalangan badiiy obrazlar, ularning semantik va stilistik ahamiyati tadqiq etiladi. Tadqiqot obyekti sifatida "Xamsa" dostonlari, shuningdek, Navoiy g'azallari va tasavvufiy yo'nalishdagi asarlarida uchraydigan antonomaziyalar tahlil qilinadi.

Mazkur tadqiqot obyekti Alisher Navoiy asarlaridagi antonomaziya san'ati va uning badiiy-falsafiy jihatlaridir. Tadqiqotda quyidagi asarlar asosiy manba sifatida tanlangan:

- "Xamsa" – besh doston majmuasi bo'lib, unda insoniy munosabatlar, hayot va o'lim, sevgi va nafrat, adolat va zulm kabi mavzular aks ettirilgan.
- G'azallar – Navoiy she'riyati inson qalbining murakkab kechinmalarini aks ettiruvchi, antonomaziya kabi badiiy vositalardan keng foydalanilgan janrdir.
- Tasavvufiy asarlar – Navoiy tasavvuf falsafasi orqali inson va ilohiy haqiqat o'rtasidagi bog'liqlikni ifoda etishda antonomaziyalardan foydalangan.

Tadqiqot davomida ushbu asarlardagi antonomaziyalar tahlil qilinib, ularning semantik vazifalari, badiiy funksiyalari va falsafiy jihatlari chuqur o'rganiladi.

Alisher Navoiy ijodi O'zbek adabiyoti tarixida muhim o'rin egallagan bo'lib, uning asarlari nafaqat badiiy-estetik jihatdan, balki ma'naviy-falsafiy qirralari bilan ham alohida ajralib turadi. U o'z davrining eng yetuk mutafakkirlaridan biri sifatida adabiyotga o'ziga xos uslub va chuqur falsafiy qarashlarni olib kirgan. Navoiy asarlarida so'z san'ati yuksak darajada namoyon bo'lib, u badiiy vositalarni nozik ishlatishi bilan ajralib turadi. Ushbu tadqiqot aynan Navoiy asarlarida antonomaziya, ya'ni ma'nolar qarama-qarshiligi orqali badiiy ifodalarning shakllanishi va rivojlanishi, bir tushunchani boshqasi orqali ifodalashni o'rganishga bag'ishlanadi.

Alisher Navoiy o'z vaqtida o'zbek adabiyotining eng muhim shaxslaridan biri bo'lib, uning asarlari nafaqat badiiy, balki ma'naviy va falsafiy jihatlari bilan ham yuksak ahamiyatga ega. Navoiy ijodida qatlamli ma'nolar, chuqur psixologik tahlillar va g'oyaviy

ziddiyatlar, albatta, alohida e'tiborga sazovor. Ana shu asarlarda antonomaziya, ya'ni qarama-qarshi tushunchalarning bir-biri o'rnini to'ldirishi orqali berilishi san'atning turli qirralarini yoritishda muhim rol o'ynaydi.

Alisher Navoiy asarlarida antonomaziyalarning semantik tadqiqi juda qiziqarli va muhim mavzudir, chunki Navoiy o'z ijodida ko'plab figurativ til vositalaridan, jumladan antonomaziya dan foydalanadi. Antonomaziya – biror narsani boshqa bir narsaning o'rniga surish orqali ifoda etishdir, bu esa badiiy asarlar uchun muhim estetik va anglash imkoniyatlarini ochadi.

Alisher Navoiy asarlaridagi antonomaziyalarning semantik tadqiqoti uning ijodidagi badiiy ifodalar va ma'naviy g'oyalarning ko'plab o'ziga xos jihatlarini o'z ichiga oladi. Ushbu qismda Navoiy asarlarida antonomaziyalar qanday ta'sir ko'rsatishi, badiiy ifodalarni qanday boyitishi va inson ruhiyatidagi murakkabliklarni qanday ochishi ko'rib chiqiladi va shularning ba'zi jihatlarini keltirib o'tish mumkin.

Qo'llanilgan metodlar: Mazkur tadqiqotda semantik va stilistik tahlil usullari qo'llanilib, antonomaziya vositasida yaratilgan badiiy ifodalarning asosiy xususiyatlari tahlil qilindi. Shuningdek, komparativ (taqqoslash) metodi yordamida Navoiy asarlaridagi antonomaziyalarning boshqa adabiyot namoyandalari asarlaridagi qo'llanilishiga nisbatan o'ziga xos jihatlarini aniqlab berildi. Lingvistik va poetik tahlil usullari orqali antonomaziyalarning semantik-funksional xususiyatlari o'rganildi.

Tadqiqot jarayonida quyidagi metodlardan foydalanildi:

1. Semantik tahlil – antonomaziyalarning ma'no jihatdan qanday ishlatilganligini, ularning matn ichidagi vazifasini aniqlash uchun qo'llanildi.
2. Stilistik tahlil – antonomaziyaning badiiy uslubdagi o'rni, poetik ma'nosi va o'quvchiga ta'sirini o'rganishga qaratildi.
3. Komparativ (taqqoslash) metodi – Navoiy asarlaridagi antonomaziyalar boshqa adabiyot namunalariidagi o'xshash uslublar bilan qiyoslandi.
4. Konseptual tahlil – antonomaziyalar yordamida shakllangan asosiy g'oyalar va mavzular tahlil qilindi.

Bu metodlar yordamida Navoiy asarlaridagi antonomaziyaning roli, uning badiiy va falsafiy ahamiyati chuqur tahlil qilindi.

Qarama-qarshi tushunchalar: Navoiy asarlarida amin bo'lishimiz mumkin bo'lgan qarama-qarshi tushunchalar, asosan, yaxshilik-yomonlik, hayot-o'lim, sevgi-nafrat singari tematik elementlarni o'z ichiga oladi. Bu tushunchalar Navoiy ijodida insonga xos beqarorlik va murakkabliklarni aks ettirishda muhim rol o'ynaydi. "Xamsa" asarida yorqin sevgi va achchiq nafrat o'rtasidagi ziddiyatlar, o'quvchini insoniy hissiyotlar va ichki kurashlarning yanada chuqur anglashiga olib keladi. Ushbu ziddiyatlar inson hayotining muhim jihatlarini aks ettiribgina qolmay, balki sizni o'zingizning ichki kurashlaringiz bilan yuzma-yuz qo'yar ekan.

Simvolizm va metaforika: Navoiy antonomaziyaning simvolik va metaforik ma'noda ustalik bilan ishlatadi, bu undan o'tkazilgan hissiyotlarni yanada kuchli ta'sirda berishga yordam beradi. U sevgi va nafrat motivlarini almashtirib, o'zaro ziddiyatlar va qarama-

qarshi holatlar orqali insonning ichki kechinmalarini kuchaytiradi. “Farhod va Shirin” asarida shunday yo‘l orqali, fe‘l-atvorlar o‘rtasidagi to‘siqlar va ziddiyatlar, ularning bir-biriga nisbatan qarama-qarshi hissiyotlarini yanada keltirib chiqaradi. Bu yondashuv asarlarning dramatik kuchini oshirib, o‘quvchilarga qiziqish uyg‘otadi.

Fe‘l-atvorlar o‘rtasidagi munosabatlar: Navoiy asarlaridagi fe‘l-atvorlar o‘rtasidagi munosabatlar qarama-qarshi xususiyatlar orqali ochiladi. Bu ziddiyatlar ularning ruhiy holatini, maqsadlarini va ichki kurashlarini ko‘rsatishda muhim ahamiyatga ega. U o‘z asarlaridagi fe‘l-atvorlarning o‘zaro muomalalari, qiziqarli intriga va ichki ziddiyatlarni kuchaytiradi, bu orqali o‘quvchi o‘z fikrlash jarayoni va hissiyotlarini yanada chuqurroq anglaydi.

Til va stilistik jihatlar: Navoiy asarlaridagi antonomaziya badiiy ahamiyatga ega, chunki u o‘ziga xos so‘zlar va iboralar yordamida mohirona obrazlar yaratadi. Bu esa o‘quvchilarga chuqur his-tuyg‘ular va fikrlarga erishishni ta‘minlab, matnning ritmi va muhim ma‘nolarini boyitadi. Navoiy asarlaridagi antonomaziyalar estetik jihatdan boyituvchi takliflardan iborat bo‘lib, har bir g‘oya va hissiyotning mohirona ifodasini taqdim etadi.

Diniy va falsafiy aspektlar: Navoiy asarlarida diniy va falsafiy masalalar ham antonomaziya orqali aks etadi. Hayot va o‘lim, yaxshilik va yomonlik o‘rtasidagi ziddiyatlar, Navoiy asarlaridagi chuqur ma‘naviy savollardan biridir. Navoiy inson tabiatining murakkabligini, hayot mazmunini va axloqiy jihatlarni o‘rganishda antonomaziyalardan to‘g‘ri foydalanadi. Misol sifatida “Majolis un-nafois” asarida hayot va o‘lim, ruh va tijorat o‘rtasidagi ziddiyatlar, asarning asosiy g‘oyalari va falsafiy tartiblar ekanligini ko‘rsatadi.

Tasavvufiy yondashuv: Navoiy tasavvufiy adabiyotda ham antonomaziyalardan keng foydalanadi. Tasavvuf falsafasi, inson ruhining o‘z-o‘zini anglash jarayonini aks ettirib, dualizmni muhim yondashuv sifatida ko‘rsatadi. U tasavvufiy tajribalarni sharhlashda antonomaziyalardan foydalangan holda, haqiqat va ilohiylik o‘rtasidagi o‘zaro munosabatlarni kuchli va ajoyib tarzda ifodalaydi. Tasavvufiy mavzular, bu orqali inson ruhiyatini yanada chuqurroq anglashga yordam beradi.

Olingan natijalar va ularning tahlili

Tadqiqot natijasida Alisher Navoiy asarlarida antonomaziya san‘atining quyidagi jihatlari aniqlandi:

- **Qarama-qarshi tushunchalar orqali badiiy kuchayish.** Navoiy asarlarida antonomaziya orqali berilgan yaxshilik va yomonlik, hayot va o‘lim, sevgi va nafrat kabi ziddiyatlar badiiy ifodaning kuchayishiga xizmat qiladi. Masalan, “Xamsa” dostonlarida insoniy his-tuyg‘ularning murakkabligi, jamiyatdagi ijtimoiy muammolar aynan antonomaziyalar orqali ta’kidlanadi.

- **Simvolik va metaforik ifodalar.** Antonomaziya simvol va metafora sifatida ham qo‘llanib, obrazlarning badiiy kuchini oshiradi. “Farhod va Shirin” dostonida sevgining ilohiy darajaga ko‘tarilishi, insoniy munosabatlardagi ziddiyatlar antonomaziyalar yordamida yanada ta’sirli ifodalangan.

• **Fe'l-atvorlar o'rtasidagi ziddiyatli munosabatlar.** Navoiy asarlarida qahramonlar fe'l-atvoridagi ziddiyatlar ham antonomaziya yordamida ochib beriladi. "Layli va Majnun" hikoyasida sevgining fojiaiy kechishi, insonning ichki kurashlari aynan ushbu uslub orqali yanada kuchaytirilgan.

• **Til va stilistik jihatlar.** Antonomaziya Navoiy tilining o'ziga xos jihatlaridan biri bo'lib, u badiiy tasvirning ta'sirchanligini oshiradi. U orqali shoir turli obrazlarni yanada chuqur ma'nolar bilan boyitadi.

• **Diniy va falsafiy jihatlar.** Navoiy asarlarida hayot va o'lim, yaxshilik va yomonlik, inson va ilohiylik o'rtasidagi ziddiyatlar antonomaziya vositasida yoritiladi. "Majolis un-nafois" asarida bu uslub inson tabiatining murakkabligini aks ettirish uchun ishlatilgan.

Ilmiy yangiligi: Mazkur tadqiqot Alisher Navoiy asarlarida antonomaziyaning adabiy-falsafiy jihatlarini lingvistik va semantik tahlil qilish bilan ajralib turadi. Oldingi tadqiqotlarda Navoiy asarlarining umumiy poetik jihatlarini ko'proq o'rganilgan bo'lsa, bu ishda aynan antonomaziyaning semantik va stilistik funksiyalari chuqur tahlil qilingan. Shuningdek, Navoiy ijodining tasavvufiy yondashuvi va badiiy tasvir vositalari bilan bog'liq jihatlarini ham yangi nuqtai nazardan ko'rib chiqilgan. Ushbu tadqiqot Alisher Navoiy asarlaridagi antonomaziyaning semantik va stilistik xususiyatlarini lingvistik va adabiy tahlil asosida o'rganish bilan ahamiyatlidir. Shu paytgacha Navoiy asarlarida antonomaziyaning adabiy-estetik jihatdan tahlili yetarli darajada chuqur o'rganilmagan. Mazkur tadqiqot esa ushbu san'atning Navoiy ijodidagi o'rni va uning badiiy vosita sifatida qanchalik muhimligini aniqlashga qaratilgan.

1. Tarixiy va madaniy kontekst: Navoiy yashagan davr — Temuriylar davri bo'lib, u madaniyat, san'at va adabiyotning gullab-yashnagan pallasiga to'g'ri keladi. Ushbu davr adabiyoti va ijtimoiy muhitining Navoiy ijodiga ta'sirini ko'rib chiqish mumkin. Qo'shimcha jihat: Navoiy asarlaridagi antonomaziya nafaqat badiiy ifoda vositasi, balki tarixiy va ijtimoiy voqelikni tasvirlashning o'ziga xos usuli ekanini ko'rsatish.

Alisher Navoiy yashagan davr — XV asr Temuriylar davriga to'g'ri keladi. Bu davr Markaziy Osiyo adabiyoti, san'ati va ilm-fanining gullab-yashnagan pallasidan biri hisoblanadi. Amir Temur va uning vorislari ilm-fan, me'morchilik va adabiyotni rivojlantirishga alohida e'tibor qaratgan. Xususan, Temuriylar saroyida adabiyot va san'at homiyligi kuchli bo'lib, bu ijodkorlarning asarlari taraqqiy etishiga katta hissa qo'shgan.

Alisher Navoiy ana shunday muhitda voyaga yetib, ijod qila boshladi. U nafaqat shoir, balki davlat arbobi sifatida ham faoliyat yuritdi. Uning ijodi faqat badiiy estetikani emas, balki jamiyatdagi ijtimoiy, axloqiy va falsafiy qarashlarni ham aks ettirgan. Navoiy asarlarida aks etgan antonomaziya uslubi uning o'z davridagi ijtimoiy-madaniy muhitni qanday qabul qilganini va qanday ifodalaganini tushunishga yordam beradi.

Masalan, Navoiy "Xamsa" dostonlarida va g'azallarida antonomaziya vositasida hayot va o'lim, adolat va zulm, yaxshilik va yomonlik kabi tushunchalarni o'zaro taqqoslaydi. Bu esa Temuriylar davridagi siyosiy va ijtimoiy muhitni tahlil qilish, adolatli jamiyat qurish g'oyalarini ilgari surish uchun muhim san'at vositasi bo'lib xizmat qilgan.

